

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

RASULOVA RAYXON BAXRITDINOVNA

**O‘QUVCHILARINING MATN YARATISH
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA 7-SINF
ADABIYOT DARSLIGIDAGI ASARLAR TAHLILINING
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI**

Monografiya

**Тошкент – 2024
“FIRDAVS-SHOH NASHRIYOTI”**

UO‘K 383.1
KBK 82.4 (5O‘zb)
R 25

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy texnik Kengashining 2024-yil 15- noyabrdagi 5-sonli yig‘ilishi bayonnomasidan ko‘chirma

Mas’ul muharrir:

SH. Q. MARDANOV

Pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

S.Matchanov - Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası professori , pedagogika fanlari doktori

M. Tadjibayev – O‘zDJTU professori, filologiya fanlari doktori.

Rayxon, Rasulova

O‘quvchilarining matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirishda 7-sinf adabiyot darsligidagi asarlar tahlilining innovatsion texnologiyalari. Monografiya. Rayxon Rasulova. – T.: “Firdavs-Shoh nashriyoti, 2024-y. – 118 b.

Monografiyada o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutq madaniyatiga ega bo‘lishda matn yaratish kompetensiyalari bilan bog‘liq eng muhim jihatlar ochib berildi. Badiiy asarlar talqini va tahlili bilan uyg‘unlashtirish asosida o‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishning pedagogik xususiyatlari va omillari aniqlashtirildi. Ona tili va adabiyot darslarida nutqni rivojlantirishda kitobxonlik muammolariga katta e’tibor qaratilib, o‘quvchilarni badiiy asarlar mutolaasiga motivatsiyasini oshishirish yo‘llari ishlab chiqildi. Umumta’lim maktab o‘quvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o‘qitishning ilmiy – nazariy, pedagogik – psixologik va didaktik asoslari tahlil qilindi. O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutq madaniyatini rivojlantirishda yosh xususiyatlari va ruhiyatiga mos ravishda tizimli ishlar bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Unda idrok va tafakkurni o‘stirish, o‘z fikrlarini asoslashda mustaqil fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlar asoslari ishlab chiqilgan.

Monografiya pedagogika oliy ta’lim yurtlari talabalari hamda maktab o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

ISBN 978-978-9910-670-36-7

© **R.Rasulova , 2024**

© **“Firdavs-Shoh nashriyoti”, 2024**

KIRISH

Jahon ta'lim tizimlari amaliyotida o'quvchilarning xalqaro baholash dasturlari talabi asosida tayanch ta'limiy kompetensiyalarini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj ortmoqda. Shaxsni rivojlantirishga asoslangan ijtimoiy munosabatlarning yetakchi omili sifatida zarur kompetensiyalarni shakllantirish ta'limning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu maqsadlarni ko'zlagan holda pedagog kadrlaming uzluksiz ta'lim olishini tashkil etish muammolari bir qator xalqaro tashkilotlarda, jumladan, Jahon ta'limini rejalashtirish instituti (Parij), YUNESKOning ta'lim bo'yicha instituti (Gamburg), Oliy ta'limning Yevropa Markazi (Buxarest), Yevropa Muallimlar ta'limi Assotsiatsiyasi (ATEE) va boshqa qator ilmiy muassasalarda tadqiq etilmoqda. Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlariga, e'tibor ortib borishi bilan bir qatorda bu borada maqsadli tadqiqotlar olib borish, mamlakatimiz ilmiy-texnikaviy dasturi, ustuvor tadqiqotlarga yo'nalishlarining bir qismi sifatida qaralishi lozim.

Dunyoda o'qitishda innovatsion texnologiyalarni maqsadga muvofiq qo'llash va takomillashtirish, o'quvchi shaxsida tayanch ta'limiy kompetensiyalar, xususan, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalalari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'limiy islohotlar fan va texnika, sport va intellektual salohiyat, kreativlik tafakkur va ijtimoiy-madaniy muloqot sohalarida dunyo miqyosida o'z tengdoshlari orasida raqobatlasha oladigan o'quvchi shaxsini tarbiyalashga qaratilgan. O'quvchilarning kommunikativ vaziyatlarda uchraydigan muammolarining namoyon bo'lishi, ularda adekvat muloqot ko'nikmalarining pastligi, muloqot uchun to'siqlarni yengish qobiliyati yetishmasligi o'quvchilar orasidagi shaxslararo munosabat orqali ta'lim samaradorligiga ham salbiy ta'sir etish ehtimoli yuqori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-apreldagi 213-son "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika

instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" deb nomlangan qarori hamda mazkur faoliyat bilan bog'liq boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda ushbu monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

O'zbekistonda o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish muammosi, xususan, o'quvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari, o'quvchilarda ijodiy faollik va kreativlikni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari N.N.Azizxo'jayeva, U.Sh.Begimqulov, R.X.Jurayev, O.M.Musurmanova, E.A.Seytxalilov, N.M.Egamberdiyeva, F.R.Yuzlikayev, o'rta ta'lim jarayonida ona tili fanini o'qitish, o'quvchilarning ijodiy tafakkur va nutqini o'stirish masalalari Y. Abdullayev, N. Alavuddinova, A.Bobomurodova, N.Dadajonova, T.Ziyodova, N.Yo'ldosheva, M.Mirmaxsudov, H.Ne'matov, M.Omilxonova, N.Sattorova, M.Saidov, R.Safarova, N.Shukrullayev, Sh.Yusupova, T.Yusupova, N.Qosimova, A.G'ulomov, G'.Hamroyev, K.Mavlonovalarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan.

Maktabda o'rganiladigan adabiy asarlarni tahlil qilishning asoslarini ishlab chiqishda S.Dolimov, H.Ubaydullayev, Q.Ahmedov singari mashhur olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. A.Zunnunov, N.Hotamov, J.Esonov, A.Ibrohimov kabi olimlar tomonidan badiiy asar tahlili metodikasi ishlab chiqildi. Shu kunga qadar adabiyot o'qitish metodikasida T.Boboyev, A.Zunnunov, Q.Yo'ldoshev, M.Mirqosimova, B.To'xliyev, S.Matchonov tomonidan yirik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Olimlarimizning ilmiy ishlarida o'quvchi tafakkuri mustaqilligi masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Q.Yo'ldoshev badiiy asar tahlilining nazariy-metodik masalalari ustida jiddiy izlanishlar olib borib, "Badiiy tahlil asoslari" kitobini yaratdi.

Monografiyaning maqsadi til va adabiyot ta'limida integrativ yondashuv asosida o'quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini badiiy asarlar tahlili orqali rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning predmeti. Umumta'lim maktablarida adabiyot darsliklaridagi badiiy asarlarni tahlil qilishda foydalaniladigan texnologiyalar, interaktiv metod va vositalari.

Monografiyada quyidagilarga alohida e'tibor qaratiladi:

o'quvchilarining matn yaratish kompetensiyalarini estetik asosda rivojlantirish texnologiyalarini integratsion takomillashtirishning pedagogik tamoyillari va omillarini aniqlashtirish;

badiiy asarlarni tahlil va talqin nazariyasi asosida o'quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini adabiyot darslari misolda takomillashtirish;

matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan fanlararo integratsiyalashgan o'quv mashg'ulotlari metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini yoritib berish.

Monografiyada quyidagilar qayd etilgan:

o'quvchilarining matn yaratish kompetensiyalarini estetik asosda rivojlantirish texnologiyalarini integratsion takomillashtirishning pedagogik tamoyillari va omillari aniqlashtirildi;

Badiiy asarlar tahlili va talqiniy xususiyatlari bilan assosatsiv uyg'unlashtirish asosida o'quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini adabiyot darslarida takomillashtirish texnologiyalari ishlab chiqildi;

matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan fanlararo integratsiyalashgan o'quv mashg'ulotlari metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari aksiologik va normativlik tamoyillarini maqsaddan natijaga yo'naltirish hamda metodologik, tashkiliy, didaktik va natijaviy komponentlarning izchilligini ta'minlash usuli orqali ishlab chiqilgan;

Monografiyaning amaliy va nazariy ahamiyati o'quvchilarning tasavvuri, fikrlashi, matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishning uzviy integratsiyasi aniqlanganligi, umumta'lim maktab tizimida "Ona tili va adabiyot" fanlari hamda kursini o'qitishning pedagogik texnologiyasi, shakl va metodlari takomillashtirilganligi, pedagogik amaliyotda o'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish uchun foydalanilgan innovatsion texnologiyalarning takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Kommunikativ kompetentlikni aniqlashning tizimli mezonlarini aniqlashtirishda, pedagogik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarida ona tili va adabiyot fani bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'quvchilarning matn yaratish ko'nikmalarini rivojlantirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning farazi.

Badiiy asarlar bilan ishlash o'quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirishda muhim vosita vazifasini o'taydi.

Badiiy asarlar tahlilining xususiyatlarini o'rganish o'quvchilarning adabiy savodxonligini hamda estetik didini ta'minlashga xizmat qiladi.

Badiiy asarlarni integratsion o'rganish o'quvchilarning kognitiv bilimlarini oshirib, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Badiiy asarlar tahlilida fanlararo aloqa va integratsion yondashuv asosida ona tili va adabiyot darslarini tashkil etishning samaradorligi oshiriladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ushbu monografiyada ona tili va adabiyot darslarida o'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish orqali badiiy estetik didini shakllantirish hamda asarlar tahlilidan foydalanish texnologiyasi masalasi o'rganildi. Unda adabiyot darslarida badiiy asarni tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etildi. O'quvchilarning estetik didini shakllantirish usullari haqida fikr yuritildi. Badiiy asarni tahlil etish texnologiyasi haqida ma'lumot berilib, mustaqil va kreativ fikrlash vositasi ekanligi yoritildi. Asarlarni tahlil etish usullari o'rganildi. Ishimizning yangiligi shu jihatlarda namoyon bo'ladi. Xususan, Kvest texnologiyasini adabiyot darslarida tashkil etish metodlari, adabiyot darslarida mumtoz asarlar bilan ishlash bo'yicha metod va ko'rsatmalar berilgan, shuningdek, tarixiy va detektiv asarlarni integratsion yondashuv asosida o'qitishda zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish masalalari o'z aksini topgan.

I BOB. O‘QUVCHILARNING NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. O‘quvchilarda nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning ilmiy-metodik asosi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 28-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida “Ta’lim-tarbiya — bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi, shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo‘q. Qanchalik murakkab bo‘lmasin, maktab ta’limida poydevorni bugundan mustahkam qo‘yishimiz kerak”, - deya ta’kidladi. O‘zbekiston ta’lim tizimida kommunikativ, axborot bilan ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, milliy va umummadaniy va boshqa tayanch kompetensiyalar yosh avlodni har tomonlama raqobatbardosh bo‘lib yetishishlari uchun maqsadli ravishda ishlab chiqilgan.

Bilim olishga intilish, ma’rifatli bo‘lish o‘zbek xalqi, millatining ruhiyatida ustuvor o‘rin tutuvchi omil sanaladi. Ma’rifatlilik - faqatgina bilim va malakaga ega bo‘lish emas, ayni vaqtda chuqur ma’naviy axloq hamdir. Bilimli, komil inson qiyofasida ana shunday xislatlarga ega shaxslar namoyon bo‘ladi. Bolalarning ma’naviy jihatdan barkamol bo‘lishini rivojlantirib borish yosh avlod tarbiyasida umumxalq ishdir. Ma’lumki, vatan beshikdan boshlangani kabi, ta’lim-tarbiya ham beshikdanoq, hattoki, bola tug‘ilmasidanoq berila boshlanishi kelajakdagi ijobiy natijalarga sabab bo‘ladi. Ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, muassasalarni zamonaviy bilimlarga ega pedagog kadrlar bilan to‘ldirish hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish, uzluksiz ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha malakali pedagog kadrlar bugungi kunda uzluksiz innovatsion izlanishda bo‘lishi, fikrlashi, shuningdek, innovatik g‘oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko‘rsatishi zarur. Zero, ta’kidlab o‘tganimizdek, uzluksiz ta’lim bosqichlarining

nechog'lik samarali ishlashi integrativ ta'lim tamoyillariga ham bog'liq: bu davrda o'quvchilarning dunyoqarashi, tasavvurlari shakllanishi zarur kompetensiyalarni ham shakllantiruvchi omillardandir. Bunga to'g'ri mazmun va yo'nalish berish pedagogika fani, ta'lim amaliyotining dolzarb muammosidir. Ilmiy tadqiqotlar va yo'nalishlar tahlili o'quvchilar nutqining turli tomonlarini rivojlantirish xususiyatlari hamda ularning ilmiy adabiyotda o'rganilganlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, nutqning turli xillarini o'rgatish metodikasi yaratiladi.

Yoshlikda egallagan bilimlarini kelajakda samarasini ko'ra oladi. Nazariy bilimlarini amaliyotda ham qo'llay olishadi. Hozirgi vaqtda yangi, kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasi rivojlanmoqdaki, ushbu paradigma mustaqil, ijodiy, fikrlaydigan, jamoada ishlashga qodir shaxslarni tayyorlashni nazarda tutuvchi ta'limga e'tiborning o'zgarishidir, ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga, o'quv dasturlarini qayta qurishga yordam beradi. Ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni ishlab chiqish inson hayotida sifat jihatidan yangi amaliy maqsadlarga erishishni ta'minlaydigan texnologiyalarni ishlab chiqmasdan amalga oshirilmaydi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, kompetentlar ichki, nisbatan yangi (bilimlar, g'oyalar, dasturlar, algoritmlar va boshqalar) holda shakllangan. Kompetensiyalarning mazmunini birgalikda belgilovchi ushbu komponentlar insonning turli xil muammolarni hal qilish uchun mavjud tajribasini qo'llashga tayyorligida namoyon bo'ladi. Pedagogika ilmida maktab o'quvchilarining kompetensiyalarini samarali rivojlantirishning umumiy nazariy muammolarini hal qilish uchun muhim imkoniyatlarni (I.L.Bim, N.I.Gez, V.I.Gorovaya, M.N.Vyatyutnev, M.N.Lazutina, V.S.Lerner, N.A.Nikandrova, S.Trim, S.Savignon, V.V.Safonova, V.N.Solovova, I.Taroun, I.A.Tsaturova) to'pladi; tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish uchun (B.F.Lomov, P.S.Gurevich); kompetensiya portfoliyosini tuzish (L.Barlov, P.Belanoff, N.D.Galskova, M.Gottlieb, M.Dixon, K.Coombe, M.Santos, J.C.Waters, L.Hamr-Lians, A.Hirvela); mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini shakllantirish

(E.Ya.Yegorchenkova, A.G.Zavyalova, A.V.Kravchenko, A.V.Kanayeva, T.Yu.Tambovkina); kasbiy kompetensiyani modellashtirish asoslarini ishlab chiqish (V.N.Vvedenskiy, V.N.Drujinin); ta'lim uchun (Yu.V.Gromyko, B.D.Elkonin) tadqiqotlar olib bordilar.

Ta'lim - tarbiya jarayonini fan va amaliyotning yangi tendensiyalariga muvofiq takomillashtirish zarurati mustaqil fikrli, matn yaratish kompetensiyasiga ega bo'lgan, nutqi rivojlangan shaxsni kamol toptirishni taqozo etadi.

Hozirgi paytda yoshlarning nutqiy madaniyatini rivojlantirishga yanada yuqori talablar qo'yilmoqda. Bu talablarga javob berish nutq madaniyatini rivojlantirishga oid yangi izlanishlarni taqozo etadi, bunday ishlar esa keng ko'lamli bo'lishi maqsadga muvofiq. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib bugungi darsliklarda yangi o'zgarishlar paydo bo'ldiki, ayniqsa, ona tili va adabiyot darsliklari to'laligicha tafakkurni hamda nutqni rivojlantirishga qaratilgan holda yaratilmoqda. Pedagogika ilmining hozirgi bosqichida o'quvchilar nutqini rivojlantirish hamda mustaqil fikrini shakllantirishga nisbatan qo'yiladigan talablar bilan ushbu yangiliklar o'rtasida mantiqiy bog'liqlik o'z aksini topmoqda. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, maktab o'quvchilari nutqini rivojlantirishning omili hisoblangan matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishning samarali yo'llari hamda vositalarini ishlab chiqishda tayanch bo'ladigan nazariy, metodik usullarni yoritishga qaror qildik.

Yoshlar nutqini rivojlantirish masalalarini tadqiq etish O'zbekiston Respublikasida o'tgan asrning 50-yillarida boshlangan. Ayniqsa, nutqni o'stirishda badiiy adabiyotga murojaat qilish XX asrning 70-yillarida E.M.Razbayeva tomonidan bolalarda o'qilgan asarlar asosida kattalar mehnatiga hurmatni tarbiyalash bo'yicha tadqiqot o'tkazildi. S.O.G'oziyeva tomonidan (E.M.Razbayevaning ilmiy rahbarligi ostida) bolalarda o'zbek xalq og'zaki ijodidan (xalq ertaklari, o'yinlar) foydalanish asosida atrofdagilarga adolatli munosabatda bo'lishni shakllantirish masalalari tadqiq qilindi. 1979-yildan boshlab to bugungi kungacha bolalarga ona tili va o'zga tilni (rus, o'zbek) o'qitish

muammosi O'zbekiston olimlari, metodistlari, psixologlarining (F.R.Qodirova, R.M.Qodirova, G.X.Jumasheva, D.R.Babayeva, D.Abdurahimova, L.R.Mirjalilova, N.Sh.Nurmuhammedova va boshq.) tadqiqot obyekti hisoblanadi. Bugungi yangi avlod darsliklarida berilgan matnlar bilan ishlash va matn yaratish jarayonlari shunday tadqiqotlarning davomi deb ayta olishimizga asos bo'ladi. O'quvchining kreativligi va matn yaratishga bo'lgan layoqatini rivojlantirish alohida ajratilgan holda emas, balki matnlar bilan ishlash, badiiy adabiyot bilan muloqot, kitobxonlik salohiyati, badiiy savodxonlik hamda ijtimoiy muhitning pedagogik ta'siri bilan o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqiladigan jarayondir. Ushbu yondashuv o'rinlidir, zero, fandagi zamonaviy tadqiqotlar ijodkorlikni rivojlantirish va kitobxonlik - o'zaro bog'liq jarayonlardir, degan fikrga asoslanadi. Kitobxonlik madaniyati inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo'l ochadi. Umuman, shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.) ning shakllanishi ham og'zaki va yozma nutqning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Insonning psixik jihatdan mukammal shakllanishida badiiy asarlarning alohida o'rin tutishi uning barcha bosqichlarda rivojlanishiga yordam berishi aniqlangan. Badiiy asarlar bilan muloqotni qanchalik ko'paytirsak, mantiqli va madaniyatli nutqqa erishish samarali kechadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar shiddat bilan o'sishi ham, muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqni rivojlantiruvchi yoki unga to'sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik ta'sir ko'rsatish kalitidir. V.I.Loginova, Y.S.Lyaxovskaya, V.V.Gerbova, Ye.M.Strunina va boshqalarning tadqiqotlarida bolalarning so'z boyligini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. O'quvchilarning nutq boyligini oshirishni ikki jihatga ajratish mumkin: mumtoz asarlar lug'atini (so'z boyligini) anglash bilan birgalikda rivojlantirish; ilmiy terminlar sifatida o'zlashtirish. Bu jihatlar o'z - o'zidan integrativ yondashuvni taqozo etadi. Ya'ni, badiiy savodxonlik va ilmiy savodxonlik ustuvor tamoyillardan biridir. Ular predmetli aloqalar va munosabatlar mantig'ida ham, til mantig'i borasida ham matn ustida ishlash zarurligini isbotlab berishgan. Shundan kelib chiqqan holda, hozirgi paytda matn

yaratish kompetensiyasini rivojlantirishdagi ayrim bosqichlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratish zarur. O'quvchilarning matn yaratish kompetensiyalari ravon nutq omili bo'lib, uning asosini fikr bildirish manbasi: predmetlarni tavsiflash, adabiy matnlarni hikoya qilib berish, suratga qarab hikoya qilish, shaxsiy va jamoa tajribasidan misol keltirish, ijodiy hikoya qilishlar tashkil etadi. Bolalar nutqining grammatik tuzilishi sohasidagi tadqiqotlar nutqning morfologik va sintaktik tomonlarini shakllantirish (F.A.Soxin, M.I.Popova, A.V.Zaxarova, V.I.Yadeshko, A.G.Tambovseva va boshq.), ona tilining so'z hosil qilish tizimi xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, nutqning grammatik tuzilishini takomillashtirishga oid pedagogik ishda nafaqat odatdagi grammatik xatoliklarni o'rganish va tuzatishga, balki birinchi navbatda grammatik umumlashmalarni shakllantirishga e'tiborni qaratish imkonini berdi. Bu umumlashmalar o'z navbatida matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda ham zarur yondashuvlarga imkoniyat yaratadi.

Nazariy va amaliy ishlar shundan dalolat bermoqdaki, matn yaratish va matn bilan ishlash faoliyati motivatsiyasini boyitish bolalar nutqini rivojlantirish borasidagi ishlarning samaradorligini oshiradi. L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, A.A.Leontev, I.A.Zimnyayalar tomonidan nutq yaxlit faoliyat va nonutqiy harakatga qo'shilgan nutqiy harakat kabi til orqali bog'langan tarixan shakllangan muloqot shakli sifatida ko'rib chiqiladi. Axborotni nutq yordamida uzatish, ya'ni nutqiy semantika muammosi; bunda matnlardan foydalanish, ya'ni matnlar bilan ishlash; matnlarda ifodalangan hodisalarni ongli harakatga muvofiq holda tavsiflash kabi hodisalar o'z izohini topishi lozim. Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: "Nutqni rivojlantirish jarayoni bola lug'atining va so'zlarning assotsiatsiya asosida bog'lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o'zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatidan o'zgarish jarayonidir, zero, u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog'langan holda so'zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir». Bu jarayonni faollashtirishda bizga badiiy matnlar bilan ishlash katta samara beradi.

F.A.Soxin, O.S.Ushakova va ularning shogirdlari tomonidan ravon nutqni shakllantirishning turli jihatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ravon nutqni baholashning shunchaki mantiqlilik, izchillikdan ko'ra yanada aniqroq mezonlarini qidirishni galdagi vazifalardan biri qilib qo'ydi. Ravonlikning asosiy ko'rsatkichi sifatida so'zlar, gaplar va fikrlarning qismlari o'rtasida zarur aloqa vositalaridan foydalangan holda, matnni tarkibiy jihatdan to'g'ri tuzish qobiliyatini shakllantirish qabul qilingan. A.A.Leontev L.S.Vigotskiy va A.N.Leontevning qoidalariga tayangan holda, asosiy faoliyat turi sifatida qaraydigan nutqiy faoliyat shakllanish konsepsiyasini ishlab chiqdi. Uning qayd etishicha, nutqni rivojlantirish - bu eng avvalo, muloqot usullarini rivojlantirish bo'lib, ularni o'zlashtirish matn yaratish qobiliyatini shakllantirishni talab qiladi. Matn yaratish qobiliyatlarini shakllantirish, bir tomondan, nerv-psixologik mexanizmlarining yetilganligi bilan, o'zga tomondan esa, ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'liq. M.I.Lisina konsepsiyasi ta'sirida amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, muloqot – nutq madaniyati rivojlanishining muhim omildir. Nutq dastlab muloqot vositasi sifatida, keyinchalik esa - fikrlash, o'zini - o'z boshqarish vositasi sifatida rivojlanadi.

Bizning nuqtayi nazarimizda esa muloqotni asar qahramonlari bilan yoki voqea-hodisalarga bildirilgan munosabatlar bilan amalga oshirish ham samarali natija beradi, chunki bunda o'quvchining tafakkurida ham rivojlanish, mustaqil qaror chiqarish, salbiy va ijobiy oqibatlarning sabablarini tahlil qila olish qobiliyatlari shakllanadi.

Ye.I. Tixeyeva namunali insonni tarbiyalashga yordam berish va ilk yoshdan boshlab to keksalikka qadar insonni har tomonlama rivojlantirishni ta'minlaydigan pedagogik nazariyani yaratish ustida ishlagan. K.D.Ushinskiy ta'limoti asosida ishlab chiqilgan oilada, maktabgacha ta'lim muassasasida, maktabda ona tilini o'qitish jarayonida nutqni rivojlantirish metodikasi Ye.I. Tixeyevaning pedagogik nazariyasida markaziy o'rin egallaydi. 1913-yilda uning «Ona tili va uni rivojlantirish yo'llari» nomli asari bosilib chiqdi. Tixeyeva nutqni rivojlantirishning ahamiyati, yo'llari va vositalariga oid muhim masalalarni til madaniyatini umumiy rivojlantirish, bolalarda o'z

xalqiga, vataniga muhabbatni tarbiyalash bilan bog'liqlikda o'rgangan.

Bizning nuqtayi nazarimizcha nutq madaniyatini umumiy rivojlantirish hamda tarbiya vositasi sifatida o'quvchilarni badiiy asarlar mutolaasiga uzkuksiz ravishda jalb etib boorish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yevgeniya Aleksandrovna Flerina (1889-1952) maktabgacha tarbiya sohasidagi birinchi pedagogika fanlari doktori bo'lib, u nutqni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishga katta hissa qo'shgan. Ye.A. Flerina umumiy estetik tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida badiiy o'qish muammolari bilan shug'ullangan. Bolalar bilan ishlash va o'qituvchilik borasidagi o'z tajribalarini Ye.A. Flerina «Maktabgacha tarbiya muassasalarida jonli so'z» nomli maktabgacha tarbiya yo'nalishidagi bilim yurtlari va institutlar uchun birinchi o'quv qo'llanmasida aks ettirgan. Ushbu qo'llanmaning asosiy bo'limlari og'zaki nutq, suhbat, badiiy o'qish va bolalarga hikoya qilib berish hamda bolalarning o'zlari hikoya qilib berishlariga bag'ishlangan. Ayniqsa, Ye.A. Flerinaning badiiy asarga san'at asari sifatida katta e'tibor bergani, badiiy matnni o'quvchiga yetkazishning turli usullarini, jumladan o'qilgan asar bo'yicha suhbat o'tkazish usulini ishlab chiqqanligi juda qimmatlidir. U o'zining tarbiya tizimida san'atga va undan har xil faoliyat turlarida, shu jumladan badiiy-nutqiy faoliyatda bola imkoniyatlarini rivojlantirish uchun foydalanishga asosiy o'rinni bergan.

60-70-yillarda bolalar nutqini rivojlantirish masalalarini o'rganish ishlari faollashdi.

Bizning tadqiqotimizda badiiy asarni o'qib tahlil va talqin qilib borish va sharhlab berishlari nazarda tutiladi.

Hozirgi paytda o'quvchilarning yuqori darajada aqliy va nutqiy rivojlanishini, ularning til qobiliyatlari shakllanishini ta'minlash imkonini beruvchi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning maqbul shaklini qidirish ishlari olib borilmoqda. Bunday o'quv mashg'ulotlaridan eng samaralisi o'quvchilarda matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishdir. Matn yaratish kompetensiyasining asosiy bosqichlaridan biri matnlar tahlili, matnlarni sharhlab o'qitish va

o‘zlari tomondan yaratiladigan matnlarda fikrlarini asoslash maqsadida badiiy matnlardan foydalanish kabi jarayonlar aqlni va nutqni rivojlantirish omilidir. Nazariy va amaliy tadqiqotlarda bunday o‘quvning mazmuni va shakllari haqidagi masalalar hal etilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, M.Sh. Rasulova, N.U. Bikboyeva, R.M. Qodirova, F.R. Qodirova, G.X. Jumasheva, O. G‘oziyeva kabi bir guruh olimlar tomonidan bazaviy umumta’lim dasturidan samarali foydalanish yuzasidan metodik tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.

Ana shu nuqtayi nazardan nutq o‘stirishda quyidagi fanlar o‘rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

1. Umumiy pedagogika - ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan.
2. Nutq madaniyati - bu to‘g‘ri so‘zlay olish, ya’ni nutqiy muloqot shartlari va fikr bildirishdan ko‘zlangan maqsadni hisobga olgan holda hamda barcha til vositalaridan (til vositalaridan, shu jumladan intonatsiya, leksik zaxira, grammatik shakllardan) foydalangan holda bayon qilinayotgan mazmunga mos holda gapirishdan iboratdir.
3. Bolalar psixologiyasi- shaxsda ma’naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.
4. Maktabgacha pedagogika - maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o‘rganadi.
5. Etika - shaxs ma’naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma’naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o‘rin tutuvchi nazariy g‘oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o‘rin tutadi.
6. Estetika - shaxs tomonidan go‘zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo‘nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.
7. Fiziologiya - o‘quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang‘ich asoslarni beradi.

8. Gigiyena - bolalarning salomatligini muhofazalash, ulami jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishda nazariy va amaliy g'oyalari bilan yordam beradi.

9. Falsafa - shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalami tahlil etishga imkon beradi.

10. Adabiyot va adabiyotshunoslik asoslari - ta'lim-tarbiya jarayonlarini rivojlantirish, xalq pedagogikasi g'oyalarini kelgusi avlodga uzatish uchun yo'naltiriladi.

11. Madaniyatshunoslik - bolalarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

12. Tibbiy fanlar - shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash, uning organizmida namoyon bo'layotgan (ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishda ko'maklashadi.

13. Ijtimoiy pedagogika - ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi. Shaxsning shakllanishi kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan ijtimoiy-tarkibiy tajribani o'zlashtirish, ta'lim-tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Bu har xil faoliyatlarda yuzaga keladi. Bolalar egallashlari lozim bo'lgan mazmunni tanlash, bilim egallashiga rahbarlik qilish kattalar tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Tarbiya va ta'limning mazmuni, vositalari, metodlari, bolaning rivojlanish jarayoni ularning yoshi bilan izohlanadi. Jumladan, turli yoshdagi bolalar bilan ish olib borilganda ularning mustaqil hayotga butunlay moslashmaganligi hisobga olinadi.

14. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi.

Komenskiy aql va nutqni rivojlantirish uchun bir xil harakat qilish zarur deb hisoblagan. U aql va nutqqa organik birikma sifatida qaragan. Bu tasodifiy emas, zero, bola nutq tufayli o'z fikrlarini ifodalaydi va

atrofdagi odamlar bilan muloqotga kirishadi, nutqni egallash orqali u atrofni o‘rab turgan olamni anglaydi. Bolada nutq va fikrlash rivojlanadi. U sensor rivojlantirish va tarbiyalashga alohida e‘tibor bergan, chunki usiz aql va nutqni muvaffaqiyatli rivojlantirib bo‘lmaydi. Buyuk pedagogning mazkur qoidaga rioya qilishni «didaktikaning oltin qoidasi» deb atagani ham bejiz emas. Nutqqa taalluqli bo‘lgan boshqa bir g‘oyani Komenskiy ona tilini o‘qitish, ona tilida o‘rgatishni talab qilish shaklida ifodalagan.

Shu jihatdan nutqni biz quyidagicha turlarga bo‘lib izohlashimiz zarurdir.

1. Og‘zaki nutq odatdagi tovushli so‘zlashuv nutqi bo‘lib, bu nutq ko‘proq ohang va turli imo-ishoralar yordamida namoyon bo‘ladi.

2.Yozma nutq harf va so‘zlarning ma‘lum qonuniyat asosida o‘zaro birikuvi, tinish belgilari, har xil ajratishlari: abzaslar, paragraflar orqali aks etadi.

3. Ichki nutq odamning o‘z ichida so‘zlanadigan nutqi bo‘lib, tashqi ta’sirga ega emas.

4. Tashqi nutq boshqalarga qaratilgan va nazorat qilish talab etiladigan faol nutqdir. Inson nutq yordamida o‘zining fikrlari, his-tuyg‘ulari, istaklarini bayon etadi va boshqalarning fikrlari, his-tuyg‘ulari, istaklarini anglab yetadi.

O‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutq malakasini hosil qilishda faqat reja tuzish, mazmunni qisqacha yozib olish, bayon, insho yozish bilan shug‘ullanmay, ularning asarni o‘qishi va hayotiy tajribalariga ham e‘tibor beriladi. O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutq madaniyatini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri maktabda barcha fan o‘qituvchilarining o‘quvchilar nutqini muntazam kuzatib borishlaridan iboratdir. Tabiiyki, bu ish boshlang‘ich sinfdan boshlanadi va bunda o‘zbek tili va adabiyot o‘qituvchilari muhim rol o‘ynaydi. Turli muhit bolalarining ruhiyatiga, nutqiga kuchli ta’sir etadi. Ayrim oilada ota – onalar, bolalar bog‘chalarida tarbiyachilar, boshlang‘ich maktablarda o‘qituvchilar bolalar nutqiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadilar –bolalar madaniy, adabiy nutq malakasini egallaydilar. Ayrim oila, bog‘cha va maktablarda bu masalaga e‘tiborsizlik tufayli bola madaniy nutqni egallashdan

mahrum bo‘ladi. Bu hol bolaning kamolida, madaniy yetuk kishi bo‘lib o‘lishida salbiy ta‘sir etadi, albatta. Shuning uchun boladagi nutq ko‘nikmalarini kamol topdirishga uning yoshligidan boshlab katta e‘tibor berish kerak.

O‘quvchilarning nutqini o‘stirish, bu uzoq davom etadigan jarayondir. Nutq o‘stirish bilan bog‘liq bo‘lgan mashg‘ulotlarni izchil, doimiy ravishda o‘tkazib borilmasa, ta‘limning yaxshi, sifatli bo‘lishiga, o‘quvchilarning madaniy nutqni egallashlariga erishib bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, darsda nutq o‘stirishni takomillashtirib borish, boshlang‘ich sinflar ishini o‘rta sinflar ishi bilan, o‘rta sinflar ishini yuqori sinflarda amalga oshiriladigan ishlar bilan bog‘lagan holda davom ettirish o‘qituvchi zimmasidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Nutq madaniyatini o‘stirish faqat uzoq muddatli jarayon bo‘lib qolmay, ijodiy jarayon hamdir. Bu jarayon esa, insho va og‘zaki hikoyalashga mustaqil ijodiy yondashishni talab etadi. Binobarin, o‘quvchilarda so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga qiziqish uyg‘otish yozma va og‘zaki nutq so‘zlash, savollarga javob qaytarish, bayon va insho yozish, bu sohada olgan bilimlarini, orttirgan malakalarini mustahkamlab, rivojlantirib borish, o‘z ustida mustaqil ishlash qobiliyatini o‘stirib borishni taqazo qiladi. So‘zlashuv tili nutq o‘stirishning dastlabki boshqichi hisoblanib, u asta-sekin takomillashib boradi, o‘qilgan matnlarni og‘zaki hikoya qilishda namoyon bo‘ladi. Og‘zaki nutqni o‘rgatish negizida quyidagi tamoyillar yotadi:

- a) axborotning lingvistik materialini ongli idrok etish va ijodiy takrorlashga tayanish;
- b) o‘quv predmeti sifatida hayot va adabiyot bilan bog‘liqligi;
- v) tinglash, gapirish, o‘qish va yozish munosabatlari;
- d) mantiqiy, semantik va talaffuz mazmunining uzluksizligi og‘zaki nutqning organlari;
- e) o‘quvchilarning og‘zaki nutqini tabiiy nutq shakliga yaqinlashtirish va ularda ta‘lim uchun zarur bo‘lgan haqiqiy nutq ko‘nikmalarini shakllantirish uchun o‘qitishning vaziyatli usulini keng qo‘llash;
- e) yangilik nutq materiali, nutqning mazmuni va shakliga qiziqish uyg‘otish;

- g) grammatika bo'yicha nutq bilimlarini rivojlantirish;
- z) "audio muhiti"ga nafaqat o'qituvchi so'zlarini, balki ovoz yozishning asosiy turlarini ham kiritish.

Bu tamoyillar o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida o'qituvchining yetakchi rolini nazarda tutadi, og'zaki nutqni o'rgatish mazmunini, uning materialini, o'qitish usullarini belgilaydi, qobiliyatlarini hisobga oladi. O'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish deganda ularni tinglash va gapirish sharoitida gapirishga o'rgatish tushuniladi. Nutqni idrok etishga uning aytilish tezligi, vizual yordamning mavjudligi yoki yo'qligi ham ta'sir qiladi. Agar o'quvchi so'zlovchining artikulyatsiyasini kuzatsa, nutq a'zolari o'ziga o'xshash tarzda mos keladigan ko'rinadi, uning ichki nutqida eshitiladigan tovushlarni, so'zlarni takrorlash osonroq bo'ladi. Bu qiyinchiliklar tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus mashqlar tizimi orqali ham, tinglashdan tashqari, boshqalarni amalga oshirishda ham bartaraf etiladi.

Nutq faoliyati turlari: o'qiyotganda: a) so'z o'zining grafik va tovushli tasvirlarida o'zlashtirilsa va bir vaqtda frazemaga tushsa; b) orfoepiyani yaxshi o'zlashtirish amalga oshirilsa; v) agar o'qish tezligini oshirish, uni ta'limiy tinglash tezligiga yaqinlashtirish bo'yicha doimiy ish bo'lsa va ularning ikkalasi ham jonli sur'atga tobora ko'proq mos kela boshlasa. Ma'lumki, tinglash qobiliyati nutq qobiliyatini yaratishning asosidir. Tinglash (idrok) nafaqat nutqni tayyorlaydi, balki u bilan bir vaqtda amalga oshiriladi. Tinglash boshqa birovning nutqini tushunish demakdir. Ikkinchisi, psixologiya aytganidek, boshqa birovning nutqining ichki talaffuzisiz mumkin emas, ya'ni. gapirmasdan. Shuning uchun tinglashda o'quvchilarni boshqa birovning nutqini pichirlab takrorlash o'quvchilar uchun nutq faoliyatining qiyin turi bo'lishiga qaramay, qabul qilingan ma'lumotni shivirlashda mashq qilish foydalidir.

Tilning tovush xususiyatlari. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini hisobga olgan holda, o'qituvchi ularni tinglash orqali ma'lumotni idrok etishga tayyorlashning turli shakllarini tashkillashtiradi: dastlabki, eshitishdan oldin, u yoki bu ma'lumotlarning rejasini yozadi (reja o'qituvchi tomonidan beriladi)): tinglash uchun

rejalashtirilgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim doirasi haqida suhbat; tinglash paytida reja va ish materiallarini yozib olish (ekskursiyalarda, odamlar bilan uchrashganda); audio ma'lumotdan keyin javob berilishi kerak bo'lgan savollarning yozuvi va boshqalar. O'quvchilar tomonidan audio orqali qabul qilingan nutq mazmunini o'zlashtirish darajasini mohirlik bilan tekshirish bir xil darajada muhimdir. Buning uchun o'quvchilarda eshitganlari haqida bajonidil gapirish istagini uyg'otish kerak. Buni jonli suhbatda, ba'zan dialogik nutq (taassurot almashish) shaklida qilish juda foydali. Ko'pincha og'zaki muhokama o'quvchilarni insho yozishga tayyorlashga aylanadi. Tabiiyki, tinglash orqali qabul qilingan materialni tushunish darajasini tekshirish orqali o'qituvchining o'zi o'quvchilar tomonidan tushunarsiz yoki noto'g'ri tushunilgan narsalarni tushuntiradi. Birovning nutqini eshitish orqali idrok etish bo'yicha mashqlar ma'lum bir mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida amalga oshirilishi mumkin: kirish darslarida va sinfda yozuvchining faoliyati, hayoti bilan dastlabki tanishish paytida, matnni tahlil qilish paytida takrorlash. Nutqni tinglash orqali idrok etish qobiliyati, nutq sharoitida nutqni o'zlashtirish qobiliyatiga asoslanadi.

Nutq nutqning ikki shaklini o'z ichiga oladi - monolog va dialog. O'quvchilar og'zaki nutqining har ikkala shaklida o'qitish metodikasini ochib berish kerak. O'qituvchining ish uslublari qanchalik zo'r bo'lmasin, o'quvchilarning og'zaki nutqi, ularning barchasi (usullari) pirovardida maktab o'quvchilarining mazmunli, mantiqiy izchil, leksik jihatdan boy va intonatsion ekspressiv nutqini rivojlantirishi kerak. O'quvchilarning og'zaki nutqini baholash mezonlari esa nutqning mazmuni va izchilligini, o'quvchilarning fonemik eshitishini, lug'at boyligini, og'zaki nutqining stilistik va intonatsion madaniyatini tekshirishni o'z ichiga olishi kerak. O'quvchilar nutqining rivojlanishi o'qituvchilarning o'quvchilarni nutq faoliyatiga qanchalik faol jalb qilishiga bog'liq. Og'zaki nutq tezkor javob, to'g'ri so'zni topish qobiliyati - uni aniqlashtirish, sinonimlarni tanlash kabilarni talab qiladi. Agar o'quvchining faol so'z boyligi yetarli bo'lmasa, o'z fikrini ifodalash uchun qiynaladi. Uni yuqori sinflarda atamalar, kitoblar

mutolaasi hisobiga ham kengaytirish kerak. Bu nafaqat soʻzlarni topish, balki ularni bogʻlash ham kerak. Izchil nutqni rivojlantirishning asosiy shakli qayta hikoya qilishdir. Nutq har doim tinglovchiga qaratilgan. Maʼruzachi tinglovchining reaksiyasini oldindan bilishi va tezda javob berishi kerak. Ogʻzaki taqdimotning oʻziga xos syujeti, fikrning rivojlanishi, avj nuqtasi va xulosasi boʻlishi kerak.

Nutq oʻstirish nazariyasi va metodikasi fanining vazifalari

- turli yosh bosqichlaridagi nutq rivojini koʻra olish va tushunish qobiliyatini shakllantirish;
- bola nutqiga taʼsir koʻrsatishning eng samarali yoʻlini toʻgʻri tanlash va bolaning yoshini hamda uning oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda oʻzaro birgalikda harakat qilish hamda olingan natijani tahlil qilish;
- bolalar nutqining turli jihatlarini rivojlantirish, aniq uslublari va usullari haqidagi bilimlar oʻzlashtirilishini hamda ularning didaktik nutq muloqotlari paytida qoʻllay olinishini taʼminlash;
- badiiy adabiyotlarni tanqidiy tahlil qilgan holda oʻquvchi nutqiga taʼsir koʻrsatishning oʻziga xos usullari va uslublarini yaratishga intilishni ragʻbatlantirish;

-matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirish orqali oʻquvchilarning fikrlash hamda nutqiy qobiliyatlariga taʼsir etishning samarali yoʻllarini tashkillashtirish.

Ushbu vazifalar shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim texnologiyalari nuqtayi nazaridan asoslab berilgan boʻlib, ularning asosiy tamoyillari, taʼlim vositalari, bosqichlari hamda pedagog va oʻquvchining oʻzaro harakati turlarida aks etmogʻi lozim.

Umumtaʼlim maktablarida ona tili oʻqitish metodikasi oʻquvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga oʻrgatish, ularning lugʻat boyligini oshirish, oʻzgalar nutqini tinglay va anglay olish, fikrni aniq, ixcham ifodalash, soʻz tanlash va uni oʻrinli qoʻllash, ogʻzaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, fikr ifodalashda shakl va mazmun uygʻunligiga, mantiqiy mukammallikka erishish, « oʻquvchi — taʼlim — oʻqituvchi, oʻquvchi - oʻquvchi» munosabatlarini toʻgʻri tashkil etish — taʼlim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini nazariy va

amaliy jihatdan asoslab berilgan. Ushbu muammolarni tadqiq etish quyidagi nazariy qoidalardan kelib chiquvchi umumiy xususiyatlarga ega:

- ta'limda nutqni rivojlantirishning yosh xususiyatlari va individual xususiyatlari bilan belgilanadigan ijodiy jarayondir; nutqni rivojlantirish asosida kommunikativ yondashuv bo'lishi kerak, xususan: ona tili fani nutqiy kompetensiya bilan uyg'unlashishi, o'quv sharoiti muloqot sharoitlariga yaqinlashtirilishi lozim;

- o'qitishda o'zaro hamkorlik xususiyati muloqot shakli bilan belgilanishi lozim;

- nutqiy faoliyat tuzilmasi doirasida hamda uning barcha komponentlarini: undov-motivatsiya, empirik-tadqiqot, ijod va ijro komponentlarini hisobga olgan holda ish olib borish zarur;

- matn yaratish nutqni o'stirish bo'yicha mustaqil faoliyatga asoslanishi va o'quvchi faolligining boshqa turlari bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Kompetentlikning kaliti sifatida aloqa va adekvat muloqotning asosiy roli chambarchas bog'liq. Ta'limda ta'sirli verbal va noverbal aloqaga asoslangan til mahorati o'rganish va rivojlanishga zamin bo'lgan. Nutqiy kompetensiya va boshqa muhim qobiliyatlarning o'sishi mustaqil hayotga tayyorgarlik, kreativlik va kognitivlikni o'z ichiga olgan. Bundan tashqari, aloqa va nutq rivojining oqsashi butun umrga ta'sirining dalilidir. Nutqiy mahorat muvaffaqiyati ta'limning eng yaxshi garovi; nutqning rivojlanishi o'quvchi tafakkurini shakllantirishda ham ahamiyatlidir. Nutqi bilan bog'liq muammolar o'quv muvaffaqiyatsizligiga ham ta'siri katta: nutqi va tilida muammosi bor o'quvchilar mustaqil hayotda ham, maktab hayotida ham eng katta qiyinchiliklarni boshidan kechiradi.

Har qanday o'quv materialini o'zlashtirish o'quvchilarning ongli va faol harakati jarayonida sodir bo'ladi, shuning uchun o'qituvchining vazifasi ta'limning psixologik qonuniyatlarini hisobga olgan holda bunga mos sharoitlarni yaratish, matn bilan tanishishda o'quvchilar o'rtasida motivatsiyani shakllantirishdir. Matn bilan ishlash faoliyati - bu bilim va ko'nikmalarni egallash hamda g'oyalarni yetkaza olish,

bilim va tasavvurlar, qimmatli farazlar, namunali va me'yordagi xatti-harakatlarga yo'naltirilgan faoliyatdir. N. S. Bolotnova konsepsiyasiga ko'ra, matn yaratish kompetensiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) til resurslarini bilish, ularni matn bilan ishlash jarayonida tanlash va tartibga solish qobiliyati;

2) o'z nuqtayi nazari bo'yicha dunyoqarashiga ega bo'lish, hayotiy materialni tanlashda va uni so'z bilan aks ettirishda ijodiy individual qobiliyatini namoyish etish, muallifning individual uslubini anglash;

3) muloqot jarayoni, vaziyatlari, aloqa shartlari to'g'risida bilim va matn yaratish, shuningdek matnni idrok etishda buni hisobga olish qobiliyati;

4) voqelikni bilish, matnni shakllantirish jarayonida uni so'zlarda aks ettirish va talqin jarayoni asosida tushunish;

5) matn bilan ishlash jarayonida adresat haqidagi bilim va adresat omilini hisobga olish qobiliyati. Matn yaratish kompetensiyasi ta'lim jarayonini ta'minlovchi omillardan biri bo'lib qolmoqda va o'quvchining noyob fikrlari shakllanishiga, umumiy madaniy, o'quv-kognitiv, axborot, kommunikativ va ijtimoiy yo'nalishini shakllantirishga yordam beradi.

Aynan mana shu jihatlar standart dasturlar, fan standarti va konsepsiyalar asosini tashkil etsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umuman, umumta'lim maktablarida o'quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini qaror toptirish borasidagi ilmiy-metodik izlanishlar zamonaviy ta'limda o'quvchilarning matn bilan ishlash faolligini shakllantirishga yangi yondashuvlarni tatbiq etish lozimligini ko'rsatmoqda. Fikrimizcha, matn yaratishga doir o'quv materiallarining shakllanishi, tadqiqotlar tahlili bu boradagi muammolarni atroflicha o'rganish, ularning yechimini topish imkoniyatlarini kengaytiradi.

1.2. O'quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirishda ona tili saboqlarining ahamiyati.

Matn yaratish kompetensiyasi integrativ hodisa bo'lib, uning tarkibiy qismlariga matn bilan ishlash tajribasidan tashqari matn nazariyasi haqidagi bilimlar, matn ko'nikmalari va matn bilan ishlash

jarayoni va natijasiga hissiy va qiymatga asoslangan munosabat kiradi. Zamonaviy - umumta'lim maktab o'quvchilarining matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishda zarur bilimlarni o'zlashtirish jarayonini optimallashtirish, gumanitar fanlar kurslarida dasturiy materialni umumiy va o'quv matn materiallarini o'zlashtirish, xususan, amaliy tadqiqotlar katta ahamiyatga ega. Matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik texnologiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun umumta'lim maktabi sharoitida uning o'ziga xosligiga alohida e'tibor berish kerak. Matn ko'nikmalarini samarali shakllantirishning asosiy shartlaridan biri sinfda ijodiy, do'stona muhit yaratishdir. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar hamkorlik tamoyillariga asoslanishi kerak; avtoritar uslub mutlaqo mumkin emas. Yomon o'quvchilar yo'q - har bir o'quvchi o'qitilishi mumkin, ammo buning uchun tegishli shart-sharoitlarni ta'minlash kerak. Bu, birinchi navbatda, sinfda "o'qituvchi- o'quvchi", "o'quvchi- o'quvchi" holatida hamkorlik, o'zaro hurmat va do'stona yordam muhitini yaratishga qaratilgan psixologik yo'nalish; o'quvchilarning har qanday ijodiy ishiga ijobiy baho berish; har bir o'quvchida o'zini hurmat qilish, o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonish tuyg'ularini shakllantirish; matn bilan ishlash faoliyati uchun qulay hissiy-psixologik muhit va ijobiy motivlarni yaratish kabilar kiradi. O'qituvchi har bir ishda ijobiy deb e'tirof etilishi mumkin bo'lgan yaxshi narsani topishga intilishi kerak. Har qanday "topish", eng kichik ijobiy siljish e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Ijodiy ish mazmuni uchun hech qachon qoniqarsiz baho qo'yilmaydi: har bir urinish, o'quvchining o'ziga xos narsa yozishga bo'lgan intilishi o'qituvchi tomonidan ijobiy baholanishi va rag'batlantirishi kerak, chunki baholash o'z-o'zidan maqsad emas, lekin o'qituvchining vazifasi avvalo o'rgatish, keyin esa baho berishdir. Matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish uchun kichik guruhlarda amaliy ishlarni bajarish tavsiya etiladi. Ijodiy faoliyat individual yondashuvni talab qiladi. Har bir o'quvchi bilan uning g'oyalarini muhokama qilish, ularni amalga oshirishga yordam berish va yozma matnni tahrir qilishni yo'lga qo'yish katta-katta ijodiy ishlar, kashfiyotlar tug'ilishiga xizmat qiladi.

Axborot bilan murakkabroq darajada ishlash qobiliyati o'quvchilardan yangi bilim va ko'nikmalarni talab qiladi. Matn yaratish kompetentsiyasini rivojlantirishga qaratilgan bilim va ko'nikmalarni egallashning nazariy asosi har xil turdagi kommunikativ mashqlar bo'lishi mumkin. L.S. Vigotskiy, A.A. Leontiev, A.N. Leontiev, D.B. Elkoninlar tomonidan ishlab chiqilgan yosh davriyligi va aniqlangan psixologik yosh xususiyatlariga ko'ra, o'quvchilarning samimiy va shaxsiy muloqot uchun yetakchi faoliyati o'rta maktab yoshidir. Shu sababli, o'smir shaxsini rivojlantirishning eng yaxshi sharti o'yin va kommunikativ ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mumkin. Ona tilini o'qitishning zamonaviy usullarida matn bilan ishlashni tashkil etishning ko'plab shakl va usullari mavjud. O'quvchilarining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, matn bilan ishlashda quyidagi mashqlar samarali hisoblanadi.

Muammoli mashqlar: nutq qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan sinfda turli kommunikativ rolli-didaktik o'yinlar kiradi. Bunday holda, o'quvchilarning yaratiladigan matnlarida berilgan muammolar muhokama qilinadi. Muammoni tavsiflab, o'qituvchi uning mumkin bo'lgan tarkibiy qismlarini (muammolar, shartlar, ishtirokchilarning ijtimoiy rollari, ularning xarakteri va boshqalar) aniqlashi va o'quvchilar oldiga hal qilishni talab qiladigan ekstralingvistik vazifani qo'yishi kerak. 5–7-sinf o'quvchilariga turli mavzularni o'rganishda taklif qilinishi mumkin bo'lgan muammoli mashqlar:

- ota-onangiz yozda siz bilan sayohatga borishni rejalashtirishmoqda. Siz esa ta'tilda oromgohga bormoqchisiz. Ularni sizning tanlovingiz to'g'riligiga ishonitirishga harakat qiling, fikringizni asoslang;
- tasavvur qiling, siz shifokorsiz, sizni maktabda tashkil etilgan tadbirda kasbingiz haqida ma'ruza qilishga taklif qilishdi. Bu kasb jamiyat uchun eng mas'uliyatli va zarur kasblardan biri ekanligini isbotlang. Qaysi nutq uslubini tanlaysiz?
- tasavvur qiling, siz maktab gazetasining muxbirisiz, sinfingizdagi bir kunni kulguli hikoya shaklida tasvirlashga qaror qildingiz. Shunday

hikoya tuzing. Qaysi nutq uslubidan foydalanasiz?

-tasavvur qiling, sizga ijtimoiy tarmoqlarda do'stlik taklif qilishdi, siz qanday munosabatda bo'lasiz. Fikringizni asoslang

Ushbu misollardan ko'rinib turibdiki, muammoli mashq topshiriq bajarish xarakteri bilan bog'liq bo'lgan asosiy shartlarni o'z ichiga oladi. O'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda matn bilan ishlashni tashkil etish, matn mazmunini gapirib berish, shu jumladan, ularning eng ahamiyatlisi – muloqot maqsadi va nutq adresati bilan muloqot zarur. O'qituvchi muammoli vazifalarni mustaqil ravishda modellashtirishi, shuningdek, ona tili bo'yicha darsliklarda mavjud bo'lgan materiallardan foydalanishi mumkin. O'quvchilarning bir-birlariga maktublar yozishlarini tashkillashtirish mumkin. Bunday mashqlar nutqiy muammo haqida o'ylashga o'rgatadi va samarali og'zaki muloqotga tayyorlaydi.

2. Kommunikativ va didaktik mashqlar. Ular nafaqat o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishga, balki sinfda nazariy materialni o'zlashtirishda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga ham hissa qo'shadi. Masalan: 1) "Muxbir". Matnni ifodali va sharhlab, adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda to'g'ri o'qing. 2) "Muharrir" Matndagi uslubiy xatolarini tuzatingva tahrir qiling. 3) "Musahhih" matn imlosini to'g'rilang; 4) "Tarjimon". O'zlashtirilgan so'zlarni ona tiliga almashtiring. Ushbu turdagi mashqning muammoli mashqlardan asosiy farqi shundaki, u muayyan vaziyat uchun o'z matnini yaratmaydi, balki har xil turdagi xatolarni aniqlash va bartaraf etish uchun tayyor matnni tahrirlaydi. Madaniy xarakterdagi kommunikativ va nutq mashqlaridan foydalanish mumkin. Ushbu turdagi ish o'quvchilarning intellektual va nutq faolligini oshiradi va sinfda o'quvchilarga shaxsiy yondashuv imkoniyatini kengaytiradi. So'zdan o'rinli foydalanish va so'zning inson hayotidagi ahamiyati haqida ham tasavvurlar uyg'onadi. Til va nutq haqidagi maqollardan ham foydalanish ijobiy natijalarni beradi:

- Tig' yarasi bitadi, til yarasi bitmaydi.
- O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir.

- Til uzuni boshga balo keltirar.

Maqollar bilan muammoli va kommunikativ matnlar tuzish mumkin

3. Darslikdagi lingvistik matnlarning murakkabligi va hajmi yoshga qarab ortib borayotganligi sababli, manba matnni “tahrirlash” ko‘nikmalarini shakllantirish zarurati tug‘iladi. Bunda grammatik qoida uchun ko‘rgazmali vosita yaratish texnikasidan foydalaniladi. Bu o‘rganilayotgan matn qismining “tez yordam kartasi”, masalan, neologizmlar bilan bo‘lak, (bo‘lak = fe‘l + sifat), “atamalar” (jumla), “dialektlar” yoziladi” (ta‘rif, predikat). Bunday yordamchi vositalar to‘plami har bir o‘quvchida saqlansa, kerakli nazariy ma‘lumotlarni tezda olish imkonini beradi.

4. Ona tili darslaridan nazariy va amaliy mavzular ustida ishlashning samarali shakllaridan biri lingvistik ertak bo‘lishi mumkin. Masalan, “So‘zlar olamiga sayohat”, “Egri va to‘g‘ri so‘zlar”, “Egizak so‘zlar” kabi mavzularda ertaklar tuzish ham samarali natijalar beradi. Bu o‘quvchilarning ijodiy faoliyati bo‘lib, ish davomida yangi narsa yaratadi. O‘quvchilar ba‘zi holatlarda gap bo‘laklari va so‘z turkumlarini ajratolmay qiynalishadi. “Obrazli fikrlash” ni rivojlantirish maqsadida o‘quvchilarni guruhlariga bo‘lib “So‘z sehri” deb nomlangan musobaqa uyushtirish mumkin. Musobaqadan maqsad o‘quvchilarni nafaqat obrazli fikrlashga, balki ijodkorligini, mantiqiy fikrlashini hamda mustaqil so‘zlar barcha gap bo‘laklari vazifasini bajarishlarini ko‘rsatib berishdir. Ko‘p hollarda o‘quvchilar so‘z turkumlari va gap bo‘laklarini ajratishga qiynalishadi. Ushbu mashg‘ulot, aynan shu muammoni bartaraf etishga ham yordam beradi. O‘quvchilarni mustaqil so‘z turkumlari rolini bajarishlari uchun 6 guruhga bo‘lib, mustaqil so‘z turkumlari nomi beriladi. Guruhlar “Ot”, “Fe‘l”, “Sifat”, “Son”, “Ravish”, “Olmosh” deb nomlanadi. Musobaqa shartida kesim gapning markazi bo‘lib, kesimsiz gap bo‘lmasligi, kesimning bir o‘zi bilan ham gap tuzish mumkinligi uchun g‘olib bo‘lgan so‘z turkumlari guruhi kesim vazifasini, ikkinchi o‘rin ega vazifasini va keyingi guruhlar ikkinchi darajali bo‘laklar vazifalarini egallashlari aytib o‘tiladi. 1-

bosqichda har bir guruhga bittadan soʻz beriladi va bu soʻzlarning ijobiy maʼnoga ega sinonimlarini koʻp va tez topish; 2- bosqichda shu soʻzlar yordamida tasviriyl boʻyoqdor qilib matn tuzish; 3- bosqichda barchaga yoqimli kayfiyat bagʻishlovchi tilaklar bildirish boʻyicha shartlar amalga oshiriladi. Barcha guruh vakillari toʻplagan ballariga koʻra gap boʻlaklaridan birini egallaydilar. Oxirgi jarayonda barchaga yaxshi tilaklar bildirilgan gaplar tuzadilar va guruhlar qaysi soʻz turkumi rolda boʻlishlaridan qatʼiy nazar tuzilgan gaplarda oʻz egallagan vazifalarini, yaʼni sintaktik vazifalarini bajargan holda qatnashadilar. Bu metod mavzularni oʻzlashtirishda yaxshi samara beribgina qolmay bir qator mavzular oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni ham yuzaga keltiradi. Guruhlarda uyushtiriladigan musobaqalar oʻquvchilarda oʻzaro xayrixohlik, mehr- oqibat kabi xislatlarni rivojlantiradi va oʻquvchilar tafakkurini kengaytiradi.

Rus psixologi L.S. Vigotskiy insonning barcha faoliyati ikki turdan iborat deb hisoblagan: 1) reproduktiv, produktiv (bu faoliyat hech qanday yangilik yaratmaydi, uning negizida sodir boʻlgan voqeani ozmi-koʻpmi aniq takrorlaydi); 2) birlashtirish, ijodiy (yangi tasvirlar yoki harakatlar yaratish). Oʻquvchilarning lingvistik ertak yaratishi tasavvur va badiiy ijod mahsuli boʻlib, bunda uchta asosiy bosqichni ajratib koʻrsatish mumkin: “gʻoya, gʻoyaning qasddan tuzilgan rejaga aylanishi, rejaning moddiy shaklga oʻtkazilishi. Psixologlarning fikriga koʻra, ijodning barcha shakllaridan adabiy ijod maktab yoshiga xos xususiyatdir, chunki bu davrda bolada fantaziya, hissiy yondashuv, yaʼni hissiyotni gavdalantirish istagi kabi bolalik ijodining tarkibiy qismlari shakllana boshlaydi. Tashqi ogʻzaki shaklda, uni amalga oshirish aks eta boshlaydi. Shunday qilib, ertak ijodkorligi 11-12 yoshli bolalarning psixologik va yosh xususiyatlariga maksimal darajada mos keladi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, lingvistik ertak muayyan grammatik mavzu boʻyicha muloqot qilish, bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish qobiliyatini rivojlantirishning samarali usuli hisoblanadi. Koʻpgina metodologlarning (I.M. Pogayetskaya, N.V. Lomanova, L.V. Burmistrova va boshqalar) fikriga koʻra, psixologiya va oʻqitish metodikasi nuqtayi nazaridan, tilshunoslikdagi insho, xususan, lingvistik

ertak janrida ijod qilingan. Bu jarayonda ona tili bir qator afzalliklarga ega:

- bu turdagi insho o‘quv jarayonida katta ahamiyatga ega bo‘lgan o‘quvchining kreativlik darajasini aniqlashga yordam beradi;

- lingvistik ertak o‘quvchilarning o‘rganilayotgan mavzuga qiziqishini oshiradi, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari va izchil nutq ko‘nikmalarini rivojlantiradi;

- lingvistik ertak yaratish ustida ishlash o‘quvchilarning tasavvur va mantiqiy tafakkurini faollashtirishga yordam beradi; til faktlarini tanlash, tuzish va tahlil qilishda yordam beradi. Lingvistik ertaklarni ham o‘qituvchi, ham o‘quvchilar yaratishi mumkin. Masalan, “Iboralar”ya’ni “Turg‘un birikmalar”mavzusida “video topishmoq” metodidan foydalanish mumkin. Animatsiya yordamida ekranda namoyish etiladigan obrazli harakatlardan o‘quvchilar qaysi ibora aks ettirilayotganini topishi juda sermazmun jarayondir. Turg‘un birikmalar bilan so‘z birikmalari va ko‘chma so‘zlarni ham namoyish etish bu birikmalar o‘rtasidagi farqlarni yaqqol ko‘rsatib beradi. Keyin ekrandagi bu birikmalardan ertak yaratish mumkin. *“Bir bor ekan bir yo‘q ekan, bir odil podshoh bo‘lgan ekan. Xalqi o‘z shohini boshida ko‘tarib yurishga tayyor edi. Shohning ilon yog‘ini yalagan , ichi qora bir vaziri bo‘lib, burni ko‘tarilganidan shohga zimdan choh qazib yurardi. Kunlardan bir kun ko‘zini yog‘ bosib, to‘nini teskari kiyib olibdi. Shoh o‘z yog‘ida qovurilgan qo‘y go‘shini tanovul qilishni yaxshi ko‘rishini bilgan qora niyatli, o‘pkasi yo‘q vazir mamlakatdagi barcha qo‘y- qo‘zilarni zaharlashni ko‘nglidan o‘tkazdi. Ammo qalbi daryo insonlar tufayli siri fosh bo‘lib aybi bo‘yniga qo‘yilgach, o‘z yog‘ida qovurilar ichidagi hasad o‘ti uni yondirib kul qilar edi. Nihoyat bunday tosh yurakligi o‘z boshiga yetibdi va o‘zi qazigan chohga o‘zi tushib yuragi yorilib ketibdi. Yaxshilik yomonlik ustidan g‘alaba qozonibdi. Odil shoh xalqining farzandlari ta’lim tarbiyasiga alohida e’tibor berib, tilidan bol tomgan dono ustozlar sabog‘iga berar edi. Shoh xalqining shirinsuxan, xushmuomala, zukko va topqir bo‘lib o‘sislari uchun misli ko‘rilmagan tashabbuslarni amalga oshirar edi. Shu tariqa og‘zi qulog‘iga yetgan xalq murod- maqsadiga yetibdi”.*

Bu ertakda berilgan iboralarni topib ko'shma so'z va birikmalardan farqlash o'quvchilar e'tiboriga havola etiladi. Bu texnologiya umuminsoniylik, insonlarga mehr- oqibat, vatanga sadoqat, milliy g'urur kabi tuyg'ularni rivojlantirib, bilim egallashga bo'lgan mehrlarini oshiradi. Jamiyat barcha davrlarda ijodkor odamlarga muhtoj, buning uchun imkon qadar bolalarning salohiyatini ochish zarur. Iqtidorni rivojlantirishning bir qator muammolarini hal qilish uchun o'quv jarayonini muntazam amalga oshirish zarur. Demak, lingvistik ertak ijodiy tasavvur mahsuli sifatida bolaning hissiy xayolotini chuqurlashtiradi va kengaytiradi; o'quvchining izchil nutqini rivojlantirishga yordam beradi, uning lingvistik va kommunikativ hamda matn yaratish kompetentsiyasini yanada rivojlantiradi, tilshunoslikning murakkabliklarini tushunishga yordam beradi, ijodkorlik qobiliyatlarni shakllantiradi.

5. "Fikrlar xilma-xilligi" kommunikativ mashqi. Bu muhokama qilinayotgan matnning muayyan muammosi yoki mavzusi bo'yicha guruh ishtirokchilarining o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan faoliyatidir.

Ushbu guruh faoliyatining uslubiy xususiyati - matn mazmuniga asoslangan tugallanmagan iboralar yozilgan kartalar to'plami bo'lib, ularni o'qish va baland ovozda savollarga javob berishga undaydi. Boshlangan narsa tugallanishi kerak, shuning uchun kartani olgan o'quvchi mavzu bo'yicha nutqining tayyor boshlanishiga ega bo'ladi. Boshlang'ich ibora fikrga yo'nalish beradi va suhbatning birinchi daqiqasida o'quvchiga yordam beradi. O'qituvchi uchun bu turdagi tayyorgarlik ishining qiyinligi boshlang'ich jummalarni muammoli, muhim va ixcham shaklda shakllantirishdir. Kartochkalar soni munozara ishtirokchilari soniga teng bo'lishi kerak.

6. Matn yaratish jarayonida matn boshlanadigan birinchi so'zlar kartaga yoziladi. Muvaffaqiyatli ish qiziqish, ijodkorlik va o'zaro yordam muhitini yaratishni talab qiladi. Faqat ma'lum qilingan fikrlar qabul qilinadi. O'quvchilarning e'tiborini asosiy fikrlarga qaratish uchun ushbu turdagi ishlarni matnni o'qib chiqqandan keyin bajarish tavsiya etiladi. O'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda

matn bilan ishlashni tashkil etish muhim jarayon. Javoblar gipoteza va uning argumentini bayon qilish tamoyiliga asoslanadi. Bir nechta muammolar mavjudligini yoki asl muammo bo'yicha bir nechta muallifning nuqtayi nazarini ta'minlaydigan matnlarni tanlash tavsiya etiladi. Qabul qilingan javoblar umumlashtiriladi va qayd etiladi, natijada matnning tezis konturi tuziladi, unda manba matn muammolari va muallifning pozitsiyasi aks etadi.

7. Maxsus turga kalit so'zlar bilan ishlash mashqlari kiradi, ular turli darajada matndagi ixchamlashish jarayonini aks ettiradi, uning ichki va tashqi tuzilmalari o'rtasidagi bog'lanishni ta'minlaydi. Bundan tashqari, olimlar orasida hali ham kalit so'zlarning kategorik xususiyatlari bo'yicha umumiy fikr mavjud emas. Maktab amaliyotida kalit so'zlar muallifning fikrlarini aks ettirish uchun katta ahamiyatga ega, matnning semantik va hissiy fonini anglatadi, matnni tushunish uchun kalit bo'lib, uning yaxlitligini ifodalaydi. Matnning g'oyaviy mazmunini yetarlicha idrok etish uchun tayanch so'zlarni to'g'ri aniqlashni o'rganish zarur. Kalit so'zlarning bajaradigan vazifasiga ko'ra tarkibi va turini lingvistik tajribada aniqlash mumkin tizimli topshiriqlarni o'z ichiga olgan parafrazlash texnikasidan foydalangan holda: A. "Ortga hisoblash". Tizimli harakatlar ketma-ketligiga asoslanib, matn bilan bir necha bosqichda ishlash zarur bo'ladi:

- ifodali o'qish va matndagi eng muhim so'zlarning tuzilishi va mazmuni bo'yicha tagiga chizish;
- funksional ahamiyati bo'yicha kalit so'zlarni guruhlab jadval tuzish;
- uchinchi bosqichda kalit so'zlarni qayta ko'rib chiqib, dominantini ajratish;
- kalit so'zlar yordamida matnning asosiy g'oyasini yanada shakllantirish.

B. "Qarama-qarshilik bo'yicha" vazifalar:

- aniqlangan kalit so'zlardan foydalanib, matn yaratish.

C. Matnni ixchamlashtirish texnikasidan foydalanish bilan bog'liq vazifalar:

- muayyan mikromavzulardan foydalanib, matn (ixcham yoki batafsil) yaratish;

- matnni “ikkilamchi ma’lumot” bilan to’ldirish.

8. Didaktik o‘yin “Bo‘lmacalar”. Ushbu turdagi faoliyatni tashkil qilish vazifalarida o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin, ammo ularning barchasi:

- tarkibiy va semantik muvofiqlik, semantik yaxlitlik, nisbiy to‘liqlik, semantik segmentlarga bo‘linish kabi matnning asosiy tushunchalari va toifalarini o‘zlashtirishga qaratilgan.

Kompozitsion va uslubiy birlik. O‘yin quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1) turli xil matnlarning qismlari berilgan kartalardan foydalanib mantiqiy va mazmunli izchil matn hosil qilish kerak (ish qiziqarli va ijodiy bo‘ladi; bolalar vazifalarni turli yo‘llar bilan bajaradilar, natijada butunlay boshqa matnlar hosil bo‘ladi, lekin o‘quvchilar tomonidan tanlangan qismlarga tayaniladi);

2) o‘quvchilarga tarqatiladigan kartochkada mikromavzular ro‘yxati beriladi; Matnning tarqoq qismlari keltirilgan boshqa kartalar ham mavjud, ular asosida berilgan (mikromavzular) bo‘yicha izchil matn tuzish kerak;

3) turli kartochkalarda taqdim etilgan mikromavzu va matn qismlari o‘rtasidagi aloqalarni topish taklif etiladi;

4) tartibsiz joylashgan jumalardan matn tuzish kerak.

Xulosa qilib shuni ta’kidlaymizki, barcha darslarda o‘qituvchi o‘quvchi-o‘qituvchi, o‘quvchi- o‘quvchi darajasidagi yondashuv orqali nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar o‘zlashtirilganda, yanada samarali o‘quv faoliyati uchun zarur bo‘lgan asosiy bilimlar yaratiladi. Muloqot jarayoni ta’lim faoliyati uchun zaruriy shartga aylanadi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish uchun darsning turli bosqichlarida qo‘llaniladigan texnika va vositalar yangilanadi.

1.3. Adabiyot darslarini til darslari bilan integratsiyon bog‘lab o‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirish

Zamonaviy maktab nafaqat bilimga ega, balki shu bilimlardan hayotda foydalanishni ham biladigan, muloqot qila oladigan, ichki madaniyatli, tafakkur va his qiluvchi shaxsni tayyorlashi kerak. Maqsad har qanday vaziyatda harakat qilish va muammolarni yecha olishdir.

Bunga erishish uchun orttirilgan vositalar - nutq madaniyati va muloqot madaniyatini rivojlantirish zarur. Nutq hodisalarining mohiyati, shakllanish mexanizmlari va umumiy qonuniyatlari tushunchasi o'quvchining o'quv faoliyatini rivojlantirishni belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, shaxs rivojlanishi uchun shart-sharoitlarning parametri sifatida ona tili darslarini adabiyot darslari bilan integratsiyalagan holatda hamda adabiyot darslarida ham o'quvchining nutqini rivojlantirish xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish zarur. Yoshlarni ta'lim va tarbiyalashning asosiy tarkibiy qismlaridan biri izchil nutqni rivojlantirishdir. Ko'pchilik olimlar (tilshunoslar, faylasuflar, psixologlar, sotsiologlar, o'qituvchilar) nutq madaniyatining umumiy darajasining bugungi kundagi pasayishidan xavotirda. Shu bois til kompetensiyasini shakllantirish borasida tizimli ishlarni olib borish zarur. Hozirgi vaqtda maktab o'quvchilarining nutqini rivojlantirishning umumiy tendensiyalari aniqlandi, fanlararo darajadagi nutqni rivojlantirish g'oyasi asoslandi va muammolar aniqlandi. Shu sababli, nutq aloqasi, maktab o'quvchilarining matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishning mumkin bo'lgan usullari aniqlanmoqda, ijodkorlik qobiliyatlari rivojlantirilmoqda, izchil og'zaki va yozma nutqini shakllantirishning psixologik xususiyatlari o'rganilmoqda. Aksariyat holatda, nutq deganda so'zlash jarayoni va uning natijasi tushuniladi. Vaholanki, nutq – bu insonning eng oliy, murakkab, ruhiy vazifalaridan biridir. O'quvchilarda ruhiy va ma'naviy kamolot adabiyot orqali mujassamlashadi. Adabiyot, shu jumladan, kitob o'qish nutq o'stirish hamda ta'lim –tarbiya jarayonidagi eng muhim vositalardan hisoblanadi. O'quvchi shaxsi pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan juda nozik his-tuyg'ularga boy bo'lib, o'qituvchi ana shu tuyg'ularni ilg'ashi kerak. Bola ruhiyatini sezishi, ta'lim jarayonida insonparvarlik tarbiyasiga alohida e'tibor berishi kerak. O'qituvchining o'qitishdan maqsadi o'quvchilarning nutq madaniyatini, nutq ko'nikmalarini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi masalalarni o'z ichiga oladi. O'quvchilarning nutqi ravon, tushunarli bo'lishi uchun eng avvalo ongli va mantiqli fikrlashiga e'tibor berish zarur. O'quvchilarning nutq madaniyat ta'limning o'ziga xos ko'zgusidir. Shaxsning nutqiga ko'ra,

uning axloqiy, ma'naviy, intellektual rivojlanishi bilan birga tafakkur va intellektual rivojlanish darajasini darhol aniqlash mumkin. Nutqni rivojlantirish - bu odamni madaniyatga kiritish usuli, uning so'z zaxiralarni boyitish, yangilikalarni o'rganish hamda madaniy nutq qadriyatlarini o'zlashtirish qobiliyatini, o'z-o'zini rivojlantirish shartini ta'minlashdir. Adabiyot fani o'quvchining ma'naviy hayotida hal qiluvchi rol o'ynaydigan fan bo'lib, ijodiy rivojlanish imkoniyatlariga boy. Bilishning butun oqimi til kanallari orqali o'tadi: tushunchalar so'zlar orqali o'zlashtiriladi, fikr va nutq til shakllarida quriladi. Nutq, o'z navbatida, aqlni rivojlantirish uchun kanaldir. Shuning uchun nutqni rivojlantirish maktab o'quvchilarining kelajakdagi muvaffaqiyatining tarkibiy qismlaridan biridir. M. Gorkiy shunday deb yozgan edi: "Siz o'z fikringizni ifoda eta olishingiz kerak. Agar siz yaxshi gapirsangiz va yozsangiz, unda odamlar bilan muloqot sizga qoniqish va quvonch keltiradi, siz ular bilan bilimlaringizni baham ko'rishingiz, e'tiqodlaringizning to'g'riligini himoya qilishingiz mumkin".

Ona tili va adabiyot darslari integratsiyasi o'quvchilarning matn yaratish kompetensiyalari shakllanish jarayonini jadallashtirib, og'zaki va yozma nutqlarini o'stirishda beqiyos katta imkoniyatlarga ega. Adabiy o'qish, sharhli, ifodali o'qish, matnni izohlash, yod olish, qayta hikoyalash, matnning rejasini tuzish, asarning ajratib olingan alohida bir qismi, nomlanmagan asarlar (xususan, klassik adabiyotimizdagi lirik asarlar)ga sarlavha topish, ularni sharhlash, asar muallifi yoki qahramonlarga maktublar yozish, adabiy asar yoki adabiy-tanqidiy maqolalarga taqriz yozish singari bir-biriga o'xshamaydigan ish turlari bo'lib, nutqning barcha turlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini rivojlantirish qonuniyatlari.

Ma'lumki, matn yaratish til qonuniyatlariga to'g'ri amal qilish, tanishgan matn ma'lumotlarini idrok etish va o'zining ijodiy faolligi natijasida rivojlanadi. Bu rivojlanish shaxsning psixologik rivojlanishi hamda dastavval xotirasi, fikrlashi, idrok etishi, hissiyot va ehtirosini ta'minlaydigan muhim vositadir.

Birinchi qonuniyat: Matnlarni idrok etish qobiliyati matnlar tahlilining

mashq qildirilishiga bog‘liq (shuning uchun ham so‘z, ibora va gaplarni tuzishni takomillashtirish uchun asarlarni o‘qib tahlil qilishga yetarli darajada e’tibor bermoq muhimdir).

Ikkinchi qonuniyat: Matn yaratish qobiliyati o‘quvchi tomonidan nutqning leksik va grammatik qonuniyatlarining o‘zlashtirilishiga bog‘liq.

Uchinchi qonuniyat: Matnda ifodaviylikka erishish nutq ifodaliligini o‘zlashtirish hamda ifoda vositalarini tushunishga bo‘lgan moyillikka bog‘liq.

To‘rtinchi qonuniyat: Lug‘at zahirasi boyitish, avvalo, kitobxonlik ko‘nikmalarini takomillashtirishga bog‘liq (badiiy asarlarni o‘qish orqali o‘quvchi mantiqiy fikrlashini shakllantirish muvaffaqiyatli bo‘lgan bo‘lsa, undan keyingi asarlar tahlili va talqini orqali matn yaratish jarayoni oson va tez boradi). Bundan tashqari, tadqiqotchilar tomonidan matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish jadalligi asarni his etish, bilish imkoniyatlari (sezish, xotira, idrok qilish, fikrlash), idrok kuchining rivojlanishiga ham bog‘liq.

Beshinchi qonuniyat: Nutq uslublarini o‘zlashtirish tilni his etishning rivojlanishiga bog‘liq. O‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish masalalari kompleksini hal etishda quyidagilar alohida hisobga olinadi:

1. Insondagi ijodkorlik qobiliyati ijodiy jarayonlar bilan muloqotda vositasida amalga oshiriladi.
2. Ijod namunalari yordamida his-tuyg‘ularida, tasavvur olamida faol ijodiy jarayon kechadi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, o‘quvchilarni ijodiy jarayon bilan tanishtirish yaratuvchanligini rivojlantirishda keng imkoniyatlar tug‘diradi. Shunga ko‘ra o‘qituvchilar o‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini to‘g‘ri yo‘naltirishni OAVlarda beriladigan xabarlar bilan tanishtirish orqali amalga oshiradi. O‘quvchilar matn yaratish qobiliyatini rivojlantirish samaradorligiga erishish uchun ularning bilim darajasi, qiziqishi va shaxsiy qobiliyati xususiyatlarini hisobga olish muhimdir.

Shu narsa aniqlanganki, yoshlarning barcha harakat va xulqini boshqarishda bosh miya faoliyatining roli ortib boradi. Ya’ni ular

boshqalarning xatti-harakatlarga, yuz berayotgan voqea-hodisalarga munosabat bildirishga va baholashga intiladilar. Shunga ko'ra bajaradigan faoliyat turlari ham xilma-xil va mazmunli bo'lib boradi. Demak, yoshlar faoliyatining sermahsul turlari ijokorlikni o'stirishda katta rol o'ynaydi.

Har bir xalqning ona tili va adabiyoti uning milliy o'ziga xosligi va ma'naviy madaniyatining yorqin ko'rsatkichidir. Til tafakkur bilan monand bog'langani holda ongni shakllantiradi. Nutq va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik nafaqat psixologik jarayonlarning chuqur bosqichlarida, balki ijtimoiy hodisalar darajasida ham namoyon bo'ladi. So'zning insonga, uning xulq-atvoriga ko'rsatadigan ta'siri barchaga yaxshi ma'lum. «Garchi til bilan tafakkur bir-birisiz yashay olmasa ham ular o'zida aynan bir hodisani ifodalamaydi. Tafakkur - obyektiv borliqning intihosi, til esa – ifoda usuli, fikrni boshqa kishilarga berish va mustahkamlash vositasi. So'z bilan tushuncha dialogik tarzda bir-birini taqozo etadi.

O'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasining yuqori darajasiga quyidagilar evaziga erishilishi mumkin ekan:

- tilning adabiy me'yorlari va qoidalaridan xabardorlik;
- mustaqil fikr-malohazalarga egalik;
- muloqotda faollik, muomala madaniyati;
- matnlarni o'qib idrok eta bilish, tuyish (qahramonlarga to'g'ri baho bera olish), zarur bo'lganda holatni tushuntirish, izohlash;
- asarlar mutolaasidan keyin munosabat bildira olish;
- o'z matnlarini yozishda kitobxon fikri bilan qiziqish.

O'quvchilar nutqini o'stirishda, ijodkorligini hamda tafakkur olamini kengaytirishda matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor berish zarur bo'ladi. O'quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirish kommunikativ hamda nutqiy malakalarini rivojlantiradi.

O'quvchilarning matn bilan ishlash ko'nikmalari quyidagi ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi:

- berilgan matnni ifodali o'qish;
- matn mazmunini mustaqil bayon qilish;

- matn mazmunining to'liqligi;
- matnni bayon qilishda izchillik;
- ifoda vositalaridan foydalanish ko'nikmasi;
- nutqning ravonligi.

Matnni tahlil qilib berishda quyidagi kamchiliklar uchrashi mumkin.

- matn g'oyasini aniqlay olmaslik;
- matndagi mikro matnlarga chalg'ish;
- ba'zi muhim voqealarga diqqatni qaratmaslik yoki e'tiborsizlik;
- tahlilda mustaqil yondasha olmaslik;
- nutqda ifodalilik yetishmasligi;
- bir xil tezlikda, bir xil ovozda matnni ifodalash;
- mantiqiy izchillikka rioya qila olmaslik.

O'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish ko'p jihatdan quyidagilarning to'g'ri hal etilishiga bog'liq:

- matn bilan ishlashga doir didaktik materiallarning (darslikdan yoki darslikdan tashqari badiiy asarlardan namunalar, xalq og'zaki ijodidan namunalar; ertaklar, qo'shiqlar, maqollar) to'g'ri tanlanishi;
- didaktik materiallarni o'zlashtirish uchun foydalaniladigan metod va usullar;
- ta'limni tashkil etish (tevarak-atrof obyektlarini saralash, shunga bog'liq matn yaratishni rejalashtirish).
- o'quv materialining mazmuni, uni o'rganishning ayrim usullari hamda ularga tegishli tamoyillarga tayanib, o'qituvchi matn yaratish bilan bog'liq barcha ishlarni rejalashtirmog'i zarur. Biz ayni muammoga oid tadqiqot ishlari olib borish jarayonida matn yaratish borasida quyidagi didaktik tamoyillarga tayanib ish ko'rish yaxshi natija beradi degan xulosaga keldik:
- avvalo matn bilan ishlash jarayonida asosiy g'oyani topa olish, mazmunini tushunish;
- matnlar tahlilida matn turlarining ahamiyatini tushunish hamda matniy ko'nikmalarni rivojlantirish;
- matn ifodaliligini baholash.

Buning uchun muayyan hissiyotni rivojlantiradigan didaktik materiallarni tanlash maqsadga muvofiqdir;

- ona tiliga muhabbat tuygʻusini rivojlantirish tamoyili;
- muayyan mavzuga oid matn turlarini qiyoslash;
- soʻz zahirasiining asta-sekin boyib borishi.

Xulosa: Maʼlumki ijod inson aqli faoliyatining eng oliy va asosiy vositasidir. Chunki insonni boshqa jonzorlardan ajratib turadigan ham ong emasmi?! Shunday ekan, inson aqliy faoliyatining eng oliy mahsullari tafakkur mevalari ijod orqali roʻyobga chiqadi. Tafakkur ijod mahsulining hayotga tatbiq etilish vositasi boʻluvchi qudratli quroldir. Adabiyot oʻqituvchisi oʻquvchilarga badiiy asar oʻqitish bilan ularning maʼnaviyatini, ruhiyatini poklab tafakkurini hamda adabiy nutqini oʻstirib boradi. Adabiyot darslarida oʻquvchilar nutqini oʻstirishning oʻziga xos xususiyati shundaki, oʻqituvchi darsda oʻquvchilarda badiiy asarni oʻqish, yod olish, ifodali soʻzlash malakalarini oʻstirish orqali ularning grammatik qoidalarini, soʻz sanʼatining qonuniyatlarini egallab olishlariga erishadi, adabiy nutqlarini rivoj toptiradi. Oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutq madaniyatini taraqqiy ettirish til va adabiyot darslarining oʻzaro integratsiyasiga hamda oʻqitishning sifatiga bogʻliq. Shu bilan birga, nutq madaniyatini rivojlantirish uchun darsda leksik mashqlar, qayta hikoyalash, bayon, insho, matn yaratish kabi mashgʻulotlarni uyushtirib turishni ham taqozo etadi. Bunday mashgʻulotlarni rang-barang qilib uyushtirib borish maqsadga muvofiq boʻladi.

II BOB. ADABIYOT DARSLARIDA BADIY ASAR TAHLILINING ILMIY-METODIK ASOSLARI

2.1. Badiiy asar tahlilida o'quvchilarning yosh xususiyatlarining o'rganilishi

Ma'limki, biron axloqiy fazilatni barchaga barobar, umumiy tarzda qaror toptirib bo'lmaydi. Ya'ni bir pedagogik chora turli yoshga nisbatan qo'llanilganda turlicha natija beradi. O'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini qaror toptirishda ham turli sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olish shart. O'quvchining yoshiga mos bo'lmagan material ham, usul ham samara keltirmaydi, chunki bunday tadbirlar toliqtirib, qiziquvchanlikni yo'qotadi. Bunday mashg'ulotlar o'ta zararli hisoblanadi. Matnlar bilan ishlashni yo'lga qo'yishda o'quvchilarning muayyan yoshdagi psixologik xususiyatlarini hisobga olish shuning uchun ham zarur. Ko'pgina mamlakatlarning pedagog va psixolog olimlari, umuman, bolalar, xususan, maktab bolalarining yoshlarini asosli tarzda muayyan bosqichlarga bo'lish haqida ko'pdan beri tadqiqotlar amalga oshirib kelishadi. Xususan, rus olimlari L.S. Vigotskiy va D.B. Elkoninlar bu ilmiy yumush bilan jiddiy shug'ullanishgan. Taniqli o'zbek ruhshunoslari Ergash G'oziyev va Botir Qodirovlar ham bu muammoni hal qilishga urinishgan.

Bu olimlar maktab yoshidagi o'quvchilarning **boshlang'ich bosqichini** “**kichik maktab yoshidagi o'quvchilar**” yoki “**kichik o'quvchilar**” deb nomlaydilar va 6-10 yoshdagi bolalarni kiritishadi. “**Kichik o'quvchilar**” uchun **yetakchi faoliyat o'qish** bo'lib, ularning intellektual va bilish qobiliyati shiddat bilan o'sib boradi. **Ikkinchi bosqich o'smirlik** deb atalib, 11-15 yoshni o'z ichiga oladi. Bu yoshdagi bolalarning faoliyatidagi asosiy muammo atrofidagi odamlar bilan munosabatni yo'lga qo'yishdir. Ko'rib turganimizdek har ikkala bosqichdagi faoliyatlarda ham yetakchilik nutqiy faoliyat bilan uzviy bog'liqlikda kechadi. Ayniqsa, munosabat o'rnatish o'smirlar hayotida shu qadar katta ahamiyatga egaki, ularning xatti-harakatlarining natijasi ko'pincha shu munosabatlar xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. O'smirlarda mavhum tafakkur, o'zini anglashga intilish, balog'at tuyg'usi kuchayadi.

Bu yoshdagi o'quvchilarga beriladigan matnlar ham yoshiga mos

keladigan darajada sarguzashtlarga boy, fantastik yoʻnalishdagi matnlar berilsa maqsadga muvofiq boʻladi. Jumladan, X.Toʻxtaboyevning “Sariq devni minib”, Gʻ. Gʻulomning “Shum bola”, “Mening oʻgʻrigina bolam” asarlari tahlilida balogʻat tuygʻularining ilk shakllanish bosqichi eʼtiborga olinishi shart.

Uchinchi bosqich **oʻspirinlik** deb nomlanib, 16-18 yoshni kiritish mumkin. Ular uchun **bilish** asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Oʻspirinlar kelajakda shugʻullanadigan biror kasbni koʻz oldiga keltirganliklari va birmuncha qatʼiy dunyoqarashga egaligi bilan ajralib turadi¹. Bu yoshda oʻquvchilar dunyoqarashini kengaytiradigan, mushohadaga boy aniq kasbga yoʻnaltirilgan matnlar berish maqsadga muvofiq boʻladi.

Barcha bosqichlarda bola ruhiyatida turlicha holatlar paydo boʻladi. Shulardan kelib chiqqan holda matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirishda ham turli yoshdagi oʻquvchilarga turlicha yondashish lozim. Chunonchi, “Adabiy taʼlim davlat standarti” (TDS)da ham oʻquvchilarning yoshi va ruhiy holatlaridagi turli xususiyatlardan kelib chiqqan holda nutqiy faoliyatlari bilan bogʻliq jarayonlar turlicha boʻlishi koʻzda tutiladi: Adabiy taʼlimning barcha bosqichlarida ham oʻquvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq ravishda badiiy asarni oʻqish, tushunish, tushuntirish, taʼsirlanish, taʼsirlanganligi sababini anglash va anglatish, tahlil qilish, xulosa chiqarish singari faoliyat turlari amalga oshiriladi.

Oʻquvchilarning adabiy-tarixiy va adabiy-nazariy bilimlarni toʻliq egallashlariga erishish, ogʻzaki hamda yozma nutqini rivojlantirish, ijodiy va mustaqil fikrlash koʻnikmalarini shakllantirish ularning yoshiga xos jihatlarni koʻzda tutgan holda amalga oshirilsagina kutilgan natijaga erishiladi.

Adabiy taʼlimning barcha bosqichlarida oʻquvchilarda ezgu maʼnaviy xislatlarning shakllantirilishiga diqqat qaratiladi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablari tarkibi hamda oʻquvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda adabiyot oʻqitish quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi.

¹ Селевко Г. Энциклопедия образовательных технологий. в 2 т. Т. 1-м.: НИИ школьных технологий, 2006. – С. 42.

1.Boshlang'ich maktab bosqichi. 2.Tayanch maktab bosqichi (V–IX sinflar). 3.O'rta maktab bosqichi (10-11-sinflar). B. Qodirov, E. G'oziyev, R. Sunnatova, V. Davidov, D. Elkonin, I. Dubrovina, N. Talizina singari ruhshunos olimlar kichik o'quvchilarda fikrlash, ayniqsa, nutqiy-mantiqiy tafakkur tezkorlik bilan rivojlanishini ta'kidlashadi².

Bu jarayonda o'qish kichik o'quvchilarda zarur ma'naviy sifatlar shakllantirish bilan uyg'unlashtirilishi lozim. Buning uchun o'quvchilar odob-axloq doirasidagi matnlar bilan tanishtirib borishlari va ularning fikr-mulohazalariga diqqat qaratilmog'i zarur. Chunki chin poetik so'z bilan tanishgan bolalar bora-bora kitobga, adabiyotga mehr qo'yishadi. O'qish darslarida o'rganilayotgan matnga badiiy asar sifatida qarash, undagi mazmun qanday yoritilgan, tasvir vositalaridan qanday foydalanilganligiga e'tibor berish muhim. Mustaqil ravishda matn mazmunini og'zaki va yozma bayon qilishlariga rag'bat uyg'otilmog'i maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun matn mazmunining ta'sirli va esdan chiqmaydigan bo'lishida ifoda yo'sinidagi xususiyatlarni e'tibordan qochirmaslik zarur. Badiiy tasvir vositalari muallif niyati va asar g'oyasini ifodalashdagi ahamiyatini ko'rsatib berish shart. O'rganilgan matndan kelib chiqadigan ma'nogagina bolalar e'tiborini qaratish kamlik qiladi. O'quvchilar badiiy so'zning sehrini tuyib, unga oshno bo'lib, matn zamiridagi ma'nolarni anglashga odatlanish zarur. Badiiy matn tahlili o'qish saboqlaridagi eng muhim, ayni vaqtda, eng qiyin didaktik tadbir. Matnni tahlil qilish o'quvchida faqat o'qish emas, balki bitik ma'nosi va go'zalligini uqish ko'nikmasini ham shakllantiradi. O'quvchi tahlil jarayonida savollarga javob topish asnosida matn mazmuniga chuqurroq kiradi, asar shaklidagi o'ziga xoslikka diqqat qaratadi, yozuvchi so'zlarini o'zlashtirib, o'z matnini yaratayotganda qo'llashga o'rganadi. Matnni o'rganish davomida o'quvchilar diqqati yozuvchining tasvir mahoratiga ham yo'naltirilishi maqsadga muvofiqdir.

Bu yoshda asar tahlilida oldin voqealar rivojiga, keyin undagi

²<https://kuban-lyceum.ru/uchashchimsya-i-roditelyam/psikhologicheskie-osobennosti-detey-mladshego-shkolnogo-vozrasta.php>

obrazlarning bolalar tasavvurida tiklanishi va kerakli tuyg'ular paydo qilishiga diqqat qaratiladi. Bu yoshdagi bolalar asarni oldin tuyg'ulari bilan, so'nggina aql va mantiq bilan qabul qilishadi. Shunday qilingandagina badiiy asarning hissiyot, tuyg'ular, fikr va g'oyalar uyg'unligidan bunyod bo'lgan yaratiq ekanini anglash boshlanadi. Kichik o'quvchi ko'pincha o'qiganlarini tuyish, ko'nglidan o'tkazish, o'qilgan matnning o'ziga qanday ta'sir qilganini anglashga ulgurmay qoladi. O'qituvchi uni darhol asardan kelib chiqadigan ma'noni anglash sari yetaklaydi. Bu holda bola tuymaydi, sezmaydi, his qilmaydi faqat axborot oladi.

Ko'rkam asarni his etish shuning uchun ham kerakki, faqat tuyish orqaligina matnni qabul qilishning ikkinchi – baholovchi bosqichi boshlanadi. Matn bilan tanishib o'zida qanday tuyg'ular paydo bo'lganini bilgan bola muallif niyatini, obrazlarga tavsif berishni bajara olishi mumkin. Shundagina u asardagi obrazlarning tutumlariga baho bera oladi.

Badiiy matn tahlilining uchinchi bosqichida o'quvchi asarning o'ziga qanday ta'sir qilgani, qanday fikrlar uyg'otgani, obrazlar va tasvirga munosabati qandayligi haqida fikr bildiradi. Shu tariqa asarning to'la idrok etilishi o'quvchilarning tuyg'u va fikrlarini faollashtirish orqali amalga oshiriladi³.

Matnlar bilan shu holda tanishib borish o'quvchilarda estetik did, ta'sirchan hissiyot va nozik tuyg'ularni qaror toptirishda muhim o'rin tutadi. Darslarida foydalaniladigan matnlarning badiiy bo'yoqdor bo'lishi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tayanch maktab bosqichi (V–IX sinflar).

Bu bosqichda ancha murakkab badiiy asarlar o'rganilishi, tahlil va talqin qilinishi ko'zda tutiladi. Bu bosqichda ta'lim sinfda o'qish, mustaqil o'rganish va sinfdan tashqari o'qishga mo'ljallangan. Pedagogika va psixologiya ilmi hamda o'qitish amaliyoti 5-9-sinflarni o'z ichiga oluvchi tayanch maktabda adabiyot o'qitishni **V–VII** va **VIII–IX sinflar** tarzida ikki bosqichda tashkil etishni didaktik jihatdan

³https://kopilkaurokov.ru/nachalniyeKlassi/prochee/formirovaniie_chitatel_skich_intieriesov_u_mladshikh_shkol_nikov_1

maqsadga muvofiq hisoblaydi. Chunki V–VII sinf o‘quvchilarida badiiy adabiyotga doir birmuncha sodda bilim, ko‘nikma hamda malakalar shakllantirish ko‘zda tutiladi. Bu davrda badiiy so‘z o‘smirlarning tasavvurini kengaytirish, fantaziyasini kuchaytirish, ko‘rkam so‘zning ta‘mini tuyadigan qilishga yo‘naltiriladi. Bu sinflarda o‘tkir syujetli, porloq tasvirlarga boy, o‘quvchilarda xayolot va tuyg‘u uyg‘otadigan, hissiyotini boyitadigan badiiy asarlar ko‘proq o‘rganilishi samara beradi. O‘zlashtirilishi ko‘zda tutilgan adabiy-nazariy tushunchalar ham matn mazmunini chuqurroq anglashga yo‘naltiriladi. Adiblarning umr yo‘li haqidagi ma‘lumotlar esa bolalar uchun namuna va taqlid obyekti vazifasini bajaradi. Asarlar tahlilida bolalarda shakllantirilishi ko‘zda tutilgan ma‘naviy-axloqiy va estetik-pedagogik sifatlarga tayaniladi.

VIII–IX sinflarda o‘quvchilar turli murakkablikdagi ko‘rkam asarlar bilan tanisha borib, badiiy matn jozibasi va tarovatini ta‘minlagan tasviriy omillar, adiblarning mahorati, uslubini aniqlashga e‘tibor qaratiladi. O‘quvchilarda tahlil malakasini shakllantirish, har bir matn bo‘yicha o‘zining fikri bo‘lishiga erishish ko‘zda tutiladi. Shuningdek, ularda insonning ichki olami, murakkab tuyg‘ulari, nozik kechinmalari tasvirlangan asarlarga qiziqish paydo bo‘ladi.

5-7-sinflarda bolalarga xos biologik, psixologik va pedagogik xususiyatlar hisobga olingandagina samaraga erishish mumkin. Ularning g‘oyat qiziquvchan, beriluvchan, ayni vaqtda diqqatini bir narsada uzoq to‘xtatib turolmaydigan, e‘tibori tez bo‘linadigan o‘smirlar ekani yodda tutilishi lozim. Bu yoshdagi bolalarda xotira kuchli bo‘lgani holda diqqatning juda oson va tez chalg‘ish xususiyatiga egaligi, bu yoshdagi o‘smirlar ertangi kunni tasavvur qilolmaganliklari uchun ularning e‘tiborini bir nuqtaga yo‘naltiradigan stimulyator mavjud emasligi singari omillar o‘smirlarning o‘qish jarayonini bir muncha og‘irlashtirishi ko‘zda tutilishi zarur. Ilk o‘zbek metodist olimlaridan Subutoy Dolimov o‘qitishga umuman emas, balki turli sinflardagi o‘quvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda konkret yondashish kerakligini ta‘kidlaydi: ***“O‘rta maktab o‘quvchilari yosh jihatdan ikki bosqichga: o‘rta yoshdagi (12 yoshdan 15 yoshgacha) bolalar va katta yoshdagi (15 yoshdan 18 yoshgacha)***

*bolalarga bo‘linadi. Bu yoshdagi bolalarning qiziqishlari, his-tuyg‘ulari, diqqatlari, xotiralari, xarakterlari xilma-xil bo‘ladi va bir-biriga o‘xshamaydi*⁴, – deb yozadi u. Garchi S. Dolimov o‘quvchilarni yosh va ruhiy o‘ziga xosliklarga ko‘ra guruhlash lozimligini ta’kidlagan birinchi zamonaviy o‘zbek olimi edi. Olim o‘smirlarning o‘z ichlarida ham yoshga bog‘liq turli ruhiy-jismoniy bosqichlar bo‘lishini ko‘zda tutib ish yuritgan o‘qituvchigina o‘z faoliyatida ijobiy natijaga erishishi mumkinligini ilmiy tadqiqotlarida qayta-qayta ta’kidlaydi.

S. Dolimov o‘quvchilarning yosh va ruhiy belgilarini hisobga olmaslik ta’lim kechimi uchun salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligini aniq misollar asosida ko‘rsatib beradi. Olim bundan yarim asrcha oldin ta’limda aniq yoshdagi, o‘ziga xos o‘quvchini ko‘z oldiga keltirib tadbir belgilanmasa muvaffaqiyatga erishib bo‘lmamasligini ko‘rsatib bergan edi. U inson turli yoshda turlicha ruhiy-intellektual imkoniyatlarga ega bo‘lishi bois bir asarni turli vaqtda turlicha qabul etishi mumkinligini o‘z vaqtida: *“Kitobxonlar bir turdagi asarlarni xilma-xil idrok etadilar. Asardagi obrazlar ham kishilarning yoshiga qarab ta’sir etadi”*⁵, – deya tushuntirgan edi.

Yosh psixologiyasiga doir bilimlarni chuqur egallagan olim turli yoshdagi o‘quvchilar orasida farqlar borligini qayd etish bilangina cheklanib qolmay, bu o‘zgachaliklar nimadan iborat ekanligini ham ko‘rsatib beradi: *“V–VI sinflarning o‘quvchilari ...asarda ishtirok etuvchi qahramonlarning hayotiga, boshidan kechirgan voqealariga ko‘proq qiziqadilar, ammo asarning badiiy xususiyatlari, yozuvchining yashagan davri va sharoiti, uning tarjimai holi bu sinf o‘quvchilarini uncha qiziqitirmaydi”*⁶. Olim turli sinfdagi o‘quvchilar ruhiyatida ro‘y beradigan ruhiy-jismoniy kechimlar tadrijini sichkovlik bilan kuzatadi. Ularning universal qirralarini nozik ilg‘aydi va undan qanday badiiy asarlarni o‘qitishda foydalanishning to‘g‘ri yo‘llarini tavsiya etadi: *“VII–VIII sinflarning o‘quvchilari insoniy xarakterga asta-sekin qiziq boshlaydilar, ularni bir xil chiroyli ifodalar bilan tasvirlash*

⁴ Долимов ва бқ. Адабиёт ўқитиш методикаси. –Т.: “Ўқитувчи”, 1967. 15-бет.

⁵ Долимов ва бқ. Адабиёт ўқитиш методикаси. –Т.: “Ўқитувчи”, 1967. 53-бет.

⁶ Долимов ва бқ. Адабиёт ўқитиш методикаси. –Т.: “Ўқитувчи”, 1967. 57-бет.

qiziqitirmay qo'yadi, ular endi xilma-xil sifat va xislatlarga ega bo'lgan xarakterlarni o'rganishga intiladilar. Bu sinflarning o'quvchilari yozuvchiga va uning turmushga bo'lgan munosabatiga ham qiziqadilar"⁷. Olimning bu qarashlari darsni pedagogik maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish uchun turli sinflarda turlicha didaktik tadbir qo'llash kerakligini anglatadi. Ko'rinadiki, o'qituvchi o'quvchilarning yosh xususiyatlari va ruhiy taraqqiyotlaridagi o'ziga xosliklarni hisobga olgandagina uning faoliyati samara keltiradi. Ayniqsa, 5-sinf o'quvchisi ertaklar olamiga yaqin ekanligini, tabiat hodisalaridan tortib barcha jonzoatlarning, hatto borliq-olamning odam yoki boshqa biror jonliq tarzida tasavvur etilishi tabiiy holdir. Bu sinflarning o'quvchilari uy-ro'zg'or buyumidan tortib, turli jihozlar, kiyim-kechaklar xuddi odam kabi harakat qilib, insonday so'zlashi tasvirlangan multfilmlarni ko'rib ulg'aygan. Demak, bu sinflarda o'rgatilishi lozim bo'lgan adabiy materiallar ham shunga yarasha, ertak va multfilmlarning davomi kabi bo'lgani ma'quldir.

5-7-sinflarda o'rganish uchun materallarni tanlash va tizimga solishda asar tilining soddaligi, voqeabandligi, syujet rivojining shiddatkorligi va oson esda qolishi kabi jihatlar hisobga olinishi zarur. O'quvchilarning yoshlari ulg'ayib, hayotiy, aqliy va hissiy tajribalari ortib borgan sari ularga beriladigan adabiy materiallar ham murakkablashib boradi. 5-sinf o'quvchilari uchun folklor materiallari bir muncha keng o'rganilishi maqsadga muvofiq. Chunki ertaklardagi syujet liniyasining sertarmoqligi, qahramonlar taqdiri tasvirining o'smirlar tushunchasiga yaqinligi, ruhiy holatiga mosligi bilan o'quvchilarga ta'sir qiladi va ularni ezgu insoniy sifatlar egasi bo'lishga undaydi. Bunday asarlar ijodiy muhit yaralishiga, kreativlik, keng xayolot olami shakllanishiga ta'sir qiladi.

6-sinfdagi bolalar ham o'ziga xos ruhiy-jismoniy xususiyatga egadirlar. Bu yoshda o'quvchilar mustaqil ko'rinishga, tavakkalchi sifatida qarorlar qabul qilishga intilishadi. Ular bilan asarlar tahlilida ham shu xil sifatlar hisobga olinishi zarur. Shuningdek, bu yoshdagi

⁷ Долимов ва бк. Адабиёт ўқитиш методикаси. –Т.: “Ўқитувчи”, 1967. 57-бет.

o'smirlarda hissiyot, sezimlar tarbiyasiga ham alohida e'tibor zarurligidan ruhiyat manzaralari aks ettirilgan, bir o'qishda tushunilishi og'ir bo'ladigan asarlar bilan tanishtirib borish ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

7-sinfдан boshlab bolalarda badiiy asarni, undagi obrazlarni tahlillash ko'nikmalari takomillashib boradi. Bu davrda mumtoz adabiyot namunalaridan foydalanish ham o'rin berish foydali bo'ladi.

5-7-sinflarda saboqlar o'quvchilarda mustahkam axoqiy sifatlari qaror toptirish, ularni badiiy so'z go'zalligidan ta'sirlanadigan, uni qo'llashga intiladigan qilib tarbiyalashga qaratiladi. Bu sinflarda asosiy e'tibor adabiy asarni o'qish asnosida o'quvchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishga qaratiladi. Agar 5-7-sinflarda bolalarda badiiy asarga qiziqish uyg'otilmasa, undan keyingi sinflarda o'quvchilarning kitobxon bo'lib yetishishlari, kitobni gumon.

10-14 yoshlarda bola o'ta qiziquvchan, kattalarga taqlidchan bo'lishadi, kattalarday bilimdon, aqlli, so'zamol, kuchli ko'rinishni istashadi. O'qituvchi bolalardagi mana shu xususiyatdan foydalanishi, ularning kuchini badiiy asar o'qishga, munosabat bildirga olishga, tuyishga yo'naltirga bilishi, shu yo'lgina katta, kuchli, bilimdon, aqlli bo'lishga olib borishiga kichik o'smirlarni ishontirga bilishi zarur.

8-9-sinf o'quvchilarida analitik fikrlash kuchliroq bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'zlariga tashqaridan qarashga urina boshlashadi. Binobarin, bu sinflardagi o'quvchilarga ruhiy tug'yonlar, nozik hissiyotlar aks etgan asarlarni tavsiya etish mumkin. Ayni vaqtda, ular olamni tizimli tushunishga, har bir hayotiy hodisaning boshi va oxiri borligi, ularni sabab-oqibat munosabatlari doirasida anglash lozimligini bilishadi. Shuning uchun ham bu yoshdagi o'quvchilarga o'rgatilishi kerak bo'lgan badiiy asarlar bir qadar murakkablashib, ularning zamiridagi ma'noni ilg'ash uchun o'quvchilardan bir qadar aqliy va hissiy zo'riqish talab etiladi.

Ushbu bosqichda yozuvchilarning umrbayoniga e'tibor birmuncha ortadi. Chunki bu yoshdagi o'quvchilar ijodkor shaxsi va uning hayot tarzi bilan uning uslubi o'rtasidagi bog'liqlikni bir qadar anglay

boshlashadi.

O'rta maktab bosqichi (10-11-sinflar). Odam umrining bu davri 16-18 yoshlarni o'z ichiga oladi. Bu yoshda o'z-o'zini anglashi, o'z hayoti va mehnat faoliyati yo'nalishini tanlab olish jarayoni ro'y beradi. Shaxs sifatida uning jamiyatda, jamoada, ijtimoiy munosabatlar tizimida tutgan yangi maqomi ta'sirida shakllanadi. Asosiy ijtimoiy faoliyati o'qish va foydali mehnatdan iboratdir. O'spirinlar uchun qiziqishlar kengligi, hayotiyliigi va turli-tumanligi xos. Ularning bilish, o'rganishga qiziqishlari qat'iy, turg'un va amaliy xususiyatga ega bo'ladi. O'spirinlarda aqliy faoliyat mustaqil va ijodiy xarakter kasb eta boshlaydi. Shuning uchun ham o'spirinlik shaxsning keyingi hayot yo'lini tayin etishda eng muhim va hal qiluvchi bosqichdir.

Shuning uchun ham o'spirinlar o'qiydigan, mehnat qiladigan muhitning ma'naviy jihatdan beg'ubor va shaxs kamolotiga yo'naltirilgan bo'lishi g'oyat muhimdir. O'spirinlar o'zlari tanlagan ma'naviy o'lchovlar, qadriyatlar tizimiga muvofiq yashashga urinishadi. Shuning uchun ham kattalardan ularning ma'naviy-axloqiy qiyofalari shakllanishiga alohida e'tibor talab qilinadi. O'spirinlarda tuyg'ular rang-barangligi va teranligi kuzatiladi. Ular salbiy holatlarni og'ir kechiradilar, adolatsizlik, nohaqlik singari ko'rinishlarga murosasiz bo'lishadi va bundan kuchli ta'sirlanishadi. O'spirinlar hayotida badiiy-estetik va intim tuyg'ular katta o'rin tutadi. Ayniqsa, ular uchun sevgi tuyg'usi katta ahamiyat kasb etadi. Agar o'spirinlarda bu sezim to'g'ri shakllantirilgan bo'lsa, ularning hayot yo'llari ravon bo'lishi, aksincha esa, o'zlarining ham, o'zgalarning ham hayotini izdan chiqarishi mumkin. O'spirinlarni yuksak tuyg'ularga ishonch va ularning tozaligini saqlashga odatlantirish muhimdir.

O'spirinlarda do'stlik tuyg'usi chuqur ildiz otganidan do'st va do'stlikka tashna bo'lishadi. Shuning uchun ham bu davrda tengqurlar orasidagi munosabatlar o'smirlikdagiga qaraganda anchagina mustahkam va doimiy ko'rinish kasb etadi. O'spirinlik kuch-quvvat to'lib-toshgan, intilishlar chegara bilmaydigan, inson romantik xayollar og'ushida yashaydigan davrdir. Ular qahramonliklar ko'rsatishga, ko'pchilikning e'tirofi va e'tiborini qozonishga intilib yashashadi.

O'spirinlarda o'z-o'zini anglash kuchli bo'ladi. Ular o'z-o'zini anglashdan o'z-o'zini tarbiyalash bosqichiga o'tishga qobil bo'lishadi.

Bu yoshidagi o'quvchi o'zidagi jismoniy, ruhiy va intellektual xususiyatlarga mos keladigan Badiiy adabiyot bilan tanishtirib borilsa, ularda ezgu shaxslik sifatlari shakllanishi tezlashadi. Shuningdek, bu bosqichda o'zbek va ochun adabiyotining o'zlashtirish unchalik oson bo'lmagan namunalari bilan tanishish o'spirinlar kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu bosqichdagi o'quvchilarni o'rgatlayotgan badiiy asarlarning ko'rkamlilik jihatlarini ilg'ashga, bitiklar zamiridagi tagma'nolarni anglashga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. O'spirinlarni dasturda ko'zda tutilgan asarlar bilangina emas, balki hozirgi adabiy jarayon bilan ham tanishtirib borish, ma'naviy ehtiyojlariga mos keladigan ko'rkam yangiliklardan ularni xabardor qila bilish katta ahamiyatga egadir.

O'spirinlar ijodkorlar umryo'liga doir ma'lumotlar bilan o'rganilayotgan asar o'rtasidagi aloqani anglay biladilar. Shuningdek, bu yo'nalishdagi ma'lumotlarni o'zlashtirish o'qilayotgan ko'rkam bitikni tushunishga yordam berishi mumkinligini anglab yetadilar. Bu o'quvchilarga bola sifatida emas, balki tengdosh, fikrdosh odam sifatida munosabatda bo'lish saboqlarning muvaffaqiyatiga omil bo'ladi.

Bugungi kunda har qanday yoshdagi o'quvchilarda o'z fikrini bildirish, mustaqil qarashini bayon etishga kuchli ehtiyoj borligini hisobga olgan holda adabiy materiallarning tayyor talqinlarini bermay, matn bilan tanishgan har bir o'quvchining o'z fikrini aytishiga imkon qoldirishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda ularning kreativligi oshib tafakkuri o'sadi.

2.2.O'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish

Fikrning mustaqilligi uning sermahsulligi, samaradorligi bilan uzviy bog'liq. Agar inson tomonidan muayyan vaqt ichida ma'lum soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, g'oyalar, tavsiyalar yaratilgan, nazariy hamda amaliy vazifalar hal qilingan bo'lsa, bunday fikr sermahsul, samarali hisoblanadi. Ma'lum vaqt oralig'ida mustaqil ravishda bajarilgan aqliy ish ko'lami va sifati (ishning pishiqligi, asoslarning

kuchliligi) – tafakkur mustaqilligi darajasini o‘lchash mezonini bo‘lib xizmat qiladi.

Ish jarayonida inson aqlining faoliyati uning o‘zi tomonidan kuzatilmaydi. O‘quvchilarda fikrlashning mustaqilligi darajasini nazorat qilish, uni farqlash hamda rivojlantirish o‘qituvchining vazifasi. Buning uchun o‘qituvchidan ziyraklik, ta’lim jarayonining har bosqichida har bir o‘quvchi shaxsi, intellektual imkoniyatlari, intilish va qiziqishlarini bilish talab qilinadi. O‘smir yoshidagi bolalarga xos bo‘lgan faoliyatga moyillik, ishtiyoqning zo‘rligi, mustaqillikka intilish shaxslik shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktab davrida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda adabiy ta’lim o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ma’lumki, boshqa o‘quv fanlari bo‘yicha o‘tiladigan darslardagi izlanishlar natijasida o‘quvchilar avvaldan ayon bo‘lgan yagona xulosaga kelishadi. Masalan: to‘qqiz karra to‘qqiz dunyoning hamma burchagida, qaysi tilda, qanday yo‘llar bilan yechilishidan qat’iy nazar, natija, to‘g‘ri javob bitta – sakson bir. Bu mutaxassislar tomonidan qat’iy belgilab qo‘yilgan haqiqat-xulosa. Yoki ona tili darslarida “kim?”, “nima?” so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘z turkumi hamisha ot deyilishi qabul qilingan. O‘quvchilar gapning morfologik tahlili jarayonida qanday misol berilishidan qat’iy nazar, bu so‘roqlarga javob bergan so‘zlarni ot ekanligini aniqlaydilar. Bu ham avvaldan aniqlab qo‘yilgan yagona haqiqat. Ammo adabiy ta’limning o‘ziga xosligi shundaki, unda har bir o‘quvchi o‘z oldiga qo‘yilgan muammoni tegishli maqsad va vazifalarini belgilagan holda bilimi, hayotiy tajribasiga tayanib turli yo‘l, usul, vositalar yordamida mustaqil ravishda hal qilib, faqat o‘zining badiiy haqiqatini chiqarishi mumkin.

Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchi tafakkuri mustaqilligiga erishish uchun o‘qituvchidan o‘quvchilarni darslikda berilgan tushuncha-yu xulosalarning to‘g‘riligini tekshirish va dalillashga, bu yo‘lda eng qulay usul va metodlardan foydalanishga, har bir narsa-hodisa yuzasidan mustaqil fikr yuritishga, vaziyatga ijodiy yondashishga, birovlariga, hattoki o‘qituvchisiga ham, yoqish-yoqmasligidan qat’i nazar, o‘z fikrini aytishga o‘rgatish talab qilinadi.

Muallim tarbiyalanuvchilarni mantiqiy fikr yuritish usullari bilan tanishtirib borishi; qolipda fikrlashga yo‘l qo‘ymasligi, nafaqat darslik mualliflari, balki o‘rtoqlarining fikr-mulohazalarini takrorlamaslikka, ijodiy izlanishga yetaklashi; o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularning aqliy imkoniyatlarini ishga sola bilishi; har bir o‘quvchi oldiga o‘ziga xos muammoni qo‘ya olishi va uni yechishga yo‘naltirishi; uchraydigan qiyinchiliklarni yengishga odatlantirishi zarur.

Adabiyot darslarida o‘quvchilarni matn bilan ishlashga o‘rgatishda ular bilan asar haqida suhbatlashish, ularni asar matnidan javob izlashga majbur etadigan savollar berish, bu savollar yordamida o‘quvchini asar mohiyatiga olib kirish, undagi tasvir haqida ongli ravishda, to‘la ishonch bilan ma’lum xulosalarga kelishga ko‘maklashish juda muhim. Badiiy asar tahlili jarayonida asarning mazmun va shakli orasidagi aloqani nazardan qochirmaslik, unda aks etgan shaxs bilan jamiyat orasidagi munosabatga e’tibor qaratish darsning samaradorligini ta’minlaydi.

O‘quvchilarda matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati katta. Quyida innovatsiya, innovatsion texnologiyalar haqida batafsil nazariy ma’lumotga ega bo‘lamiz.

Inson mehnat faoliyatining har qanday tarmog‘i uchun o‘zgarish va yangilanishlar – xos. Ayni shu jihat bashariyatning taraqqiyotini ta’minlaydigan omildir. Hayotning har qanday sohasidagi yangilik o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi, balki alohida iste’dodli odamlar yoki yangilik yaratish yo‘lida birgalikda mehnat qiladigan jamoalarning izlanishlari natijasida yuzaga keladigan hodisadir. Tinimsiz o‘zgarish va yangilanishlardan iborat globallashtayotgan dunyo bu jarayonni tashkil etish, boshqarish va kishilik manfaatiga yo‘naltirishni taqozo qiladi. Bu hodisa ilm tilida innovatsiya, deb ataldi.

“Innovatsiya” tushunchasi lotinchadan tarjima qilinganda **“yangilik, yangilanish, o‘zgartirilish”** ma’nolarini anglatadi. Atama “ichida”, “o‘zida” ma’nolaridagi lotincha **in** va yangilik ma’nosidagi **novatsiya** so‘zlari birikmasidan paydo bo‘lgan. Ushbu tushuncha ilk marta Kunbotish mamlakatlari ilmida XIX yuzyillikda qo‘llanila boshlab, bir millat madaniyatiga boshqa bir xalq madaniyatidan kirib kelgan va bu

xalq uchun yangilik hisoblanadigan narsa-hodisani anglatgan. XX asrning boshlarida esa Botish yurtlarida hayotda paydo bo'lgan texnik yangiliklarni ommaga o'rgatish va yoyish bilan shug'ullanishni maqsad qilgan "*innovatika*" deb atalgan yangi fan dunyoga kelgan.

Innovatsiyalar hayotning qaysi tarmog'iga yo'naltirilishiga qarab a) ijtimoiy-iqtisodiy; b) tashkiliy-boshqaruv; v) texnik-texnologik singari uch turga bo'linadi. Pedagogik innovatsiyalar ijtimoiy innovatsiyalarning bir tarmog'i sanaladi.

Pedagogik kechimga nisbatan innovatsiya tushunchasi ta'lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni, usul va shakllari, o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish kabi jarayonlarga kiritilgan yangiliklarni anglatadi. Pedagogika fanining kategorial apparatidan joy olgan "ta'limdagi innovatsiya" va "pedagogik innovatsiya" atamaları sinonim sifatida qo'llaniladigan tushunchalardir.

Pedagogik innovatsiya – ta'lim va tarbiyaning samaradorligini oshirish niyatida uning maqsadi, mazmuni, texnologiyasi hamda tashkil etilish yo'siniga kiritilgan yangiliklarni anglatadi. Pedagogik innovatsiya deyilganda, ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llansa, samara keltirishi mumkin bo'lgan yangilikni yaratish, sinab ko'rish, unga xos asosiy jihatlarni o'zlashtirish, amaliyotda qo'llash va yoyishga qaratilgan kompleks faoliyat tushuniladi.

Adabiyot darslarida badiiy asarlar tahlili yuzasidan o'tkaziladigan ijodiy ishlarda pand-nasihat, didaktik ahamiyatiga e'tibor qaratilsa, tafakkur rivojining samaradorligi yuqori bo'ladi. Shaxsning atrofdagilar bilan munosabatda bo'lishiga hamkorlikdagi ta'lim, munozara, muzokara hamda musobaqalar tashkil qilish qulay sharoit yaratadi. O'quv masalalari va topshiriqlar yechimining samarali yo'llarini birgalikda izlanish hamda tadqiqot ishlarida o'zaro hamkorlikni ta'minlaydi, bir-biriga do'stona yordam ko'rsatish uchun sharoit yaratadi, ularda mas'uliyat hissini oshiradi. O'qish uchun tanlangan asarlar har bir sinfda material hajmi hamda mazmun jihatlari ko'ra bir-biridan farq qilishi zarur. Ta'lim mazmunidan kelib chiqib o'quvchilarning ruhiy (psixologik) xususiyatlari va imkoniyatlarini inobatga olish zarur. Bunday mashg'ulotlarda onglilik va ijodiy faollik

muhim ahamiyat kasb etadi. Asarlar tahlilida izchillik va ketma-ketlik, uzviylik va uzluksizlikka erishilsa o'quvchilarning tafakkurini, mantiqiy fikrlashini, ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi. Adabiyot fanini o'qitishda qo'llanilayotgan ko'plab zamonaviy metod, pedagogik texnologiyalarning asosiy maqsadi ham o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish, tafakkurini o'stirishdan iborat. Kvest texnologiyasi ham yuqoridagi fikrlarimiz isbotidir.

“Kvest” yoki “Sarguzasht o'yini” (transliteratsiya. Inglizcha Quest - qidiruv, Adventure - sarguzasht) - bu syujet bo'ylab oldinga siljish uchun ishtirokchidan ruhiy muammolarni hal qilishni talab qiladigan o'yinlarning asosiy janrlaridan biridir. Syujet oldindan belgilanishi yoki ko'plab natijalarni berishi mumkin, Ularning tanlovi o'yinchining harakatlariga bog'liq. Sinfda kvest loyihalarini qo'llash muvaffaqiyatli samara beradi. Kvest texnologiyasi faol o'qitish usullaridan biridir. Kvest – dars ham guruh, ham individual ish uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

“Kvest” texnologiyasini intellektual o'yin turi deb, ta'riflash mumkin, uning jarayoni maxsus tayyorlangan xonada bo'lib o'tadi. Bunda berilgan vazifalarni hal qilish orqali fanni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun, “Kvest” texnologiyasi maktab o'quvchilari, talabalar, yoshlar uchun qiziqarli ta'lim texnologiyasi hisoblanadi. Kvest texnologiyasi – bu o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishning muammoli shakli, o'qitishning muammoli, tadqiqot, o'yin va axborot kommunikatsiya usullarini integratsiyalash, maqsadli qidirishni birlashtirish, sarguzashtlar va (yoki) bosqichma-bosqich topshiriqlarni bajarishga asoslangan hamda o'quvchi-talabaning o'zini-o'zi tarbiyalash va rivojlantirishga imkon beradi. Shuningdek, “Kvest” texnologiyasi muammoli vaziyat bo'lib, uni hal etish jarayonida ta'lim oluvchining yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydilar.

6-sinf adabiyot darsligida Rey Bredberining “Bir kunlik yoz” hikoyasi berilgan bo'lib, quyida ushbu mavzuni Kvest texnologiyasi asosida tashkil etishni ko'rib chiqamiz. Ushbu texnologiya sinfda bitta guruh bilan birga yoki ikkita guruh (bunda materiallar har bir guruh uchun alohida tayyorlanishi kerak) o'rtasida musobaqa tarzida

o‘tkazilishi mumkin. Bunda sinf doskasi, ko‘rgazmali qurollar (rasmlar, rebus, yomg‘ir tomchilari tasviri, tilla tanga shaklidagi shokoladlar) dan samarali foydalanish mumkin. Dars davomida doskada rasmlar va boshqa ko‘rgazmali qurollardan foydalaniladi, shuningdek, ular o‘quvchilarga savol va topshiriqlarga to‘g‘ri javob topib, keyingi bosqichga o‘tishiga yordam beradi. Har bir savolga to‘g‘ri javob topish keyingi bosqich (navbatdagi savol) ga o‘tish imkoniyatini beradi. Bunda javoblar bilan doskadagi ko‘rgazmali qurollar o‘rtasidagi mantiqiy izchillik, uzviylikni topish ahamiyatlidir.




1-rasm (rebus)



2-rasm



3-rasm



4-rasm



5-rasm

Dastlab o‘quvchilarga Rey Bredberining “Bir kunlik yoz” hikoyasida Zuhro sayyorasiga qanday ta’rif beriladi? deya savol beriladi. O‘quvchilarga ushbu savolga jabob berishda ko‘rgazmali qurollardan foydalanish tushuntiriladi. Asarni mutolaa qilgan o‘quvchilar savolning javobi “yomg‘irlarga asir bo‘lgan” ta’rifi ekanligini angelaydi. Bunda o‘quvchilarga doskadagi yomg‘ir tomchilari tasviri ham yordam beradi.

Keyingi savol aynan shu yomg'ir tomchilaridan birida bo'ladi. Unda quyidagi savol bo'ladi: U shu qadar zaif ediki bir paytlardagi chiroyini mana shu yomg'irlar yuvib ketgan deya kimga ta'rif berilgan? (3-rasm) Bu savolning javobini topish o'quvchilardan mantiqiy fikrlashni talab etadi. Savolning javobi bosh qahramon – Margo. Doskada tasvirlangan rebus (1-rasm)da to'g'ri javob ifodalangan, ya'ni rebusda tasvirlangan har bir predmetning birinchi harfi birlashtirilganda Margo ismi paydo bo'ladi. Rebusni to'g'ri topish orqali o'quvchilar keyingi savol va topshiriqlarga o'tishadi. Keyingi savol rebus ortida bo'lib, quyidagicha: Margo va uning oilasi Yer sayyorasidan Zuhro sayyorasiga necha yil oldin ko'chib kelishgan edi? Zukko o'quvchilar bu savolga javob topishda qiyinchilikka duch kelishmaydi, bunda ularga ko'rgazmali qurollar qo'l keladi. To'g'ri javob – 5 yil. Doskadagi 5 soni ortida esa quyidagi savol mavjud bo'ladi: Bolalar bir joyda tinmay aylanishar, faqat Margo yolg'iz o'zi bir chetda qaqqayib turardi. Nuqtalar o'rniga asarda bolalarning harakatiga nisbatan qo'llangan o'xshatishni toping. Ushbu savolga javob topish o'quvchilardan diqqat va sinchikovlikni talab etadi. Javob – charxpalak. Charxpalak tasviri ortida esa hal qiluvchi so'nggi savol bo'lib, u o'qib eshittiriladi. Oftob qanday rangda, tafti qanchalik issiq Margoning yodida edi. Margo sinfdoshlariga u haqida hikoya qilar ekan oftobni nimaga o'xshatadi? Savolning javobi oltin tanga hisoblanadi. To'g'ri javob topgan jamoa a'zolari oltin tanga shaklidagi shokoladlar bilan mukofotlanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, adabiyot o'qitishda Kvest texnologiyasidan foydalanish yaxshi samara beradi. Qiziqarli syujetga ega bo'lgan kvestlar o'quvchilarning o'tilayotgan mavzuga, asarga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Bu texnologiya o'quvchilar bilimini oshirish, o'rgangan bilimlarini mustahkamlash bilan birga, ularni mantiqiy ketma-ketlikda, izchil o'rganish, asar va uning tahlili yuzasidan mushohada yurtishga o'rgatib, shuningdek ulardagi topqirlik, ziyraklikni shakllantiradi. Eng muhimi o'quvchilarni guruh bo'lib ishlash, jamoaviy faoliyatga o'rgatadi.

2.3. Adabiyot darslarida badiiy asar tahlili metodikasi

Maktab o'quvchilarining matn yaratish kompetensiyalarni

shakllantirishda eng muhim pedagogik yumush badiiy asarni tahlil qilishdir. Badiiy asarni to'g'ri idrok qiladigan, uni tushunadigan, ta'sirlanadigan va tahlil qila biladigan o'quvchini tayyorlay olgandagina maqsadga erishish mumkin bo'ladi. Chunki dasturda o'rganish ko'zda tutilgan adabiy materiallarni shunchaki o'qib ketaverish bilan adabiyot darsi yuzaga kelmaydi. Yoshi kichik va orttirgan hayot tajribasi juda kam, badiiy didi yetarli shakllanmagan o'quvchilar badiiy asarni mutlaqo teskari tushunishlari ham mumkin. Shu bois badiiy asar tahliliga katta e'tibor zarur. Busiz bolalarda ezgu ma'naviy sifatlar turg'un qaror topmaydi. Umumta'lim maktablari adabiy ta'limida badiiy asarning tahlil: a) **ilmiy – filologik** tahlil; b) **o'quv –didaktik** tahlil singari ikki katta turga bo'linadi.

Didaktik tahlilni uyushtirishning nazariy asoslarini belgilashdan oldin o'quv tahlilining ilmiy tahlildan farqini aniqlab olish zarur bo'ladi. Jumladan, didaktik tahlil ham badiiy asarni kashf etishga, muallifning niyatini anglashga, asar jozibasini ta'minlaydigan jihatlarni aniqlashga qaratilgan bo'ladi. O'quv tahlili bir qator qirralari bilan filologik tahlildan muayyan darajada farq qilsa-da, unga zid tushuncha emas. Har qanday didaktik tahlil ilmiy tahlil darajasiga ko'tarilishga intiladi va unga yetganda o'quv tahlilidan ko'zda tutilgan maqsadga to'liq erishilgan bo'ladi. Ayni vaqtda, badiiy asarni didaktik tahlil qilish ilmiy filologik tahlil etishdan jiddiy farq qiladi.

O'quv tahlili ilmiy tahlil singari faqat bir kishining ilmiy-estetik faoliyati bo'lib qolmay, balki jamoa tomonidan amalga oshiriladigan pedagogik jarayondir. Pedagogik maqsadga yo'naltirilganlik didaktik tahlilning asosiy belgisi bo'lgani va pedagogik tadbirlar kamida ikki kishi tomonidan yuzaga keltiriladigan yumush bo'lgani uchun didaktik tahlilni kollektiv faoliyat deyish mumkin. Agar filologik tahlil, asosan, yolg'iz olimning aqliy faoliyati natijasi bo'lsa, o'quv tahlili o'qituvchining o'quvchilar bilan bevosita muloqoti mobaynida amalga oshiriladigan tadbirdir. Didaktik tahlilning ishtirokchilari ko'proq bo'lishadi va barcha aqliy-estetik operatsiyalar qatnashchilarning imkoniyat hamda saviyasi ko'zda tutilgan holda amalga oshiriladi.

O'quv tahlilidan maqsad badiiy asarning to'g'ri qabul qilinishini

ta'minlash orqali o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlar shakllantirishdan iboratdir. Didaktik tahlilning vazifalari badiiy asarning o'ziga xosligi, jozibasi va ta'sir qilish sabablarini aniqlash yo'li bilan bolalarda ta'sirchan qalb, hassos tuyg'ular, sog'lom estetik did, ravon va ifodali nutq shakllantirishdan iboratdir. Shunga ko'ra o'quv tahliliga adabiy asar matnining hayotiy va badiiy mantig'i hamda estetik jozibasini kashf etish orqali o'quvchilarda barkamol shaxsga xos ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik faoliyat, deya ta'rif berish mumkin.

O'quv tahlili ko'proq shaxslik xususiyatlariga tayanadi va shuni hisobga oladi, chunki u hech qachon bir kishi tomonidan, bir kishi uchun qilinmaydi, balki bir necha odam ishtirokida bevosita amalga oshiriladi va tahlil qatnashchilarida muayyan shaxslik fazilatlarini paydo qilishga yo'naltiriladi. Buning uchun didaktik tahlilda o'quvchilarning hissiyotlar olamiga ta'sir ko'rsatish kerak bo'ladi. O'quvchilar o'z hissiyotlariga daxl qilmagan narsaga loqayd bo'lishadi. Ularning hissiyotiga ta'sir qilgan asar ichiga kiradi, uning qahramonlari bilan birga "yashay" boshlashadi. Hissiyotga tayanib qilingan tahlil tufayli o'quvchilar badiiy matnga ruhiy ko'z bilan qaraydigan bo'lishadi. Ular oddiy yozuv belgilari zahiriga ulkan insoniy taqdir, ta'sirchan tuyg'ular, hadsiz fojia va quvonchlar yashiringanligini his etishadi. His etish ularni kashf qilishga, kashf etish esa, rivojlanishning yangi bosqichlari sari undaydi.

Didaktik tahlil ilmiy tahlildan farq qilib, mantiqiy sillogizmlarning o'zigagina tayana olmaydi. Negaki o'quv tahlilida hamisha konkret yoshdagi, muayyan sinfdagi o'ziga yarasha hayotiy tajriba va bilimga ega bo'lgan o'quvchilar bilan faqat muayyan vaqt oralig'ida, belgilangan joyda ish ko'riladi. Aytilganidek, o'quv tahlili vaqt jihatidan ham cheklangan bo'lib, doimo bir dars mobaynida amalga oshirilishi lozim estetik-mantiqiy operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Shu ma'noda, o'quv tahlili pedagogik tadbir hisoblanadi. Badiiy asarning cheklanmagan, adog'i yo'q go'zalligi bilan ish ko'rayotgan adabiyotchi o'quvchilardagi aqliy va hissiy imkoniyatlar cheklanganligi, ruhiy holari yosh xususiyatlari bilan uzviy bog'liqligi bilan hamisha hisoblashishga majbur bo'ladi. Shu o'rinda ruhshunos olimlarning hamda taniqli

adabiyotshunos Q.Yo‘ldoshevning adabiy asarlar bilan ishlashda sinflar kesimida olib olib borgan tadqiqotlarini keltirish o‘rinli deb bildik.

Badiiy asarni didaktik tahlil etish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati uch yo‘nalishda uyushtirilishi mumkin. Bu hol o‘quv tahlilining uch turini keltirib chiqaradi. Birinchi yo‘nalishda adabiyot o‘qituvchisi faqat badiiy matnga suyanadi va uning ichki tartibiga daxl qilmagan holda asar zimnidagi ma’noni, jozibani o‘quvchilarga ko‘rsata boradi. Bu yo‘nalish matnga yoki muallifga ergashib tahlil qilish yoxud tekstual tahlil deyiladi va bunda o‘qituvchi ko‘proq tahlil kechimining boshqaruvchisi, yetakchisi sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Ikkinchi yo‘nalishda o‘qituvchining e’tibori asar personajlariga qaratiladi va badiiy ma’no obrazlar ruhiyatini anglab borish jarayonida tabiiy ravishda kelib chiqadi. Yozuvchining san’atkorlik mahorati ham badiiy obrazlarning qanchalik jonli va ta’sirchan ishlanganligini idrok qilish asnosida ochib boriladi. Bu tahlil turi timsollar asosidagi tahlil deyiladi va unda o‘quvchilarning ham faol ishtirok etishlariga imkoniyat bo‘ladi.

Uchinchi yo‘nalishda esa tahlil, asosan, o‘quvchilar tomonidan olib borilishi ko‘zda tutiladi. O‘qituvchi talabalari oldiga muammo qo‘yadi va ularni bu muammoni yechishga yo‘llaydi. Asarni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar faqat oldin o‘zlashtirgan bilimlaridan foydalanibgina qolmay, bir qator yangi estetik-mantiqiy tushunchalarni o‘zlashtirib olishga majbur bo‘ladilar. Negaki ular izlanadilar, o‘zaro fikr almashadilar, bahslashadilar. Tabiiyki, bu jarayonda o‘quvchilarning ma’naviy olamida ham, aqliy dunyosida ham muayyan o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. O‘quv tahlilining bu yo‘nalishi muammoli tahlil deyiladi.

Tahlilning yo‘nalishlari bir-birini inkor qilmaydi. Adabiy ta’lim amaliyotida tahlilning uch yo‘nalishi deyarli hamisha aralash, qorishiq holda keladi. Tekstual tahlilni obrazlarga tayanmay turib amalga oshirib bo‘lmaydi. Muammoli tahlilni ham badiiy matnga asoslanmay bajarish mumkin emas. Har qanday muammo matndan kelib chiqishi, har qanday mustaqil fikr ham matnning sehr-u jozibasini ochishga xizmat qilishi joiz.

Tekstual tahlilda matnning maromini buzmaslik, muallif yurgan yo'lga, u o'rnatgan badiiy tartibga rioya qilish ustuvor bo'ladi, lekin tahlilning qolgan ikki turida ham badiiy matn asosiy o'rin tutadi. Shu ma'noda, har qanday tahlil mohiyat e'tibori bilan tekstual tahlildir. Chunki badiiy asar yuzasidan amalga oshiriladigan har qanday faoliyat faqat matnga tayanishi, matndan kelib chiqishi, uning jozibasini ochishga xizmat qilishi lozim. Shu sababli har qanday yo'nalishdagi o'quv tahlilini amalga oshirish uchun, albatta, o'quvchilar badiiy matn bilan yaxshi tanishgan bo'lishlari shart.

Muallifga ergashib yoki tekstual tahlil 5-8-sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda ko'proq qo'llaniladi. Ayniqsa, kichikroq hajmli she'riy va nasriy asarlarni didaktik tahlil etishda bu yo'nalish juda qo'l keladi.

Katta hajmli epik asarlar ko'proq yuqori sinflarda o'rganiladi. Bunday asarlarni tekshirishda timsolli tahlil usulidan foydalanish yaxshi samara beradi. Timsollarning o'quvchilar tomonidan o'z taqdiriga, o'ziga xos minazga ega tirik kishilar tarzida qabul etilishiga erishish kerak. Shundagina, bu timsollar tuygan tuyg'ular o'quvchilarga ham yuqadi, ularni ta'sirlantiradi, binobarin, tarbiyalaydi. O'quvchilarning badiiy timsollarni darhol ijobiy va salbiy guruhlariga ajratishlariga yo'l qo'ymaslik, har bir badiiy timsolning qarama-qarshi tabiatli kishi nuqtai nazaridan qanday baholanishi mumkinligiga e'tibor qaratish lozim. Hayotdagi odamlarni jo'ngina yaxshi va yomonga ajratish noto'g'ri bo'lganidek, badiiy timsollarni ham osongina ijobiy yoki salbiyga ajratib tashlash to'g'ri emasligi o'quvchilarga singdirilishi zarur. Hayotdagi har bir alohida odam yechimi topilishi mumkin bo'lmagan muammodir. Badiiy adabiyot ana shu adoqsiz muammoning qirralarini butun murakkabligi, jilvalari, soyalari va tovlanishlari bilan tasvir etish orqali o'quvchini o'zgani his etishga, o'ziga bevosita daxli bo'lmagan begona kimsaning dardini anglashga odatlantiradi. O'z tabiati yo'nalishi va adabiy ta'lim qo'ygan pedagogik vazifaning xarakteriga qarab, timsolli tahlil natijasida har bir o'quvchi ruhiyatida muayyan sifatlar hosil bo'ladi.

Badiiy asar muammoli tahlil etilganda, o'quvchilar badiiy va

hayotiy muammoni o'z tushuncha va tajribalaridan kelib chiqib hal etishga urinishadi. Muammoli tahlil puxta bo'lishi uchun o'quvchilar badiiy matn bilan yaxshi tanishibgina qolmay, uni to'liq hazm qilgan bo'lishlari ham kerak. Chunki faqat o'zlashtirilgan fikr fikr uyg'otadi, singdirilgan hissiyotgina tuyg'u qo'zg'atadi. Muammoli usul bilan tahlil etishda o'quvchilarni shunchaki bahsga tortish kerak emas, balki ularning butun kuchi badiiy matnning mag'zini ochishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Muammoli tahlil kutilgan samarani berishi uchun matnga sinfdagi o'quvchilar hayotiy tajribalari va egallagan bilimlari darajasidan kelib chiqib erkin yondasha olishlari zarur. Misol uchun, Sofoklning "Shoh Edip" asari muammoli yo'l bilan tahlil etiladigan bo'lsa, o'qituvchi bolalar oldiga: "Edip gunohkormi yoki aybdor?" tarzida savol qo'yishi va o'quvchilardan o'z fikrlarini faqat badiiy matnga tayangan holda asoslashlarini talab etishi mumkin. Gunoh, gunohkorlik, ayb va aybdorlik, qismat, halollik, mardlik, inson ma'naviyati singari tushunchalar atrofida fikr yuritish jarayonida o'quvchilar Edip shaxsining ulkan fojiasini yaqindan, bevosita, his etadilar.

Didaktik tahlilga tayyorgarlik va amalga oshirish har bir adabiyot o'qituvchisi uchun doim ham ikki bosqichli jarayon hisoblanadi. Birinchi bosqich o'qituvchining darsga tayyorlanish jarayoni bo'lib, ertasiga sinfdagi o'rganiladigan asarni o'zicha tahlil etadiki, buni muallimning individual tahlili deyish mumkin. Ikkinchi bosqichda esa, o'qituvchi muayyan asarni darsda sinfdagi o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qiladiki, uni matn ustida o'quvchilar bilan birga ishlash deyish mumkin. Aslida, bu ikki bosqich bir jarayonning turli sharoitlaridagi ko'rinishlari va shu bois bir-biriga aslo zid emas. Lekin ayni vaqtda, bu ikki faoliyat turini farqlamaslik ham to'g'ri bo'lmaydi. Negaki o'qituvchi badiiy asar bilan yolg'iz uchrashganda, uni xayolan didaktik tahlil qilganda, ertangi pedagogik vaziyatni, o'quvchilar hissiyotining namoyon bo'lish tarzini, o'zining kayfiyatini oldindan to'liq bilishi mumkin emas. Binobarin, kollektiv tahlil jarayonida individual tahlilning ayrim qirralariga muayyan tahrirlar kiritilishi, ayrim jihatlariga ko'proq e'tibor qaratilishi, o'quvchilarda ijobiy tuyg'ular uyg'otadigan

o‘rinlarga urg‘u berilishi, ekspromtlar qilinishi tabiiydir. Chunki adabiyot darsi – ijod. Ijodda esa hamma narsani oldindan to‘liq rejalashtirib bo‘lmaydi. To‘liq rejaga tushgan faoliyat ijod bo‘la olmaydi. Shu bois adabiyot o‘qituvchisi topqir, hozirjavob, har qanday vaziyatdan chiqib keta oladigan, ayni vaqtda, badiiy asarning estetik ma’nosini nazardan qochirmaydigan darajadagi tayyorgarlikka ega bo‘lishi lozim. Hozirgi maktab adabiy ta’limidagi eng jiddiy qusurlardan biri shundaki, o‘qituvchilar sinfda o‘rganiladigan badiiy asarni oldin individual tahlil etishga yetarli e’tibor bermaydilar. Natijada, o‘qituvchi frontal (ommaviy) tahlil jarayonida muhim badiiy unurni nomuhimdan ajratishga ulgurolmay qoladi. O‘quvchilarda esa bunday ko‘nikma hali shakllanmagani uchun asar zamiridagi badiiy estetik ma’no payqalmay qolib ketishi mumkin. Bunday bo‘lmasligi uchun o‘qituvchi individual tahlildan erinmasligi, tahlil jarayonida talabalarning hissiyotlarini uyg‘otadigan, ularda ezgu ma’naviy sifatlar paydo qilishi mumkin bo‘lgan holatlarni tug‘dirish yo‘llarini oldindan rejalashtirishi kerak.

Didaktik tahlil unda o‘quvchilarning ishtirok qilish darajalariga ko‘ra **individual**, **guruh**iy hamda **ommaviy** singari turlarga ajratiladi. Individual tahlilda badiiy matn bilan tanishib chiqilgach, o‘qituvchi har bir o‘quvchiga alohida topshiriq beradi va talaba matndan foydalangan holda o‘sha topshiriqni bajarishga kirishadi. Masalan, Cho‘lponning “Go‘zal” she’ri o‘rganilayotganda, o‘qituvchi bolalardan biriga she’rda istioradan qanday foydalanilganini, boshqasiga, o‘xshatish qanday tasarruf etilganini, uchinchisiga esa, mubolag‘aning qay tarzda ishlatilganini, boshqasiga she’rdan qanday ma’no kelib chiqishini aniqlash va shu asosda matnni tahlil etishni topshirishi mumkin. Har bir bolaga tahlil uchun muayyan vaqt beriladi va tayyor bo‘lgach, o‘quvchi javobi tinglanadi. Guruhlarga ajratib tahlilga jalb etilgan o‘quvchilarda musobaqa tuyg‘usi, kollektivizm ustuvor o‘rin tutadi. Bir sinfdagi o‘quvchilar qandaydir belgilarga ko‘ra bir necha kichik guruhga ajratiladi. So‘ng guruhlarning har biriga asar tahliliga doir alohida topshiriq beriladi. Guruhlarga ajratishda o‘tirgan o‘rni, nasab va nomlarning yonma-yon kelishi, jinsi va hk. belgilar asos bo‘lishi mumkin. Eng muhimi, guruhlarda ishchanlik ruhi hukmron bo‘lishiga

erishish va har guruhda boshqalarni o'z ortidan ergashtira oladigan o'quvchilarning bo'lishini ta'minlash kerak bo'ladi. Xayolot olami keng, tafakkuri uchqur bo'lgan o'quvchilar badiiy matndan, ko'pincha, o'qituvchi ham payqamay qolgan jihatlarni topishadi. Bir necha kishilik guruh o'quvchilarni birlashtiradi, fikrlar olishuviga o'rgatadi, birisining hissiyoti o'zgasida ham tuyg'u qo'zg'aydi. Shu zaylda badiiy matn yaxshiroq idrok etiladi. Bu xildagi tahlilda o'quvchilar boshqa guruhdagilarga savol berishlari mumkin. Kichik guruh a'zolarining hammasiga bir xil baho qo'yish esa jiddiy tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Chunki javobni kim qilgan bo'lsa-da, aslida u jamoa mehnatining mahsuli. Shu sabab, guruhdagilarning hammasiga bir xil baho qo'yish maqsadga muvofiq.

III BOB. 7-SINF ADABIYOT DARSLIGIDAGI BADIY ASARLARNI INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISH

3.1. Badiiy asarlar tahlilida integratsion yondashuv

Ilm-u fan taraqqiyoti ko‘z ilg‘amas darajada tezlashgan davrda fanlararo integratsiya uzluksiz ta‘limni yo‘lga qo‘yishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Integratsiya atamasi lotincha integratio so‘zidan olingan bo‘lib qo‘shilish, birlashish ma’nolarini anglatadi, Ma’lumotlarni integratsiyalash har xil manbalarda mavjud bo‘lgan materiallarni ma’lum maqsad asosida birlashtirib taqdim etishni nazarda tutadi. Integratsiyalashgan ta‘lim va fanlararo aloqa bir-birini to‘ldiradigan ikki xil tushuncha. Fanlararo aloqada o‘quvchining ma’lum bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida u yoki bu muammoni imkon qadar chuqur anglash hamda olingan bilimlarni amaliyotga samarali joriy etishiga imkon berish maqsadida o‘quv fanlari orasida o‘rnatiladigan aloqa nazarda tutiladi. Integratsiya esa fanlararo aloqaga, ya’ni umuman fanlar, o‘quv fanlari, ularning bo‘lim va mavzulari bo‘yicha olingan bilimlarga tayanilgan holda o‘rganilgan masalaga xos bo‘lgan yetakchi g‘oyalar hamda hodisalarning izchil, har jihatdan chuqur hamda serqirra ochilishi demakdir. Biror muammoning yechimini fanlararo aloqaga asoslangan holda integratsion o‘rganish uchun o‘qituvchi, avval maqsadni aniq belgilab olishi, o‘rganiladigan materialni qayta qarab chiqishi, uning samarali o‘zlashtirilishi uchun mos metodlarni tanlashi, dars jarayonini tashkil etishning shakl va zaruriy ashyolarini aniqlashi va olinadigan natijalarni oldindan belgilab chiqishi taqozo etiladi. Fanlararo aloqa xarakteridagi integratsiyalashgan darslar tizimi ma’lum o‘quv fani bo‘yicha yil davomidagi mashg‘ulotlarning maksimal qismini tashkil etishi lozim. O‘zlashtirilgan bilimlarning har xil aspektda ochilishi, masalan, biror badiiy asar mazmunidagi voqea-hodisalarning ham geografik, ham biologik, ham botanik, ham psixologik bilimlarga tayanilgan holda va insoniy tuyg‘ular asosida ochib berilishi shakllanib kelayotgan shaxsning fikrlash, his qilish, qayg‘udosh bo‘lish singari jihatlardan rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Oliy o‘quv yurtlarida adabiy ta‘lim, fan va maktab integratsiyasi ta’limiy, ilmiy va amaliy

potensialdan umumiy manfaatlar yo'lida foydalanishni nazarda tutadi. Ma'lum faoliyatlarning integratsiyalashuvi jarayoni samaradorlik va tejamkorlikni ta'minlaydi, ilmiy jarayonni jadallashtiradi, ayni zamonda dunyo hamjamiyatidagi fan va oliy ta'limning intellektual potensialidan unumli foydalanish imkonini beradi. Adabiy ta'limda mavjud tajribalarni umumlashtirish, tahlillash va foydalanish bu jarayonning barcha ishtirokchilariga katta samara keltirishi mumkin. Adabiy ta'lim, fan va maktabning integratsiyalashuvi bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari adabiy ta'lim jarayonini integratsiyalashni quyidagi tizimda ko'rish mumkin:

- o'quv, ilmiy va maktab amaliyoti kompleksi integratsiyasi;
- oliy o'quv yurti va maktab tizimi integratsiyasi;
- adabiyot o'qitish metodikasi kafedra va maktab o'quv-metodik birlashmalari integratsiyasi;
- ilmiy-o'quv va amaliy markazlar integratsiyasi;
- o'quvchilarni ma'lum yo'nalishlarga individual tayyorlash integratsiyasi;
- mutaxassislar va talabalarning ijodiy jamoasi integratsiyasi hk.

Adabiy ta'limni integratsiyalash bo'yicha taqdim etilgan bu shakllarning har biri alohida ta'lim muassasalari va turli shart-sharoitlarda o'z xususiyatiga ega, albatta. Ayni zamonda, ta'lim amaliyotini integratsiyalashning bu shakllarida ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan jihatlar ham mavjud. Masalan, "o'quv, ilmiy va maktab amaliyoti kompleksi integratsiyasi"da bo'lajak adabiyot o'qituvchisining adabiyot va ona tili o'qitish metodikasi, adabiyotshunoslik, pedagogika, tarix va hk. Fanlar orqali o'zlashtirgan bilimlarini maktab amaliyotida, badiiy asarlar tahlili jarayonida umumlashtirgan holda qo'llay bilishi nazarda tutiladi. Shu maqsadda oliy pedagogik ta'limda pedagogik amaliyotlar tashkil etilgan. Oliy o'quv yurtining faoliyati maktab bilan hamkorliksiz samarali bo'lmaydi. Shu ma'noda oliy o'quv yurti va maktab tizimi integratsiyasi katta ahamiyat kasb etadi. Garchi maktab ham, oliy o'quv yurti ham uzluksiz ta'limning turli bosqichlari bo'lsa-da, bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda ularning integratsiyasi taqozo

etiladi. Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari adabiyot o'qitish metodikasi kafedralari maktablardagi ona tili va adabiyot bo'yicha o'quv-metodik birlashmalari bilan hamkorlik qilishi, bir-birini zaruriy ilmiy yangiliklar, nazariy bilimlar va amaliyotdagi o'zgarishlar bilan tanishtirib borishi zarurdir. Bo'lajak adabiyot o'qituvchilari bam ta'lim markazlarining ish faoliyati, dastur, darslik va boshqa didaktik ashyolarning yaratilish jarayoni, ularga qo'yilayotgan talablar haqida tasavvurga ega bo'lishlari o'ta foydalidir. Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalarini "ta'lim yo'nalishlarga individual tayyorlash integratsiyasi" shakli ham kompetentli o'qituvchilarni tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, har bir inson o'ziga yarasha qobiliyat, iqtidor va imkoniyatlarga ega. Oliy ta'lim tizimida talabalarga xos individual xususiyatlarni ilg'ab, ularni ma'lum sohalarga yo'naltirishlari uchun bunday integratsiya katta ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak adabiyot o'qituvchilarini maktablarda ish olib borayotgan tajribali o'qituvchilar, olimlar, shoir va yozuvchilar bilan hamkorlik qilishi, bu sohalarning xususiyatlaridan xabardor bo'lishi "mutaxassislar va talabalarining ijodiy jamoasi integratsiyasi"ni yuzaga keltiradi. Davr bo'lajak adabiyot o'qituvchilarining oldiga yangicha talablar qo'ymoqda. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentliligi ularning ilmiy salohiyati bilan baholanadi. Zamonaviy adabiyot o'qituvchisi o'z maqsad va vazifalarini o'quvchilarning maqsad va vazifalariga moslashtira bilishi taqozo etiladi. Kelajakda adabiyot o'qitish ishi bilan shug'ullanadigan talabalarining adabiy ta'lim bo'yicha olgan bilimlari o'qitish amaliyotida ona tili, adabiyotshunoslik, tarix, pedagogika, san'atshunoslik fanlari bo'yicha bilimlari bilan bevosita, ruhshunoslik, tabiatshunoslik, biologiya va boshqa bir qator fanlar bilan esa bilvosita integratsiyalashadi.

Badiiy asarlarni integratsion yondashuv asosida o'qitish pedagoglardan nafaqat o'z mutaxassisligi, balki boshqa fan va sohalardan ham xabardor bo'lishni talab etadi. Badiiy asarni o'qitish va tahlil davomida integratsiyadan foydalanish o'quvchilarning kognitiv bilimlarini oshirishga, tafakkur va dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

7-sinf adabiyot darsligi 2022-yildagi yangi nashrida 1-fasl ya'ni bo'lim "Inson, tabiat, o'zlik" deb atalgan. Bu faslda zamonaviy o'zbek adabiyoti namoyondalaridan Normurod Norqobilovning "Oqbo'yin" qissasi, jahon adabiyotining 2 buyuk namoyondalari: Ernest Seton Tompsonning "Lobo" hikoyasi va Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz" qissasidan parcha berilgan.

Ushbu asarlarni inson va tabiat, inson va hayvonot olami o'rtasidagi munosabat birlashtirib turadi. Bu asarlarni adabiyot darslarida o'qitishda tabiatshunoslik, zoologiya, psixologiya va shu kabi fanlar bilan bog'lab, integratsion o'qitish yaxshi samara beradi.

Normurod Norqobilovning "Oqbo'yin" qissasini adabiyot darslarida o'qitishda asar bilan tanishishdan avval o'quvchilar bilan itlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida suhbat o'tkazish mumkin. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning fikr-mulohazalarini tinglab, o'zi ham qo'shimcha ma'lumotlar berishi lozim. Masalan:



8

Yuqoridagi kabi ma'lumotlardan foydalaniladi. Bu o'quvchilarda kognetiv bilimlarni oshirish, o'quvchilarning olamni yanada teran

⁸ Hayvonot olamining katta ensklopediyasi. – Toshkent: "Davr nashriyoti", 2013. –B. 268

anglashiga va dunyoqarashi keng bo'lishiga yordam beradi.

“Oqbo‘yin” qissasida Oqbo‘yin va yana boshqa itlar (Malla, Olapar, Oqto‘sh, Oqbo‘yinning onasi, To‘rtko‘z va hokazolar) misolida itlarga, umuman olganda esa hayvonlarga xos tashqi va ichki xususiyatlar ochib berilgan. Bu o‘rinda bizga zoologiya fanidan olgan bilimlarimiz qo‘l keladi. Qissada hayvonlarning nafaqat tashqi ko‘rinishi, xususiyatlari, balki ularning ruhiyati ham ochib berilgan. Birgina Oqbo‘yinning onasi obrazini olaylik. Qissada Sodiq aka va Karim podachi kelganini ko‘rgan ona it g‘ingshib bezovtalanadi. Buning sababi bu xil keldi-ketdildan so‘ng bolalaridan birortasi g‘oyib bo‘ladi. Bolalari, jigarbandlaridan judo bo‘lish nafaqat insonlar uchun balki hayvonlar uchun ham nihoyatda og‘ir. Bolalaridan ayrilgan ona itning tuni bilan g‘ingshib chiqishi buning yorqin dalilidir. Bu yerda biz nafaqat hayvonlar ruhiyati, balki zoologiya fanidan olgan bilimlarimiz yordamida “onalik instinkti” (uya, in qurish, bola boqish, bolani himoyalash, ov qilishga o‘rgatish)ga to‘xtalib o‘tishimiz joiz. Endi esa bevosita qissaning bosh qahramoni Oqbo‘yinga kelsak. U asar boshidan o‘quvchiga o‘zining ziyrakligini namoyon etadi. Oqbo‘yin atrofdagi voqealarga, insonlar va hayvonlarga nihoyatda e‘tiborli, kuzatuvchan. Hovlidagi babaq xo‘rozdan tortib, Sodiq aka bilan kelgan Karim podachigacha uning e‘tiboridan chetda qolmaydi. U og‘a-inilariga nisbatan bardoshli. Podachining ezg‘ilashlari garchi unga yoqmasada bardosh bilan chidaydi, boshqalar singari to‘polon qilmaydi. Bardoshlilik bilan bir vaqtda izzat-nafsli va qadr-qimmatini yaxshi biladi. Bu xususiyatlar unga otasi – Olapardan o‘tgan. Karim podachining biqiniga tepishi unda ana shu otameros g‘urur, nafsoniyatni uyg‘otdi va shu ta’sirida Karim podachining qorasi yo‘qolgunga qadar akkillab, unga dushmanlarcha munosabat bildiradi.

Shu o‘rinda yana zoologiya faniga, xususan, irsiyat tushunchasiga to‘xtalib o‘tish lozim. Irsiyat – organizmning o‘z belgilari va xususiyatlarini kelgusi avlodlarga o‘tkazish, ya’ni organizmlarning o‘ziga o‘xshash nasllarni bunyod etish xossasi⁹.

⁹ O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1- jild. – Toshkent, 2000.

Endi Karim podachi obraziga kelsak. Bu qahramon, shubhasiz, o'quvchilarda salbiy taassurot qoldiradi. Sodiq aka uning taklifiga rozi bo'lmagach, Oqbo'yinning biqiniga tepib yuborishi yoxud "Buni asrab naf ko'rmaysan. Rashkim yomon, birda bo'lmasa, birda otib o'ldiraman" deyishi bunga dalil bo'la oladi. Afsuski, oramizda Karim podachiga o'xshash tabiatga, hayvonot va nabotot olamiga loqayd, bemehr insonlar ham uchrab turadi. Yozuvchi mana shu obraz orqali ana shunday insonlar yuziga ko'zgu tutmoqchi bo'lgandir, balki. Qissada faqat o'z foydasini o'ylab tabiatga, hayvonlarga zarar yetkazish, ozor berish naqadar razil illat ekanligi ko'rsatib berilgan. Dono xalqimiz "Besh qo'l barabor emas" deya bejizga aytmaydi. Darhaqiqat, hayvonlarga mehrlil, ular bilan do'st tutinadigan Rasul kabi insonlar ham anchagina. Shu jihatdan Karim podachi va Rasul obrazlarining xarakter xususiyatlari va xatti-harakatlarida konfliktni yaqqol ko'rish mumkin. Bu o'rinda o'qituvchi konflikt tushunchasi haqida o'quvchilarga ma'lumot berishi ham talab etiladi. Bu yerda esa biz adabiyot nazariyasiga murojaat qilamiz. Konflikt – adabiyot va san'atda badiiy asar mohiyatida yotgan ziddiyat, personajlarning o'zaro to'qnashishi ixtilofi bo'lib, yuqoridagi misolda obrazlar o'rtasidagi konfliktni ko'rish mumkin.

Qissaning eng ta'sirli o'rinlaridan biri uy egasining o'g'li – Rasul bilan Oqbo'yinning chin do'stligi hisoblanadi. Rasul Oqbo'yinni boshqalardan ayricha yaxshi ko'radi. Shu o'rinda Oqbo'yin ham Rasulni, uning do'stligini qadrlaydi. U Rasulni kelishini doim ilhaq bo'lib kutadi, hatto sabr kosasi to'lib, Malla bilan yakkama-yakka olishish uchun ketar chog'ida ham bolani ko'zi qiyib-qiyamay ko'chaga chiqadi. Rasulning Oqbo'yinga bo'lgan mehri ayniqsa Oqbo'yin jarohatlanib, og'ir ahvolda ekanida qanday yo'l bilan bo'lmasin, Salom do'xtirni davolash uchun olib kelishida yorqin namoyon bo'ladi. Oqbo'yinni davolashi evaziga Salom do'xtirning tomorqasidagi piyozni o'tab berishga ham, har kuni do'xtirning sigiriga daladan o't yulib kelishga ham rozi. Faqat, Oqbo'yinni, aziz do'stini, davolasa, u o'lmasa bas. Asarning ayni shu o'rni o'quvchilarga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu xil inson va hayvonlar o'rtasidagi sof va samimiy do'stlik yosh avlod


qalbida yaxshilik, ezgulik hislarini yanada jo'sh urishiga sabab bo'ladi. O'quv-didaktik tahlilning asosiy vazifasi ham ayni shundan iborat. Ya'ni badiiy asarning hozirgi hayotiy va badiiy mantig'i hamda estetik o'ziga xosligini anglash orqali o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirishdan iborat.

Normurod Norqobilovning "Oqbo'yin" qissasini o'qitishda:

1) "Oqbo'yin" qissasining darslikda berilgan parchasini o'qish talab etiladi;

2) Qissadagi qahramonlar va ularga ta'riflar yoziladi. Masalan: Salom do'xtir – Oqbo'yin jarohatlanganda uni davolaydi; Rasul – Sodiq akaning o'g'li, Oqbo'yinning do'sti; Olapar – Oqbo'yin, Malla, Oqto'shning otasi kabi. Asar qahramonlari haqida so'z borganda ularning ismlariga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim. Chunki ko'p hollarda yozuvchi tomonidan tanlangan ism qahramonlar ruhiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Masalan Salom do'xtir obrazini olaylik. "Salom" so'zi tilimizga arab tilidan kirib kelgan bo'lib, "sulh, do'stlik, omonlik" degan ma'nolarni anglatadi. Qissada ham Salom do'xtir Oqbo'yinni davolab, hayotini saqlab qoladi.

1) Notanish so'zlar, lug'atlar bilan ishlash: norg'ul – baquvvat gavdali, sinchi – hayvonlarning zotini farqlay oladigan kishi, novvos – ikki-uch yashar buqa, arloni – sardor, yetakchi, tana – bir-ikki yoshli buzoq, chiviq – yangi, ingichka novda tanda qo'yish – serqatnov bo'lib qolish pol – ekin maydoni qismi kulliklash – birlashtirib bog'lash kabi.



Klaster:

2) Qahramonlarga xos xususiyatlar asosida quyidagi jadval ustida ishlash bunda o'quvchilarda tanlab o'qish ko'nikmasi shakllanadi.

№	Oqbo‘yinga xos xususiyatlar	Ushbu xususiyatlarni ochib berishga xizmat qilgan voqea
1	Bardoshli	Podachining ezg‘ilashlari Oqbo‘yinga yoqmasdi. Ammo tabiatan bardoshli bo‘lgani uchun boshqalar kabi to‘polon qilmadi.
2	O‘z qadr qimmatini yaxshi biladi	Karim podachi Oqbo‘yinni biqiniga tepganda bu xil muomala Oqbo‘yinga yomon ta’sir qiladi va shu sabab irillash barobarida akillaydi.
3	Izzat-nafsli	Akillagani sari izzat-nafsi allanechuk orom topib, ovozi o‘ziga xush yoqdi. Karim podachi Mallani qo‘yniga solib, eshik ortida ko‘zdan yo‘qolmaguncha u tinchimadi.
4	Sodda, firibni bilmaydi	Mallaning kalta-kalta hurib, xo‘jayini ogoh qilganini anglamaydi.
5	Haybatli	Malla qaysi ko‘z bilan ko‘rsinki, qarshisidan hov birda oyog‘ini sindirgan bahaybat maxluq kelardi. Malla talvasada turib qoldi. Zora qaytib ketsa degan umidda Malla yer tirnab jon-jahdi bilan hurdi. Biroq raqibi pinak buzmadi, loaqal irillashni o‘ziga ep ko‘rmadi.

Bu jadval asosida faqat birgina qahramon emas balki bir nechta qahramonlar shu tahlit tahlil qilinishi mumkin. Tanlab o‘qish metodining afzalligi shundaki, bunda o‘quvchilar asarga qayta murojaat qilishadi.

5. Asar qahramonlariga berilgan ta’riflar.



Adabiyot darslarida foydalaniladigan barcha metod va usullar badiiy asar g'oyasi va mazmunini ochishga xizmat qilishi zarur. Badiiy asar sinfda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan tahlil qilinganda, turli xil metodlar, asarning mazmuni yuzasidan beriladigan savol va topshiriqlar yordamida o'qituvchi asarning g'oyasi va mazmunini o'quvchilarning o'zlari anglab yetishlariga yo'naltirishlari lozim. Bunda o'quvchilarda "kashf qilish lazzati" paydo bo'ladi va ular asardan chinakamiga badiiy-estetik zavq oladi.

7-sinf adabiyot darsligidagi 1-fasl hisoblangan "Inson, tabiat, o'zlik" dan uzoqlashmagan holda Ernest Seton Tompsonning "Lobo" hikoyasi o'rganamiz. Ernest Seton-Tompson bolaligidan tabiatga mehr qo'ydi, hayvonlarni kuzatib, ularni o'rgandi. Keyinchalik tabiat va hayvonlar haqida yozgan badiiy va ilmiy asarlari, ularga chizgan rasmlari unga shuhrat keltirdi. Uning asarlari bosh qahramonlari – hayvonlar. "Lobo" hikoyasda Lobo boshchiligidagi kulrang bo'rilar to'dasi haqida hikoya qilinadi. Hikoyani o'qishdan avval darslikda bo'rilar haqida ensklopediyadan olingan quyidagi ma'lumotlar bilan tanishishimiz mumkin:

Bo'ri zararlimi yoki foydalimi? Aslida bunday savol berish noto'g'ri, chunki ko'pgina hayvonlar bir vaqtning o'zida ham foydali, ham zararli bo'lishi mumkin. Uy hayvonlariga hujum qiladigan bo'ri odamlarga ziyon yetkazadi. Xuddi mana shu bo'ri o'rmonda yoki tundrada ko'pincha nimjon, kasalmand hayvonlarga hujum qiladi, chunki bunday hayvonlarni tutib olish oson-da. Kasal hayvonlarni qirishi natijasida bo'ri o'rmon va unda yashaydigan jonivorlarga foyda keltiradi. Uni mana shu xizmatlari uchun "o'rmon sanitar" deb atashadi. Bo'rilar o'rmonda hayvonlarning haddan ziyod ko'payib ketishiga yo'l qo'ymaydi.



Bo'ri nihoyatda ayyor va aqlli hayvon. U o'zi ta'qib qilinayotganini darhol sezib, xatarli joyni uzoq vaqtga tark etadi. Shuning uchun ba'zida bo'rini yaxshilab qo'rqitib qo'yishning o'zi yetarli bo'ladi.

Bu kabi qiziqarli ma'lumotlar o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirib, asarni mutolaa va tahlil qilish davomida esa ularga qo'l keladi. Shu o'rinda o'qituvchi o'quvchilarga sinfdan tashqari topshiriq sifatida yuqoridagi kabi bo'rilar va ularning hayot tarzi haqidagi qiziqarli ma'lumot va faktlar topishni berishi mumkin.

Loboning to'dasi ko'p yillardan buyon Kurrumpo vodiysida yashab, podachilarni tahlikaga solib, zir qaqshatishadi. Quyida beriladigan parcha fikrimiz isboti bo'la oladi.

"Besh yil mobaynida Kurrumpo podachilarining har kuni bittadan molini yeb, jami ikki mingdan ziyod molni yo'q qildi, yana eng sara mollarni nobud qildi".

Ha, bu Lobo to'dasiga berilgan ta'rif edi. Lobo Podachilarning turfa xiyla-nayranglari, qopqonlariga osonlikcha chap berib, ularni dog'da qoldiradi. Ahvol shu darajaga borib yetadiki, uning terisi uchun qo'yilgan mukofot ming dollargacha yetadi. Go'yoki taqdir faqat Lobo boshliq bo'rilar galasigagina kulib boqmoqda edi. Biroq Loboning jufti haloli Blankaning qopqonga tushishi vaziyatni tubdan o'zgartirib yubordi. Blankaga hikoyada quyidagicha ta'rif beriladi:

"Men chiroyli bo'ri ko'rib, Blankadayini ko'rmagan edim. Blanka

tep-tekis quyuq junli, oppoqdan kelgan bo‘ri edi”.

Blankadan ayrilish Lobo uchun ulkan musibat bo‘ldi. U g‘am-anduh bilan, hazin-hazin uvullab, Blankani izladi, uni tashlab ketishni istamadi. Bu holatdan hattoki toshbag‘ir podachilarning ham ko‘ngli buzildi. Podachilar Lobo Blankani topmaguncha tinib-tinchimasligini yaxshi bilashar edi. Bunda Blankaning jasadidan foydalanishdi va ko‘pdan beri amalga oshirishni istagan maqsadlariga yetishdi. Ya’ni kulrang bo‘rilar galasining arlonisi bo‘lgan Loboni mavh etishdi.

Endi esa Loboning ruhiyatiga alohida e’tibor qaratsak. Barchadan kuchli, qudratli, ayyor, bo‘ysunmas arloni Lobo birvarakayiga uch musibatga duchor bo‘ldi. Sher kuch-quvvatdan qolsa, burgut erkidan ajrasa, kaptar juftidan ayrilsa, yuragi yorilib o‘lar ekan. Bu yirtqich esa kuch-quvvatidan, ham erkidan, ham juftidan ayrildi. Ana shu musibatlar uning fojeasiga sabab bo‘ldi.

Adabiyot darslarida “Lobo” hikoyasini o‘qitishda quyidagi metod, savol va topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Dastlab hikoyani to‘liq o‘qib chiqish talab etiladi.

2. Hikoyani qismlarga ajratish va ularning har biriga alohida sarlavha topish. Masalan: Kurumpo hukmdori, Pishloq xiylasiga Loboning nafrati, Blankaning nidosi, So‘nggi olishuv, Qayg‘uli xotima singari bo‘lishi mumkin.

3. Asardagi obrazlarni o‘quvchi ko‘z o‘ngida to‘liq, yaxlit holda shakllantirishda klaster metodidan foydalanish samaralidir.

LOBO



1. Tanlab o‘qish metodidan ham foydalanish mumkin. O‘quvchilarga “Lobo” hikoyasidagi peyzaj ya’ni tabiat tasviri berilgan o‘rinlarni tanlab o‘qish vazifa qilib beriladi.

2. O‘quvchilarga ijodiy faoliyatga yo‘naltiruvchi topshiriqlar berish ham mumkin. Loboning qopqonga tushgan holatidagi kechinmalari ifodalangan matn yaratish yoki rasmini chizish uyga vazifa qilib berilishi mumkin. Bunda o‘quvchilarda badiiy asarni estetik anglash ko‘nikmalari shakllanadi.

3. Shu bilan birga yuqoridagi topshiriqlarning mantiqiy davomi sifatida Loboning ozod va qopqonga tushib, erkidan ayrilgan holatlarini o‘zaro qiyoslab Venn diagrammasida yoki quyidagi jadvalda ifodalash mumkin.

Ozod Lobo	Erkidan ayrilgan Lobo

4. “Lobo” hikoyasi bilan to‘liq tanishib bo‘lgach Muhammad Ochilning “Bo‘ri haqida ballada yoxud Loboning muhabbati” asaridan darslikda berilgan parchani ifodali o‘qish va uning audio variantini tayyorlash uyga vazifa sifatida berilishi mumkin.

5. Darsda an’anaviy yo‘llar bilan o‘zlashtirilishi qiyin bo‘lgan yoki mohiyatiga o‘quvchilar chuqurroq kirishi kerak deb topilgan biror mavzu yuzasidan o‘qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan vaziyat, hodisa muammoli vaziyat deyiladi. Adabiyot darslarida muammoli vaziyat yaratish juda ahamiyatlidir. “Lobo” hikoyasi va Muhammad Ochilning “Bo‘ri haqida ballada yoxud Loboning muhabbati” asari o‘qib bo‘lingach o‘quvchilarga quyidagi muammoli vaziyatni o‘rtaga tashlash mumkin ya’ni E.S.Tompson bilan Muhammad Ochil talqinidagi Lobo ayni bir qahramonmi? O‘quvchilarda turlicha fikrlar mavjud bo‘lishi mumkin. Masalan: A) Ha, har ikkalasi ayni bir qahramon; B) Yo‘q, ular tubdan bir-biridan farq qiladi. Yoki yana boshqa javoblar bo‘lishi mumkin. Har bir javobni tinglagach o‘quvchilardan fikrlarini dalillar bilan isbotlash talab etiladi.

Bu kabi metod va usullarni yana davom ettirish mumkin. Har qanday metod, usuldan asosiy ko‘zlangan maqsad badiiy asar mazmun-

mohiyati, g'oyasini o'quvchiga yetkazib berish, yozuvchi ushbu asari bilan kitobxonga nima demoqchi ekanligini o'quvchilarga anglatishdan iborat. Buning uchun esa avvalo o'qituvchi darsning maqsadini to'g'ri qo'ya olishi va shu maqsad asosida tizimli ravishda dars ishlanmasini ishlab chiqishi zarur. Shundagina o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erisha oladi.

Shuningdek, o'quvchilarning matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish maqsadida Anton Pavlovich Chexovning "Xameleon" ("Buqalamun") hikoyasini o'qitish davomida quyidagi topshiriqlardan ham foydalanish mumkin:

Matnni o'qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

XAMELEON

Ustiga yangi shinel kiygan, qo'lida tuguncha, politsiya nazoratchisi Ochumelov bozor maydoni o'rtasidan yurib kelmoqda. Uning orqasidan qo'lida musodara qilingan krijovnik to'la g'alvir ko'tarib aft-angori sapsariq gorodovoy qadam tashlab kelayotir. Tevarak jimjit... Bozor maydonida qimirlagan jon ko'rinmaydi...

Do'kon va qovoqxonalarining eshiklari och yirtqichning og'ziday ochilib, huvullab turar edi; ularning oldida hatto gadoy ham yo'q. Ochumelovning qulog'iga birdan:

– Sen hali odamni tishlaysanmi, mal'un! Birodarlar, qochirib yubormanglar! Hozir birovni tishlashga ruxsat yo'q! Ushla! A... e! – degan tovush eshitildi. Kuchuk vangilladi. Ochumelov atrofiga qarab, savdogar Pichuginning o'tinxonasidan bir it uch oyoqlab, orqa-o'ngiga qarab, chopib chiqib kelayotganini ko'rib qoldi. Kuchukni chit ko'ylak kiygan va nimchasining tugmalari yechilgan bir kishi quvlab kelmoqda edi. U kuchukning ketidan choparkan, o'zini yerga tashlab, kuchukning keyingi oyog'idan ushlab oldi. Kuchuk yana vangilladi va "qochirib yubormang" degan ovoz eshitildi. Do'konlardan mudroq bosib o'tirgan kishilar kallalarini chiqarib qarashdi va bir dam o'tinxonaning oldiga, xuddi yer ostidan chiqqandek, xaloyiq yig'ildi.

– Muhtaram afandim, bu tartibsizlik... – dedi gorodovoy Ochumelov so'lga burilib, odamlar yig'ilgan joyga qarab yurdi. **O'tinxona darvozasi oldida, yuqorida tasvir qilingan, nimchasining tugmalari**

yechilgan kishi o'ng qo'lini yuqoriga ko'tarib, qonga bo'yalgan barmog'ini odamlarga ko'rsatib turardi. [1] Uning shirakayf basharasi go'yo: "Senimi, qarab tur, la'nati!" deb turar va barmog'i ham g'alaba tug'iga o'xshardi. Ochumelov bu kishini tanidi: u zargar Xryukin edi.

O'rtada oldingi oyoqlarini kerib, vujudi titrab, to'polonning sababchisi – tumshug'i uzun ola tozi turardi. Uning yoshlangan ko'zlari javdirardi. Ochumelov odamlar orasiga yorib kirarkan:

– Nimaga yig'ildilaring, nima gap? Barmog'ingga nima qildi? Kim qichqirdi? – deb so'radi.

Xryukin mushtumini og'ziga tutib, yo'talib qo'yib so'z boshladi.

– Men, muhtaram afandim, o'z yo'limda ketayotgan edim... Mitriy Mitrich bilan o'tin to'g'risida gaplashmoqchi edim. Siz meni kechiring, men ish qiladigan odamman. Mening ishim mayda ish, menga tovon to'lasinlar, chunki kim biladi, balki, men bu barmog'imni bir hafta qimirlatolmasman. Muhtaram afandim, qonunda, mundaqa maxluq kishiga ozor bersin, deyilgan emas... Agar har narsa tishlayversa, u vaqtda dunyoda turmaslik yaxshiroq...

– Himm... yaxshi... – dedi Ochumelov jiddiyat bilan yo'talib va qoshlarini qimirlatib, – yaxshi... Kimning kuchugi? Men buni shunday qo'ymayman! Men sizlarga kuchuklarni bo'sh qo'yib yuborish nima ekanini ko'rsatib qo'yaman! Qarorlarga bo'ysunishni xohlamagan afandilarga ahamiyat berish vaqti keldi. Bu ablahga jarima solinsa, u vaqtda kuchuk va boshqa tentirab yuradigan hayvon nima ekanini biladi. Men unga ko'rsatib qo'yaman! Yeldirin, – dedi nazoratchi gorodovoyga qarab, – sen bu kuchukning egasini topib, bayonnoma yoz! Kuchukni yo'qotish kerak. Tezda! Quturgan kuchukka o'xshaydi... Bu kimning kuchugi o'zi!

– General Jigalovniki shekilli, – dedi kimdir.

– General Jigalovniki? Himm... Yeldirin, qani paltomni yechib ol: juda ham kun isib ketdi! Yomg'ir yog'sa kerak!.. Lekin men bir narsaga tushunolmadim, u seni qanday qilib tishlab oldi? – deb Ochumelov Xryukinga murojaat qildi. – Qanday qilib barmog'ingga bo'yi yetdi?

U kichkina, sen bo'lsang kap-katta odamsan! Sen, balki,

barmog'ingni mix bilan teshgandirsan, undan keyin kuchukni bahona qilib tovon olish fi kri boshingga kelgandir.

– Bu, muhtaram afandim, kulgi bo'lsin uchun yonib turgan papirosini kuchukning tumshug'iga tutdi, kuchuk ham ahmoq emas, g'arch etib tishlab oldi... Bu odamning o'zi tentak ekan, muhtaram afandim.

– Yolg'on aytasan, qiyshiq! Ko'rmaganingdan keyin nimaga yolg'on gapirasan? Janoblari aqlli odamlar, kim yolg'on gapirganini, kim Xudo oldida turgandek rost aytganini – hammasini biladilar... Agarda men yolg'on gapirgan bo'lsam, sud hukm qilsin... Hozir hamma barobar... Mening birodarim jandarmada ishlaydi. Agar bilgingiz kelsa...

– Tilingni tiy!

– Yo'q, bu generalning kuchugi emas. Generalning bundaqa iti yo'q: uning itlari ovchi itlar, – dedi gorodovoy ma'noli qilib.

– Sen buni aniq bilasanmi?

– Aniq bilaman, afandim.

– O'zim ham bilaman. Generalning itlari qimmatbaho, zotli itlar, shu ham itmi? Buning aftini qara... Rasvo bir narsa... Shuni ham it deb saqlaydimi kishi?! Sizda aql bormi o'zi? Bundaqa it Peterburg yoki Moskvada ko'rinib qolsa, bilasizlarmi, nima bo'lar edi? U yerda qonunga qarab o'tirmasdan, o'ldirib qo'ya qolar edilar. Sen Xryukin, qancha azob ko'ribsan, bu ishni shunday qo'yib ketaverma!.. Adabini berish kerak! Vaqt keldi...

– Ehtimol, generalnikidir... – deb gorodovoy ovozi chiqarib qo'ydi. – Uning tumshug'iga yozib qo'yilmagan-ku... Bir kuni generalning hovlisida shunday itni ko'rgan edim.

– Albatta, generalniki bo'lsa kerak, – dedi kimdir.

– Himm... **Yeldirin, birodar, paltoni yelkamga tashla... Shamol turgandek bo'ldi... Badanim uvushib ketdi...**[2] Sen itni generalning oldiga oborib so'ra. Itni men topib, yuborganligimni ayt... Ko'chaga chiqarmasinlar. Aytib qo'y. Balki, u qimmatbahodir, har bir to'ng'iz uning tumshug'iga papiros tegizaversa, it aynib qoladi. Kuchuk degan narsa nozik maxluq bo'ladi. Ahmoqlik qilib, barmog'ingni ko'rsatib

turishga hech hojat yo‘q! Ayb o‘zingda!..

– Generalning oshpazi kelyapti, o‘shandan so‘raymiz... Hay, Proxor! Azizim, qani, bu yoqqa kel! Itni ko‘r-chi... Sizlarnikimi?

– Shu ham gap bo‘ldimi?! Biz hech qachon bunaqa it tutganimiz yo‘q. – Bu yerda so‘rab o‘tirishning hech hojati yo‘q, – dedi Ochumelov.

– Bu o‘zi sayoq it! Nima keragi bor gapni cho‘zishning? O‘zim sayoq it deb aytdim-ku. Sayoq-da! O‘ldirish kerak, vassalom!

– Bu bizniki emas, – dedi oshpaz, – bu generalning yaqinda kelgan ukasiniki. Bizda bunaqa itni yoqtirishmaydi. U kishining ukalari bunaqa itni yaxshi ko‘radi...

– U kishining birodarlari keldilarmi? Vladimir Ivanovich-a? – deb Ochumelov so‘radi, iyib ketib og‘zi qulog‘iga yetdi. – Uni qara-ya. Men bilganim yo‘q, mehmon bo‘lib keldilar degin?

– Mehmon bo‘lib keldilar.

– Uni qarang, yo Xudo... Akalarini sog‘inib qolibdilar-da... Men bilganim yo‘q edi. Bu o‘sha kishining itlari degin? Juda xursandman... Ol, mana buning barmog‘ini tishla, xa-xa-xa... Nega titraysan? Ol, kishkish! Ko‘rdingmi... jahli chiqadi-ya...

Oshpaz Proxor itni chaqirib, olib ketadi... To‘planib turgan odamlar Xryukinni masxara qilib, qahqaha uradilar.

– Shoshmay tur, men senga ko‘rsatib qo‘yaman! – deb Ochumelov Xryukinga do‘q qiladi va shineliga o‘ranib, bozor maydonidan yo‘lda davom etadi.

23. Asar nomi orqali qanday badiiy maqsad ifoda etilgan?

A) kishilarning bir it sabab bir -birlarining ustidan kulishi haqida gap ketgan.

B) itning kishiga haqiqiy do‘st ekanligi ochib berilgan.

C) odamlarning ikkiyuzlamachiligi Ochumelov obrazi orqali ochib berilgan.

D) Xrokinning odamlar uchun qayg‘urib itni jazolash kerakligi ochib berilgan.

24. Ochumelov obraziga mos ta‘rif berilgan javobni aniqlang.

A) Boylik uchun do‘stiga xiyonat qilgan kishi

B) jamiyatdagi o'zgarishlarga loqayd bo'lgan inson

C) mansab uchun jinoyatga sherik bo'lgan shaxs

D) lavozimiga oxirigacha sodiq qolgan kishi

25. Xrokin obraziga mos ta'rif berilgan javobni aniqlang.

A) o'zining manfaatlari uchun davlatga va Ochumelov qarshi chiqqan inson

B) jabr ko'rgan va o'zining haqligini isbotlash uchun urunib izza bo'lgan inson

C) itga yordam berish uchun hatto harbiylarga qarshi chiqqan mard qahramon

D) itni xushlamaydigan va bu uchun hatto uni o'ldirishgacha borgan razil shaxs

26. [1] raqami bilan ajratib ko'rsatilgan qismda tasvirlangan qahramon holati qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

A) itning kimniki ekanligini aniqlash va unga itni qaytarib berish izohlangan

B) generalning iti ekanligini bilgach itni ushlaganidan xursand bo'lgan odam

C) itni qilgan ishi uchun jazo muqarrarlighi va bu ishni o'zi qilishini izohlagan

D) generalning terisiga somon tiqishini o'ylab cho'chib ketadi.

27. [2] raqami bilan ajratib ko'rsatilgan gapda qanday uslubiy ma'no ifoda etilgan?

A) kinoya, piching B) malomat, tanbeh

C) tahlik, qo'rquv D) kibr, jahl

Bu kabi topshiriqlar o'quvchilarda o'qib tushunish, matn bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi, rivojlantiradi. Shu boisdan ushbu topshiriqlardan adabiyot darslarida foydalanish juda samaralidir.

3.2. Mumtoz va zamonaviy lirik asarlarni o'qitishda innovatsion metod va texnologiyalar

Lirika (yunoncha cholg'u asbobi) adabiy tur sifatida qadimdan shakllangan bo'lib, o'zining bir qator xususiyatlariga egadir. Lirikaning belgilovchi xususiyati sifatida uning tuyg'u kechinmalarni tasvirlashi olinadi. Ya'ni epos va dramadan farqli ravishda lirika voqelikni

tasvirlamaydi, uning uchun voqelik lirik qahramon ruhiy kechinmalarining asosi, ularga turtki beradigan omil sifatidagina ahamiyatlidir.

Lirik asarlar tahlilida shakl va mazmun birligi uygʻunligi oʻquvchining diqqat markazida boʻlishi lozim. Chunki sheʼrning aynan shu ikki tomoni uni yaxlit bir asar sifatida shakllantiradi. Lirik asarlarni quyidagi reja asosida tahlil qilish maqsadga muvofiq:

1) Asar yaratilishiga turtki boʻlgan voqea, vaqt va makonni oʻrganish;

2) Sheʼrning bosh gʻoyasi va mavzusini aniqlash;

3) Kompozitsion tuzilishi ustida ishlash;

4) Sheʼrning motivini aniqlash;

5) Badiiy asar vositalari ustida ishlash;

6) Sheʼrda ifodalangan ruhiy kechinmalarni aniqlash.

Lirik asarlarni yaʼni sheʼrlarni tahlil qilishda uning badiyatiga, qofiyalanishi, ritmi, vazni kabilar bilan birga uning gʻoyasi, mavzusi, mazmuniga ham alohida ahamiyat berish zarur. Shundagina tahlil toʻliq va samarali boʻladi.

Quyidagi jadvalda 7-sinf adabiyot darsligida berilgan lirik turga mansub asarlar bilan tanishamiz:

№	Muallifi	Sheʼr nomi	Mustaqil oʻqish uchun berilgan
1	Zulfiya	Sogʻinib	Bahor keldi seni soʻroqlab
2	Asqad Muxtor	Oliy butunlik	Daraxt, Nihol, Sogʻinish
3	Hamza Hakimzoda Niyoziy	Jonlarni jononi Vatan	Salom ayting, Qalam
4	Sirojiddin Sayyid	Vatanni oʻrganish	Mensiz yasholmaydi... Onamning kalishlari
5	Sergey Yesenin	Shahinam, o, mening Shahinam	Ona ibodati
6	Rasul Hamzatov	Qushqanotli,	Ona tilim,

		hoy karvon...	Turnalar
7	Saida Zununova	Asfaltni qoq yorib unibdi giyoh	Qog‘oz gul
8	Iqbol Mirzo	Daraxtlar	Go‘yo, Horg‘in rohat

Shuningdek bu ro‘yxatga liro-epik turga mansub bo‘lgan Muhammad Alining “Gumbazdagi nur” dostonini ham kiritish mumkin. 7-sinf adabiyot darsligida berilgan lirik turga mansub asarlarning o‘ziga xosligi shundaki, bunda o‘quvchilar bir darsda ikki ijodkorning ijod mahsuli bilan tanishishadi, ularni o‘zaro qiyoslash, solishtirish, shuningdek, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini anglash imkoniga ega bo‘lishadi.


E’tiborga loyiq jihat shundaki, bunda ko‘p hollarda ikki ijodkorning ayni bir mavzu yoki yo‘nalishdagi ijod mahsuli bo‘ladi. Ya’ni bu bir mavzuga ikki ijodkorning munosabati, qarashlari, o‘y-xayollari degani. Masalan Hamza Hakimzoda Niyoziy va Sirojiddin Sayyid she’rlarini olaylik. Bu ikki ijodkor turli davrlarda yashagan, biroq darslikda har ikkala ijodkorning vatan mavzusidagi she’ri berilgan. Pedagog adabiyot darsida ushbu mavzuni o‘tishidan avval darsga kirish sifatida o‘quvchilar bilan doskada quyidagicha klaster tuzishlari mumkin:



Bugungi mavzuda biz tanishmoqchi bo‘lgan shoirlar o‘z she’rlarida Vatanga qanday ta’rif berishgan ekan? Shunga o‘xshash savollar bilan o‘quvchilar e’tiborini mavzuga qaratish mumkin.

Hamza Hakimzoda Niyoziy vatanimizni ozod va obod ko‘rishni istagan ma’rifatparvar jadid bobolarimizdan biri. Uning “Jonlarni jononi Vatan” she’rida ham ijodkor qalbidagi ayni shu istak o‘z ifodasini topgan. Shoir vatanni tandagi jonga qiyos etadi, nafaqat jon balki “jonlarning jononi” deya ulug‘laydi. Hamza mustamlaka zulmi vatanimizni chor tarafdin iskanjaga olgan o‘ta tahlikali davrda yashab ijod etgan. Shunga qaramay biz yuqorida tanishgan “Jonlarni jononi Vatan” singari vatanparvarlik, vatanga muhabbat ruhidagi go‘zal she’rlar bitib, xalqning ko‘zini ochishga uringan va komil ishonch bilan uning bu sa’y-harakatlari o‘z samarasini berdi deya olamiz. Garchi oradan talay vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, Hamza va u kabi jadid bobolarimiz orzu qilgan erk va hurriyatga erishdik, vatanimiz mustaqil bo‘ldi. Vatanimiz mustaqillikka erishgach adabiyotimizda yana ko‘plab vatanni madh etuvchi she’rlar bitildi. Ulardan biri Sirojiddin Sayyidning “Vatanni o‘rganish” she’ridir. Ushbu she’rda mustaqil va go‘zal vatanimiz va unga bo‘lgan cheksiz, samimiy muhabbat o‘z aksini topgan.

Darslikda berilgan bu ikkala she’rda ham vatan madhi, unga bo‘lgan otashQin muhabbat o‘z aksini topgan. Garchi mavzu bir bo‘lsa-da, ifoda usuli, o‘xshatishlar, badiiy tasvir vositalari o‘zgacha. Buni yaqqol ko‘rsatish uchun Venn diagrammasidan foydalanishimiz mumkin.



Shuningdek she’rlar bilan tanishib bo‘lgach o‘quvchilarni guruhlariga ajratib, ularga “Jonlarni jononi Vatan” va “Vatanni

o'rganish" she'rlarida ijodkorlar tomonidan vatanga berilgan go'zal ta'riflarni yozishni vazifa sifatida berish mumkin. Bunda o'quvchilar she'rning badiiyatini, shoirning so'z qo'llash mahoratini yanada yaqqol anglaydilar. Chunki lirik asarlarni tahlil qilishda uning mazmuni va badiyatini anglash kabi ikki asosiy mezon bo'ladi va ularni bir-biridan ayri amalga oshirish mumkin emas. Shu bilan birga o'quvchilarga "Vatan mavzusidagi yana qanday she'rlarni bilasiz?" deya murojaat etib, kichik she'rxonlik bahsini ham o'tkazish mumkin.

Darslikda Zulfiya Isroilova va Asqad Muxtor qalamiga mansub she'rlar ham berilgan. Zulfiyaning "Sog'inib" va A.Muxtorning "Oliy butunlik" she'rlarida ona tabiat asosiy planga chiqadi. "Sog'inib" she'rida bahor sog'inchi, "Oliy butunlik" she'rida esa tabiat bilan birlik, bir butunlik o'z asksini topgan. Ushbu mavzuni adabiyot darsida o'qitishda o'quvchilarga darslikda berilgan savol va topshiriqlar bilan birga quyidagi qiziqarli savol va topshiriqlarni ham taqdim etish mumkin. "Sog'inib" she'ri yuzasidan:

1. *Navjuvon, tanxastalik, tanho* kabi so'zlarning ma'nosini bilasizmi? Ushbu so'zlarning ma'nodosh (sinonim)larini toping. Nima sababdan shoir aynan shu so'zlardan foydalangan deb o'ylaysiz?

2. *Ruxsor* so'zining ma'nosini bilasizmi? Biz odatda so'zlashuv nutqida bu so'z o'rnida qaysi so'zdan ko'proq foydalanamiz?

3. She'rdagi "*yonuvchi qorman*" o'xshatishi haqida qanday fikrdasiz? Sizningcha shoir(a) bu bilan nima demoqchi? Nimani nazarda tutmoqda?

"Oliy butunlik" she'ri yuzasidan:

1. She'rda jonli yoki jonsiz predmetga murojaat qilish (*O, ona tabiat; O, hayotning oliy butunligi* kabi) qanday she'riy san'atni yuzaga keltirgan? (Izoh o'rnida: aynan shu mavzu davomida antiteza (tazod) she'riy san'ati haqida darslikda nazariy ma'lumot berilgan. Savolning javobi bo'lgan nido she'riy san'ati haqida ham qisqacha ma'lumot berish o'quvchilar uchun albatta foydali bo'ladi va ularda tushuncha hosil bo'ladi)


2. She'rdagi *yak son* so'zi bilan *yakson* so'ziga e'tibor qarating. Har ikkala so'z ma'nolarini izohlab, ular o'rtasidagi farqni ayting. (*yak son*

– bir butun; yakson –yo‘q qilmoq)

3. Bahor deganda ko‘z oldingizga nimalar keladi? Bahor haqidagi tasavvuringizni matn yoki rasm ko‘rinishida tasvirlang.

4. Darsda o‘quvchilarni guruhlariga ajratgan holda yoki yakka tartibda ifodali she‘r o‘qish bellashuvini tashkil eting. (Eslatma: bellashuvni boshlashdan avval ifodali she‘r o‘qish qoidalari, deklomatsiya san‘ati haqida qisqacha ma‘lumot va ko‘rsatmalar berib o‘tish tavsiya etiladi)

5. “Oliy butunlik” she‘rida tabiatga berilgan ta’riflarni toping va ularni klaster ko‘rinishida ifodalang.



Klasterni yuqoridagi kabi ko‘rinishda ifodalash she‘rning mazmuniga ham ayni mos keladi, shuningdek o‘quvchilarning ijodkorligini ham oshiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, lirik she‘rlarni o‘rganishning yakunlovchi darsida o‘quvchilarda she‘r yuzasidan o‘z nuqtai nazarini ifodalash, she‘rga shaxsiy bahosini bera olish ko‘nikmalarini shakllantirish lozim. Lirik asarlarni o‘rganishdan maqsad shoirning asariga baho bera olishga o‘rgatish bo‘lsa, adabiyotning asl vazifasi o‘quvchilarni badiiylilikni, go‘zallikni anglashga, uni his eta olishga o‘rgatishdan iboratdir.

Mumtoz adabiyotga: “milliy va jahon badiiy madaniyati xazinasini tashkil etgan, ko‘pchilik tomonidan tan olingan mashhur asarlar silsilasi” – deya ta’rif beriladi. Darhaqiqat, mumtoz adabiyot

adabiyotimizda salmoqli o‘rin egallaydi. Buyuk ajdodlarimizning beqiyos, durdona asarlarisiz adabiyotimizni tasavvur etish imkonsiz. Ularni o‘rganmoqlik, anglamoqlik va yosh avlodga o‘rgatmoqlik har bir ona tili va adabiyot o‘qituvchisining birlamchi vazifasi hisoblanadi. Bir qarashda mumtoz adabiyot o‘qituvchilar uchun ham, o‘quvchilar uchun ham biroz mushkul va tushunarsizdek tuyuladi. Bunga sabab sifatida esa ushbu asarlarning eski o‘zbek tili va yozuvida bitilganligini ko‘rsatishadi. Ammo bularning hech biri o‘rinli sabab bo‘la olmaydi. Chunki filolog olimlar tomonidan mumtoz adabiyot namunalarini o‘rganish borasida ko‘plab tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. (masalan...) A.Hojiahmedovning “Mumtoz badiiyat lug‘ati”, D.To‘xliyevaning “Maktab darsliklaridagi mumtoz asarlar lug‘ati va izohi”, Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati 4 jildligi, shuningdek, turli dastur va elektron lug‘atlar shular jumlasidan. Shu bilan birga ko‘plab olimlarimiz tomonidan mumtoz adabiyot namunalarini tahlil va tabdil qilish bo‘yicha ko‘plab samarali ishlar (dissertatsiya, monografiya, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, ilmiy maqola va tezislari) amalga oshirilmoqda. Demakki, bu sohada bilimimizni oshirish uchun bizdan faqat istak va ilm yo‘lida harakat talab etiladi. Chunki ushbu mavzularni o‘quvchilarga o‘qitish, o‘rgatish, ularning savollariga to‘liq va to‘g‘ri javob berish uchun o‘qituvchining o‘zi bu mavzularni batafsil bilishi va doimiy tarzda bilimini oshirib bormog‘i lozim. Shundagina mavzudan, darsdan ko‘zlangan maqsadga to‘laligicha erishish mumkin.

Mumtoz adabiyotimiz tarixida adabiy tur tushunchasi o‘ziga xos ifoda shakllaridan iborat bo‘lgan. Bunda adabiy asarlar asosan nazm va nasr yo‘nalishlariga bog‘liq holda tahlil qilingan. Nazm va unga mansub janrlar badiiy asarlarning asosiy ifoda shakli bo‘lib, ularga nasrdan ko‘ra “poyasi biyikrak” (martabasi yuksakroq) deb qaralgan.

Mumtoz adabiyot namunalari bo‘lgan doston, g‘azal, ruboiy, qit‘a, tuyuq, chiston kabilarni adabiyot darslarida o‘qitish maktablarda 5-sinfdan boshlanadi. Quyidagi jadvalda adabiyot darslarida 5-10 sinflar davomida o‘rganiladigan mumtoz adabiyot namunalari bilan tanishishingiz mumkin:

Sinf	Mumtoz adabiyot namoyondasi	Darslikda berilgan asari
5	1) Alisher Navoiy 2) Zahiriddin Muhammad Bobur 3) Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy 4) Sa‘diy Sheroziy	“Hayrat ul-abror” dostonidagi “Sher va durroj” hikoyati Ruboiylari “Sayohatnoma” “Guliston” asaridan hikoyatlar
6	Alisher Navoiy	Ruboiylari
7	Alisher Navoiy Jahon Otin Uvaysiy	Qit’alar va fardlar G‘azal va chistonlar
8	Lutfiy Alisher Navoiy Nodira	G‘azal va tuyuqlar Ruboiy, tuyuq va fardlar G‘azallar
9	Alisher Navoiy Xoja Muhammad Rizo Ogahiy Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat	“Farhod va Shirin” dostoni Hikoyatlari G‘azallari Musaddas va g‘azallari
10	Alisher Navoiy Boborahim Mashrab Anbar Otin	“Xamsa” “Saddi Iskandariy” dostonidan parcha G‘azallari “Risolayi falsafayi siyohon”

(Yuqoridagi jadvalda 11-sinf darsligi berilmaganligi boisi adabiyot darsliklari yangilanganligi sababli 2022-yilda nashr etilgan 10-sinf adabiyot darsligi va 2018-yilda nashr etilgan 11-sinf adabiyot darsliklaridagi mumtoz adabiyot namoyondalari va ularning asarlari deyarli bir xil. Bu albatta darsliklarning yangilanganligi bilan bog‘liq.)

Mumtoz asarlarni adabiyot darslarida o‘qitishda uning qaysi janrga mansubligi, o‘sha janrga xos bo‘lgan janriy xususiyatlarni anglash va o‘quvchilarga ham buni anglatish nihoyatda muhim. Shuningdek, o‘qituvchi ushbu mumtoz adabiyot namunalari qaysi vaznda yozilgani va ularni ifodali to‘g‘ri o‘qish qoidalarini ham o‘rgatishi ham zarur. Quyida 7-sinf adabiyot darsligida berilgan mumtoz adabiyot namunalari

janriy xususiyatlariga ko'ra zamonaviy metod va usullar asosida o'rganiladi, tahlil etiladi.

Qit'a (ar.) – parcha, bo'lak, qism). Ikki baytdan bir necha baytgacha hajmda bo'lgan, juft misralari qofiyalanib, toq misralari ochiq qoluvchi (ba , va, ga ...) lirik janr. Qit'a, asosan, falsafiy, ijtimoiy va axloq-odob bilan bog'liq mavzularda yaratilgan. Shuningdek, qit'a nasriy asarlarda ma'lum bir masala haqidagi fikr-mulohazalarga yakun sifatida "qissadan hissa" tarzida keltirilgan.

Qit'alarni adabiyot darslarida o'qitishda pedagoglar qit'aning ma'no-mazmunini to'g'ri anglatish va qit'aning badiiyatini yanada ochib berishga e'tibor qaratishi lozim. 7-sinf adabiyot darsligida Alisher Navoiy qalamiga mansub 9 ta qit'a berilgan. Qit'aning ma'no-mazmunini anglash uchun o'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda sinf ishi sifatida quyidagi jadvalni to'ldirishlari mumkin:

Qit'a	Qit'aning qisqacha mazmuni	Qit'ada madh etilgan fazilat	Qit'ada qoralangan illat
3	Komillikka intilish, kamolotga yetish uchun harakat qilish	Komillik	Komillik sari intilmaslik

Ushbu jadvalni to'ldirish vazifasi sinf ishi sifatida berilishi samarali, chunki bunda topshiriq o'qituvchi bilan hamkorlikda jamoaviy ishlash natijasida to'g'ri, tez va tushunarli tarzda bajariladi. Bu vazifani doskada bajarish ayni muddao bo'ladi. Qarabsizki, qiyin va tushunarsizdek tuyulgan mavzu o'quvchilar uchun qiziqarli, tushunarli va foydali bo'ladi.

Kimki maxluq xizmatig'a kamar
 Chust etar – yaxshiroq usholsa beli.
 Qo'l qovushturg'ucha bu avlodur
 Ki aning chiqsa egni, sinsa ili.
 Chun xushomad demakni boshlasa kosh
 Kim tutulsa dami, kesilsa tili.

Ushbu qit’ada Xoliq – yaratuvchi, ya’ni xudo. Maxluq – yaratilgan. Odam ham maxluqotlardan biri. Agar shu ma’no e’tiborga olinsa, qit’aning ilk baytidan shunday xulosa chiqarish mumkin: qaysi kishiki o’zi singari maxluq xizmatiga bel bog’lasa, bundan ko’ra uning beli bo’laklangani yaxshiroqdir. Lekin ayni o’rinda “maxluq” so’zidan ko’zda tutilgan ma’no boshqa, ya’ni kimki yaramas va tuban kimsalarga yugurdaklik qilsa, beli ushalgani ma’qulroqdir, deyilyapti.

“Qo’ling sinsin!”, “Tiling kesilsin!”, “Nafasing o’chsin!” – bular xalqning qarg’ish iboralari. Mir Alisher Navoiyning xushomad va tilyog’lamalikka munosabati naqadar salbiy bo’lganligini shundan ham anglash mumkinki, u kishi xushomadgo’yni la’natgagina loyiq deb hisoblab qolmay, balki uning uchun qarg’ish ravoligini ham ta’kidlaganlar. Xushomadgo’y til – aldoqchi. U avrab-aldaydi, aldab dog’da qoldirishni xohlaydi. Hazrat Navoiy bunday makrboz tillarning kesilishini tilaganida naqadar haq bo’lganlar.

Nokas-u nojins avlodin kishi bo’lsun debon,
 Chekma mehnatkim, latif o’lmas kasofat olami.
 Kim, kuchuk birla xo’dukka necha qilsang tarbiyat,
 It bo’lur, dog’i eshak, bo’lmaslar aslo odami.

Shunday kimsalar borki, ularning “nokas-u nojins”ligi go’yoki peshonasiga yozib qo’yilganday ravshan. Ulardagi nokaslikni o’zgartirib bo’lmaydi. Bunda tarbiya ham, ta’sir ham ojiz. Hazrat Navoiy shunaqa zotlarning zurriyodidan odam chiqmasligiga ishonadilar. Va ular uchun “kishi bo’lsun debon” mehnat, mashaqqatni bo’yinga olmaslikka chaqiradilar.

Yuqoridagi kabi tahlillar yordamida jadval quyidagi ko’rinishda to’la shakllantiriladi:

Qit’a	Qit’aning mazmuni	qisqacha	Qit’ada madh etilgan fazilat	Qit’ada qoralangan illat
1	To’g’ri va insonlarning ishi doim yurishishi haqida	halol	To’g’rilik, halollik	

2	Yomon odamni o'zgartirishga harakat qilmaslik, ularning baribir o'zgarmasligi haqida		Nokaslik, nodonlik
3	Komillikka intilish, kamolotga yetish uchun harakat qilish	Komillik	Komillik sari intilmaslik
4	Alloh rizoligi uchun bel bog'lash lozimligi		Tuban kimsalarga xizmat qilish, tilyog'lamalik
5	Tilni tiyish, Noo'rin so'zlamaslik	Tilga ehtiyot bo'lish	O'rinsiz so'zlash
6	Inson o'rgangan ilmiga amal qilishi lozimligi, agar amal qilmasa o'rganishi befoyda ekanligi haqida	O'rgangan ilmiga hayotida amal qilish	O'rgangan ilmiga o'zi amal qilmaydiganlar
7	Solik ya'ni oshiq nafsini yengmasdan turib, Alloh haqiqatiga erisha olmasligi haqida		Badnafslilik, nafsga bo'yin egish
8	Boylikka berilish ham insonni, ham uning qalbini xarob qilishi Haqida		Ochko'zlik, boylikka o'chlik
9	Inson uchun birovlarining aybini yopish ham bir yaxshi hunar ekanligi haqida	Birovlarning aybini yopmoqlik	

Fard (ar.) – yakka, yolg'iz, yagona. Bir baytdangina iborat eng kichik mustaqil she'r shakli, a-a yoki a-b tarzida qofiyalanadi. Fard bir baytdan tashkil topgan bo'lsa-da, unda shoirning axloqiy-ta'limiy fikrlari, falsafiy qarashlari qalamga olinib, ixcham poetik xulosa ifodalanadi. Shu ma'noda fardlar ko'pincha aforizm xarakteriga ega bo'ladi.

O'quvchilar fard haqidagi nazariy ma'lumotga ega bo'lgach, ularni o'qib, mazmunini anglashlari lozim. Bunda ularga quyidagi

topshiriqni taqdim etish mumkin:

1	Kishi aybing desa, dam urmag‘ilkim, ul erur ko‘zgu, Chu ko‘zgu tiyra bo‘ldi, o‘zga aybing zohir aylarmu?	a)	Birovning aybini yuziga aytishdan avval o‘z ayblaring haqida o‘yla
2	Kishi aybin yuziga qilma izhor, Taammul ayla o‘z aybingg‘a zinhor.	b)	Hasadgo‘ylar el ichida past bo‘lib, xor bo‘lishi aytilgan.
3	Men – sinuq, ko‘nglum – sinuq, sabrim uyi xud yerga past, Bilmagay holim shikastin, ko‘rmagan buncha shikast.	c)	O‘zi yemasdan birovga berish muruvvat bo‘lsa, qilgan yaxshiligini minnat qilmasdan, birovga bildirmasdan qilish futuvvatdir.
4	Yetar chu rizqing, agar xoradur va gar yoqut, O‘zungga yuklama anduh tog‘in, istab qut.	d)	Mening holatimni faqat shu ahvolga tushgan, boshidan o‘tkazgan insongina biladi.
5	Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo‘q, Futuvvat barcha qilmoqdur, demak yo‘q.	e)	Har bir bandani rizqini Alloh berguvchidir, bu dunyo tashvishlari deya ko‘p g‘am yema.
6	El ichra, ey hasud, seni qildi haq zalil, Kim nohaq elga zidsen-u, haq molig‘a baxil.	f)	Aybingni aytgan inson sen uchun ko‘zgudir.

Javoblar: 1f, 2a, 3d, 4e, 5c, 6b

Ushbu jadval ko‘rinishidagi testdan har bir o‘quvchi uchun alohida tarqatma material sifatida foydalanish ham, doskada quyidagi kabi moslikni topish topshirig‘ini berish ham mumkin.

G‘azal (ar.) – oshiqona so‘z, ishq izhor qilish, ayollarni madh etish ma’nolarini bildirib, Sharq mumtoz she’riyatida keng tarqalgan lirik janr hisoblanadi. G‘azal 3 baytdan 19 (21) baytgacha hajmda bo‘ladi va a-a, b-a, d-a, e-a... tarzida qofiyalanadi. Turkiy adabiyotda 5-10 baytli g‘azallar ko‘p uchraydi. Adabiyotshunoslikda g‘azal janri haqida ilk ma’lumot Shams Qays Roziyning “Al-mo‘jam” asarida (13-a.)

keltirilgan. Olim bunda gʻazalning asosiy lugʻaviy maʼnosi ayollarga muhabbat qoʻyish bilan bogʻliq ekanligiga eʼtibor qaratadi. Gʻazalning birinchi bayti matlaʼ yoki mabdaʼ, oxirgi bayti esa maqtaʼ deb ataladi va aksar hollarda maqtaʼda shoir taxallusi qoʻllaniladi. Baʼzan taxallus maqtaʼdan oldingi baytda qoʻllanilishi ham mumkin. Gʻazal – mumtoz lirikaning asosi desak hech mubolagʻa boʻlmaydi. Gʻazallar aruz vaznida yozilishi bilan hozirgi sheʼr shakllaridan tubdan farq qiladi. Ularda koʻplab arab va forsiy soʻzlar, sheʼrning shakl va mazmuniga aloqador koʻplab sheʼriy sanʼatlar ham mavjud boʻladi. (zamonaviy adabiyotda yaratilgan gʻazallar) Adabiyot darsliklarida berilgan gʻazallarni darslarda tahlil qilishdan avval oʻquvchilar gʻazalning tuzilishi, tarkibiy qismlari va uning oʻziga xos xususiyatlari haqida puxta nazariy bilimga ega boʻlishi lozim.

1) _____ – **misra**

2) _____

_____ – **bayt** (ikki misra)

3) _____ kelmadi,

_____ kelmadi. – **radif** (maʼnoni kuchaytiradi)

4) _____ mubtalo _____

_____ oshno _____ – **qofiya** (ohangdoshlikni

taʼminlaydi)

5) _____ **dodim** _____

_____ **faryodim** _____ – **raviy** (tirgak tovush) **d** harfi.

Qofiyalanishi: (aa, ba, da...)

_____ jonon**n**imni _____ a

_____ davron**n**imni _____ a

_____ b

_____ darmon**n**imni _____ a

_____ d

_____ sulton**n**imni _____ a

Birinchi bayt matʼlada
misralar oʻzaro
qofiyalangan

Keyingi baytlarda esa
ikkinchi misralar
qofiyalangan

Qofiyalanish tartibi yuqoridagi kabi oʻrgatilsa oʻquvchilarning xotirasida yaxshi saqlanib qoladi va gʻazallar qofiyalanishi haqida

nazariy ma'lumotga ega bo'ladi.

O'quvchilar yuqorida g'azalning tuzilishi, tarkibiy qismlari, qofiyalanish tartibi kabilar haqida puxta bilimga ega bo'lgach, endigi navbat g'azallarning ma'no-mazmunini, shuningdek ulardagi she'riy san'atlar orqali g'azal badiiyatini anglashga keladi. 7-sinf adabiyot darsligida berilgan Uvaysiyning "Sog'indim" radifli g'azalini ham shakl jihatidan, ham mazmunan tahlil qilsak.

Tahlil

Hajmi: 7 bayt

Qofiyalanishi: aa,ba,da...

Radifi: sog'indim

Raviy: n tovushi

She'riy san'atlar: *tazod* (gado – shoh; dard – darmon), *nido* (ey do'stlar), *ta'did* (azizim, yolg'izim, davlatli sultonim; ko'z-u ko'nglim ziyosi, mohi tobonim), *tadrij* (musofirman, g'aribman, bekas-u benavodurman), *mubolag'a* (yig'larman ro'zi-shab (kecha-yu kunduz) tinmay), *istiora* (mohi tobonimi)

G'azalning bosh mavzusi: onaning farzand sog'inchi

Yuqoridagi she'riy san'atlar ichida o'quvchilarga notanishlari (*ta'did*, *tadrij*, *nido*) ham mavjud bo'lib, ular haqida ham o'quvchilarga qisqacha ma'lumot berib o'tish ham mumkin. Masalan: *nido* – jonli yoki jonsiz predmetga murojaat qilish; *ta'did* –she'rda mazmunan yaqin bo'lgan uyushiq bo'laklardan foydalanish kabi.

Darslikda berilgan yana 2 ta g'azalni shu taxlit tahlil qilishni o'quvchilarga vazifa sifatida berish mumkin. G'azal tahlil qilish ko'nikmasini o'quvchilarda shakllantirib borish zarur, chunki g'azal tahliliga oid savollar ona tili va adabiyot fanidan OTM (Oliy Ta'lim Muassasa) larga kirish imtihonida va BMBA (Bilim va malakalarni baholash agentligi) tomonidan tashkil etiladigan Milliy ssertifikat imtihonlarida talabgorlarga taqdim etiladi.

O'quvchilarni mumtoz adabiyot namunalariga qiziqtirish maqsadida turli ko'rgazmali qurollar, metodlardan foydalanish mumkin. Fikrimizning isboti sifatida Uvaysiy qalamiga mansub "Aylamakni mandin o'rgandi" radifli g'azalini adabiyot darsida o'qitishni "Rasmlar

so‘zlaganda...” metodi asosida tahlil etaylik. Buning uchun bizga quyidagi 7 ta rasm kerak bo‘ladi. Bu suratlar doskaga magnit bo‘lakchalari yordamida yopishtiriladi. O‘quvchilardan e’tiborini ushbu rasmlarga qaratishlari so‘raladi. Har bir rasm g‘azaldagi ma’lum bir baytga aloqador bo‘lib, bu qaysi bayt ekanligi va ushbu rasmdagi predmet, joy yoki tabiat hodisasiga aloqador o‘xshatish yoxud uning g‘azal badiiyatidagi ahamiyatini, ushbu so‘z orqali qanday ma’no ifoda etilganini topish so‘raladi. Yanada aniqlashtirish maqsadida har bir rasm bo‘yicha o‘quvchilarga quyidagi 3 savol bilan murojaat etish mumkin:

1. Ushbu rasm (misol uchun 3 rasm)ga doir fikr g‘azalning nechanchi baytida berilgan?

2. Rasmda tasvirlangan predmet, joy yoki tabiat hodisasiga aloqador o‘xshatish yoxud uning g‘azal badiiyatidagi ahamiyatini ayting.

3. Ushbu rasm baytda qanday ma’no ifodalashga xizmat qilgan.



Bu kabi rasmlar avvalo o'quvchilarning e'tiborini tortadi, darsga, g'azalga qiziqishini yanada orttiradi. Ushbu metodning afzalligi shundaki, yuqoridagi savollarga javob berish uchun o'quvchilar g'azalga qayta-qayta murojaat qilishadi, uni tahlil qilishga harakat qilishadi. O'quvchilarda g'azalni tahlil qilish davomida turli savollar yoxud ma'lum so'zlarning izohini tushunmaslik holatlari yuzaga kelsa, o'qituvchiga murojaat etishlari mumkin. Pedagog bu holatda albatta savollarga javob berishi, o'quvchi uchun tushunarsiz bo'lgan so'zga izoh berishi, ma'nosini izohlashi lozim. Darsdagi bu kabi o'quvchi va o'qituvchining hamkorlikda ishlashi dars samaradorligini yanada oshiradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, adabiyot darslarida mumtoz adabiyot namunalarini o'qitishda pedagoglar badiiy asar tili bilan shuningdek, o'quvchilarga tushunarsiz bo'lgan so'zlar bilan alohida ishlashlari, asarning g'oyasi va mazmuni bilan birga badiiyati (badiiy san'atlar va so'z qo'llash mahorati)ga e'tibor qaratishlari lozim. Shuningdek, o'quvchilarning o'z fikrlarini yozma bayon etish ko'nikmalarini shakllantirish hamda og'zaki nutqini o'stirish maqsadida bayon, esse va insholar yozdirish ham yaxshi samara beradi.

3.3. O'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda yangi tur va janrlardan foydalanish

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan globallashtirish jarayoni dunyo yangiliklaridan xabardorlik va ularni o'rganib o'z vaqtida ta'lim jarayoniga olib kirishni taqozo etadi. Yoshlarimizni operativ fikrlaydigan, tezkorlik bilan harakatlanadigan dunyo yoshlari bilan raqobatbardosh qilib tarbiyalashimiz zamon talabidir. Hozirgi ta'lim jarayonida talab etilayotgan uzundan-uzoq yozma ishlar ko'pchilik o'quvchilarni qiziqitirmay qo'ydi. Ta'limdan zeriktirmaslik va zo'riqishning oldini olish uchun mashg'ulotlar jarayoniga yangiliklar olib kirish o'quvchilarda, avvalo, motivatsiya shakllantiradi, tafakkurini o'tkirlaydi, zukko va topqir qilib tarbiyalaydi. O'quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirishda bunday matnlar bilan tanishtirib borish, ularning ijodkorligini oshiradi, mantiqiy fikrlashga o'rgatadi hamda zerikishning oldini oladi va tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Matn yaratish jarayonida ixcham, lo'nda va sermazmun asarlardan foydalanish o'quvchilarda badiiy savodxonlikni oshiradi, badiiy asarlardan zeriktirmaydi, kitob o'qishga ishtiyoqini oshiradi.

Hozirgi kunda yosh ijodkorlar orasida drabblar nomi bilan yaratilayotgan hikoyalarni o'qigan kitobxonda zehn va idrok o'sishi bilan bir qatorda shu singari hikoyalar yaratishga ishtiyoq paydo bo'ladi. Drabblar hikoyaning o'ziga xos kichik janri bo'lib, (inglizcha drabble – parcha, bo'lak) – hikoyaning o'ziga xos kichik janridir. Unda, asosan, biror voqeaning qisqacha tarixi beriladi. Kutilmagan yechim bilan yakunlanuvchi eng qisqa va tugal hikoya deyish mumkin. 1980 – yilda Buyuk Britaniyada drabbl deb nomlangan hikoyanavislikning yangi janri paydo bo'ldi. Bu kichik asar bor – yo'g'i 100 so'zdan iborat bo'lib, tugallangan g'oya va o'ziga xos shaklga ega bo'lgan. Dastlab Birmengem universitetida g'aroyib so'z o'yini sifatida qabul qilindi. 1987 – yilda Stiv Moss “New Time” jurnali orqali tanlov o'tkazilib, unda ishtirok etuvchilar oldiga 55 so'zdan iborat tugallangan hikoya yozish topshirig'i qo'yildi va bu ish amalga oshirildi. Shunday qilib drabbl degan yangi janr vujudga keldi. Bugungi kunda bu janr ko'pchilikni qiziqtirib qo'ydi. Jumladan, o'zbek ijodkorlari orasida ham bu janrda o'zlarini sinab ko'rayotgan yosh qalamkashlar ijod qilishmoqda. Masalan, Dilafruz To'ychiyeva qalamiga mansub “Sirli sandiq” nomli drabbl hikoya kitobxoni mehr-oqibat, ota-onani qadrlash tuyg'ularini singdiradi.

Uyning bir burchida katta-kichik sovg'alar, undan sal narida esa anchagina eskirgan sandiq bor edi. Sultonning e'tibori avval rangin qog'ozlarga o'ralgan tuhfalarga tushdi. Kecha oqshom bu yerda-bazmu jamshid avjida edi. Quloqqa xush yoquvchi qadax so'zlari, har xil alyorlar, yangradi. Shularni o'yladi-yu, uning yuziga tabassum yugurdi. Beihthiyor ko'zi tanish eski buyumga tushdi. Negadir qiziqishi ortib ketdi shu tobda.

Har gal qishloqqa borganda dadasi shu matoh oldida goh kulib, goh yig'lab o'tirar edi. Sababini so'rasa:

“Eh bolam, muni ichida eng qimmatli boyligim bor”-deb javob berardi. -U nima bo'lishi mumkin...- deb pichirladi yigit.

*Qiziqib sandiq dastasiga qo‘l urdi. Ochdi-yu, turgan joyida qotib qoldi.
Tomog‘iga nimadir tiqildi, mijjasida yosh qalqidi.*

Ichida o‘zining yoshlikdagi o‘yinchoqlari, kiyimlari turardi...

Badiiy adabiyotda insonning mohiyatini anglash, uning his-tuyg‘u va kechinmalarini ifodalash bosh omillardan biridir. Shunday ekan, inson ruhiy olami tasviri adabiyotda eskirmaydigan, muhim masala bo‘lib qolaveradi. Adabiyotshunoslikda inson ruhiyati ifodasi badiiy psixologizm deyiladi va psixologizm qahramonning ichki dunyosiga chuqur kirib borish atroflicha, keng tasvir, uning qalbidagi turli holatlarni tahlil etish, nozik hissiyot va kechinmalarga e‘tibor berish kabi masalalar birlamchi o‘rinda turadi. Har qanday shaxsning shakllanishida badiiy asar o‘qishning beqiyos o‘rni bor. Negaki badiiy asardagi qahramonlarning holat-u kayfiyatlari, iztirob-u quvonchlari, haq-u nohaqliklari bilan tanishish va tuyish orqali kishida odamiylik sifatlari qaror topadi. Odam o‘zini o‘zga bilan solishtira bilganda, o‘zini boshqaning o‘rniga qo‘ya olgandagina chinakam odamga aylanadi. Shundagina shaxs ijtimoiylashadi, ijtimoiylashmagan odam esa individdan farqi yo‘q. Chunki unda iste‘molchilikdan o‘zga biror ezgu sifat shakllanmagan bo‘ladi. Badiiy asar va uning qahramonlari taqdiri bilan tanishish orqali odam o‘ziga yoqimli bo‘lgan narsaning o‘zgaga ham ma‘qul bo‘lishini, o‘ziga yoqmaydigan tutum o‘zgaga ham yoqmasligini bilib olsa, tuyib yetsa, unda odamiylik sifatlari tarkib topa boradi. Albatta, yangi vaziyat, yangi sharoit adabiy jarayonda ham yangicha yo‘lga qo‘yishni talab qiladi. Bugungi odam dunyodan uzilib yashay olmagan singari, ijod ahli bugungi milliy rivojimiz uchun ham ochun tajribasidagi yangiliklardan chetda turib, ko‘zlagan natijalarga erisha olmaydi. Bugunni bilish, ertaning yo‘nalishlarini belgilash zamon bilan hamnafas yashashdan, dunyo yangiliklarini yaxshilab o‘zlashtirishdan boshlanadi. Badiiy asar o‘qish kitobxonga ikki jihatdan g‘oyat muhim yumush sanaladi. Birinchidan, u odamni kitobga bog‘lab qo‘yadi: asar qahramonlari bilan keyin nima bo‘lganini bilishga qiziqish uyg‘otadi, hayotdagi turli-tuman kutilmagan voqea-hodisalar bilan tanishtiradiki, buning o‘zi kitobxonda qiziqish uyg‘otadi. Inson o‘ziga mutlaqo notanish odamlar, o‘zgacha taqdirilar bilan tanishadi, ijodkor

mahorati sabab ularga befarq bo‘lolmaydi, yangi hayot bilan tanishadi va bundan zavq oladi. Holbuki, o‘qilgan asar o‘quvchi tomonidan ilk bor kashf etilishidanoq, uning qalbida iz qoldirishi zarur. Badiiy asar o‘qishning ahamiyatini ta’minlaydigan ikkinchi hal qiluvchi jihat: badiiy asar o‘quvchida o‘zgani his etish, bironvga tuyg‘udosh bo‘lish fazilatini shakllantiradi. Bu ilmiy tilda empatiya deyiladi. Globallashib borayotgan hozirgi shoshqin dunyoda yashayotgan odamlarda aynan empatiya tuyg‘usi kamayib bormoqdaki, badiiy kitob o‘qish o‘sha yetishmovchilikni to‘ldirishga yordam beradi. Shuning uchun ham kitobxon yoshlarni tarbiyalash maqsadida adabiy uslub va janrlar ilmi uchun adabiy asoslarni belgilash hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ya’ni adabiy jarayonda dunyo miqyosidagi yangiliklardan boxabar bo‘lib turish nima maqsadda, nimani va qanday asarlar yaratilish kerakligini aniq belgilab olish zamon talabi darajasiga ko‘tarilmoqda. Bugungi kunda asarlar jonli va ravon tilda, sodda va ixcham usulda yaratilishi talab etilmoqda. Hazrat Alisher Navoiy bejizga g‘oyat siqiq jumalarga katta ijtimoiy va badiiy voqelik va maqsadni singdirishga harakat qilmagan. Bunday asarlar yaratish barcha zamonlarda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lsa bugungi kunda yanada ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Chunki yoshlarimiz kitob mutolaasiga sarflagan vaqtini internet tarmoqlaridan o‘z qiziqishlari yo‘lida foydalanmoqda. Biz bugungi yoshlarni badiiy asarlarga qiziqtirishimiz, buning uchun esa siqiq va lo‘nda jumlar bilan yaratilayotgan yangi-yangi asarlardan foydalanmog‘imiz zarur. Hozirjavob, idrokli, yuksak tafakkurli kitobxon o‘quvchini tarbiyalashda ham bunday usulda yaratilgan hikoyalardan unumli foydalanmoq maqsadga muvofiqdir.

Ushbu matnlardan esse yaratishda ham unumli foydalanish mumkin. So‘nggi paytlarda esse atamasi faol iste’molga kirdi. Rivojlangan mamlakatlar oliy o‘quv yurtlarida o‘qishga kirish uchun yoki IELTS kabi til bilish salohiyatini baholovchi imtihonlarda esse yozish topshiriqlari beriladi. Bu shakldagi sinov mashqlari O‘zbekistonda ham ommalashyapti. G‘arb ta’limiga xos bo‘lgan esse yozish an’anasining kirib kelgani va ommalashgani bilan bog‘liq. Masalan, milliy sertifikat olish istagida bo‘lgan o‘qituvchilardan esse yozish so‘rallyapti. Aslini

olganda bizning ona tili va adabiyot o'qitish tizimimizda matn tuzish, diktant, bayon va insho yozish kabi nazorat ishlari shu yillargacha o'tkazilib kelinardi. Zamon bilan hamhafas yashash, ta'lim sohasida, fan doirasida jahonning ilgo'r tajribalarini bizning tizimga joriy etish, shu yo'l bilan sifatli ta'lim jarayonlaridan andoza olish va yuksak natijalarga erishish hayotiy zaruriyatga aylandi. Shuning uchun ham ta'lim tizimimizga kirib kelgan esse yozishdek ijodiy ish ham jahon ta'lim tizimida o'zining oqlagan ijodiy ish turi sifatida bizning ta'limga kirib keldi. Va bugungi kunda bu ijodiy ishdan samarali foydalanish yangi darsliklardan keng o'rin oldi. Yangi darsliklardagi mavzular albatta, o'quvchining esse yozish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan. Nima uchun esse yozishni joriy etilganiligi haqida o'ylab ko'riladigan bo'lsa, esseda o'quvchi o'z shaxsiy fikr – mulohazasini, munosabatini ifodalay olishiga e'tibor qaratilgan. Esse yozish qonun –qoidalari quyi sinflardan o'quvchilarga tushuntirib borilsa, o'rgatilsa, ko'nikma va malaka hosil qilinsa, esse yozish har bir o'quvchining qo'lidan kela olishi mumkin. Ko'chirmakshlik kabi xunuk odatlar yuzaga kelmasligini ham oldini oladi. Demak, shuning uchun o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikr – mulohaza, shaxsiy munosbatini ifodalay olishi uchun ham esse yoza olish salohiyatlarini takomiliga yetakaza olish biz tilchi ustozlarning zimmamizdagi vazifa. Bu esa ularning ona tilimizdan milliy va xorijiy tillardan ham kerakli Xalqaro sertifikatlarni qo'lga kiritia olishlarida ham o'z natijasini ko'rsatishi kerak. Shu o'rinda esse ijodiy ishining talab va qoidalariga to'xtalib o'tish joiz. Esse - fransuz tilida essai tajriba, ingliz tilida «essay», «assay-intilish, ijodiy sinov, ocherk, lotincha «exagium», - o'ylash» degan ma'noni bildiradi. Esse - o'quvchining aniq mavzu yuzasidan shaxsiy fikr-mulohazalari asosida yoziladigan ixcham ijodiy ish hisoblanadi. Uning o'zgachaligi mavzuda ko'tarilayotgan muammoga fakt va dalillarni o'rinli keltirish orqali o'z munosabatini bildirish. Shu o'rinda esse bilan inshoni taqqoslash o'rinli, bu esa esse haqidagi ko'nikmalarning kengayishiga, essenini yanada yaxshi tushuna olishga yordam beradi. Esse va inshoning o'xshash va farqli jihatlari quyidagi o'rinlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Insho-arab tilidan olingan so'z bo'lib, “ bino qilish, qurish”, degan ma'noni

bildiradi. Insho o'quvchining o'zbek adabiyoti fanidan olgan nazariy bilimlarini o'z fikri va dunyoqarashi bilan bog'lab yozadigan ijodiy mehnati. Bunda o'quvchidan o'qilgan badiiy asami chuqur o'ylashi, tahlil qilishi, so'ng badiiy til bilan ta'sirli ifodalashi talab etiladi. Inshoda o'quvchi berilgan mavzu asosida batafsil ijodiy fikrlashi, keng badiiyat asosida inshoga qo'yilgan rejaga muvofiq ifoda etishi mumkin. Esse esa erkin kompozitsiya asosiga quriladigan, tuzilish jihatdan ixcham nasriy asar bo'lib, badiiy-publitsistik janrning kichik bir turi. Esse muayyan bir reja asosida yozilmaydi, epigrafi qo'yilmaydi. Insho-tuzilishi jihatdan hajmi keng, fan bo'yicha egallangan nazariy bilimlar asosida yoziladigan ijodiy ish. Insho uchun reja tuziladi va epigrafi yoziladi. Essening turlari bir necha xil bo'lib, yozilish maqsadiga ko'ra uning qay turga mansubligi aniqlanadi. Insho shartli ravishda uch guruhga bo'linadi: adabiy, ijodiy va erkin mavzudagi insholar. Inshodan ko'zda tutilgan maqsad o'quvchining yozma nutqini rivojlantirish. Essening maqsadi - o'quvchini faol va tanqidiy va mantiqiy fikrlashga o'rgatish, o'z mulohazalarini dalillashga yo'naltirish, til unsurlaridan o'rinli foydalanish orqali fikrni to'g'ri yetkazib berish ko'nikmalarini shakllantirish. Esse yozish o'quvchilarga o'z fikrini erkin bildirishga, mavzuga aloqador ma'lumotni to'g'ri qabul qilishga va tushunishga, muammoning yechimini topishga aloqador dalillardan foydalanib, o'z xulosasini aniq va savodli bayon etishga imkon yaratadi. Asosiysi , keltirilgan fakt va dalillarning o'rinli qo'llanishidir. Essening tuzilishi Esse 3 qismdan iborat. 1. Kirish Kirish - mavzuni mantiqiy va uslubiy jihatdan bog'lab yoritish olish . Bu bosqichda berilgan mavzuni ifodalash uchun savolni to'g'ri qo'yish muhim. Chunonchi, bu o'rinda esse yozuvchi «Kirish qismida ushbu mavzuga ma'lumot berish kerakmi?», «Men tanlagan mavzuning dolzarbligi qay darajada?», «Men esse yozish davomida o'z fikrimni dalillash uchun qanday manbalarga tayanaman?», «Men kalit so'zdan kelib chiqqan holda tezis qo'ya olamanmi? kabi savollarni o'z oldiga qo'yishi va shuning atrofida fikr yuritgani ma'qul. Essening kirish qismi kamida, ikki xatboshidan iborat bo'lishi va har bir xatboshida ikki- uch gap ifodalanishi mumkin. O'quvchini qiziqtirish, uning e'tiborini jalb etish maqsadida essening kirish qismi jonli va aniq

yozilishi kerak. Bunda xitob, undov, shaxsiy tajribaga ishora, ritorik so‘roq kabilardan foydalanish o‘rinlidir. Kirish qismida o‘quvchi esse mavzusiga tushuncha beradi, shu orqali uning esse mavzusini qanday tushunganligi aniqlanadi va bu mavzu nima uchun muhim ekanligi yoritiladi. Mavzu va uning dolzarbligi yoritilgandan keyin tezis qo‘yiladi. Tezisdan keyin asosiy qismga bog‘lovchi gap yoziladi. Agar tezis aniq va yaqqol berilsa, gap yozilmasligi ham mumkin. Tezis qo‘yish essening eng muhim shartlaridan biridir. Tezis-essening kaliti. Kaliti topilmasa, essening asosiy maqsadiga yetish qiyin. Tezis - muallifning shaxsiy nuqtayi nazarini bildirib, u asosiy qismda isbotlanadigan fikri yo‘naltiruvchi g‘oya hisoblanadi. Tezis essening kirish qismida yoziladi. 2. Asosiy qism Asosiy bo‘lim - mavzuning nazariy asosi va savolning mazmunini bayon etuvchi bo‘lim. Bunda mavzuga mos barcha bilimlar, asosiy fikr va muammoga bog‘liq dalil va faktlar jamlangan bo‘lib, unda dalillar, xabarlar, turli statistik ma’lumotlardan foydalanib, mavzu yoritiladi, ko‘tarilgan muammoning kelib chiqish sabablari oydinlashtiriladi. Bu jarayon birmuncha murakkabroq kechadi. Shu sababli, asosiy bo‘limni bir necha kichik qismlarga bo‘lish mumkin. Har bir qismni dalillar asosida yoritish asosiy savolga javob topishga ko‘maklashadi, O‘quvchining keltirilgan fakt va dalillarni taqqoslab, o‘z qarashlarini tahlil orqali ko‘rsatib borishi asosiy bo‘limning to‘liq yoritilishiga imkon beradi. Qismlarga to‘g‘ri ajratish va izchillik bilan bayon etish mavzuning yoritilishidagi mantiqiylikni ta’minlaydi.

Esse – erkin kompozitsiyali nasriy adabiy janr. U adabiy, falsafiy, ijtimoiy, publitsistik va boshqa mavzularda yoziladi, muammolar tizimli, ilmiy tarzda emas, balki erkin shaklda talqin qilinadi. O‘zbek adabiyotida esse janrida samarali ijod qilgan adiblardan biri Shukur Xolmirzayev bu janrni “yozuvchiga behad keng erkinliklar beradi” deydi.

O‘qituvchi va o‘quvchilardan talab qilinadigan esselar adabiyotdagi essedan farq qiladi. Biroq ularning umumiy jihatlari ham bor. Har ikkisida ham muallifning fikri, munosabati, qarashlari, taassurotlari yetakchi xususiyatdir.

Inshoda soʻz boyligi, badiiy til vositalaridan keng foydalanish muhim sanaladi. Taʼlim esselarida esa koʻpincha biror muammoli mavzuga munosabat bildirish, unga yechimlar taklif qilish soʻraladi. Bunda oʻquvchi fakt va maʼlumotlardan, iqtiboslardan ham oʻrinli foydalanishi, hayotiy misollar keltirishi zarur. Esse inshoga nisbatan hajman kichik. Unga reja tuzish ham talab etilmaydi. Inshodan oʻquvchining fikrini yozma shaklda va badiiy tarzda ifodalash qobiliyatini oshirish koʻzda tutilsa, esse fikrlash, fikrni dalillash va munosabatni bayon eta olishni shakllantirishga xizmat qiladi. Essening turiga qarab unga sarflanadigan vaqt ham turlicha boʻladi. Essening mulohazali, tavsiflovchi, umumlashtiruvchi, dalilli kabi turlari bor. Masalan, mulohazali yoki tavsiflovchi esseda vaqtni asosan yozishga sarflanadi, dalilli esseda fakt va maʼlumotlarni izlash, qayta ishlashga ham yetarlicha vaqt ajratish kerak boʻladi. Quyida esse turlarining baʼzilariga misollar keltirami: Mulohazali esse namunasi Mavzu: Erkka intiluvchi insonni yengib boʻlmaydi. Men esse yozish uchun ushbu mavzuni tanladim. Chunki Abdulla Qahhorning «Dahshat» hikoyasini oʻqiganimda, nihoyatda taʼsirlanganman. Asarga qoʻyilgan nom kishini oʻziga jalb etadi. Nega hikoya «Dahshat» deb nomlangan? Erk oʻzi nima? Erksizlik-chi? Erkparvar inson qanday boʻladi? Nega odamzod erkka talpinib yashaydi? Erk – kishining oʻz xohishi bilan ish-harakat qilish huquqi. Erksizlik –tobelikdagi hayot, haq-huquqsizlik. Mening fikrimcha, hikoya qahramoni Unsin erk yoʻlida qurbon boʻldi. Nima uchun? Unsin – oʻn oltiga toʻlib-toʻlmagan qiz – Olimbek dodxohning sakkizinchi xotini edi. U insofsizlik va shafqatsizlik hukm surgan bu xonadonga koʻnikolmas, berahm dodxohning xotinlariga koʻrsatayotgan sitamlarini koʻngilga sigʻdirolmas edi. Oilada goʻriston haqidagi vahimali hangomalar aytilgan kuzning quruq sovuqli bir kechasida Nodirmohbegimning hikoyasiga javoban: –Oʻlsin, nokas odam ekan, bitta qoʻyni deb...Koshki arziydigan narsa boʻlsa!.. – dedi. Nafsoniyati qoʻzgʻagan dodho Unsinning gapiga gʻashi kelib, uni masxaraladi: – Obbo, tegirmonchining qizi! Bitta qoʻyni nazarlariga ilmaydi!..Yuzta qoʻy, davlatimning yarmini bersam borasanmi? Unsin unga javoban: – Menga davlat kerak emas...Men butkul ketsam deymen, javobimni

bersangiz...Bir emas, o'nta go'rga o'nta pichoq sanchib kelardim, – dedi va kundoshlari va Olimbek dodxohni lol qoldirib, jasorat ko'rsatdi: go'ristonga borib qumg'on qaynatib kelishga otlandi. Hammayoq zim-ziyo qorong'u. Uvillagan shamol kishining ko'ngliga qo'rqinch soladi. O'z qishlog'iga, ota-onasi yoniga borish, ozod bo'lish ilinjida bo'lgan Unsin qorong'ilikdan ham, go'ristondan ham qo'rqmay qumg'on qaynatish uchun qabristonga yo'l oladi. Mushtday qizning erk uchun intilishini o'ziga qarshi ko'tarilgan isyon deb bilgan dodxo qizni qattiq qo'rqitish maqsadida Unsinning ketidan maymunini yubordi. Rangi bo'zdek oqargan Unsin bazo'r uyga kirdi. Tong saharda qishlog'iga, otaonasi diydoriga yetolmay, Unsinning joni uzildi. Shunday qilib, Unsin tobelikdan qutulish yo'lida berilgan birgina imkoniyatdan foydalandi, ammo qurbon bo'ldi. Unsinning o'limi aslo yengilish emas, balki zulm va nohaqlikka qarshi isyon edi. Men shunday xulosaga keldimki, erkka intilgan insonni yengish mumkin emas. Inson o'z erki va mustaqilligi uchun doimo kurashishi, uni himoya qilishi kerak. 281 so'z Argumentli esse namunasi Inson hayotida yoshlikning ahamiyati qanday? Mening fikrimcha, yoshlik – bu insonning kuch-quvvatga to'lgan pallasi. U bitmas-tuganmas kuch-quvvat, g'ayrat-shijoat, jur'at va qat'iy iroda manbai. Yoshlik yillarida insonning tengsiz bunyodkorlik va ijodkorlik faoliyati namoyon bo'ladi, jamiyat uchun yangidan-yangi kashfiyotlari yuzaga keladi. Bu mavzuda qalam tebratish, menimcha, juda dolzarb masala, chunki yoshlar jamiyatning harakatlantiruvchi asosiy kuchi va ertangi kun vorislaridir. Xo'sh, bugungi yoshlar o'z hayotini nima bilan bezamoqdalar? Umr, tiriklik mazmunini ular qanday tushunadilar? Yoshlikning qadr-qimmatini ular qanday baholaydilar? Donolar «Yoshlikni umr gulshanining gultoji», deydilar. Shu o'rinda men e'tiborni ajdodlarimizning hayot yo'llariga qaratgim keladi. Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy yoshligidan ilm o'rganishga, kitobga mehr qo'ygan. Tinimsiz mutolaalar sabab, u yigirma sakkiz yoshida mukammal bilimlar egasi, mutafakkir, el-yurtga tanilgan shoir va tajribali, insonparvar davlat arbobi darajasiga erisha olgan. Dunyo xalqlarini o'z ilmi bilan hayratga solgan Abu Ali Ibn Sino o'n olti yoshidayoq Qur'oni Karimni yoddan bilgan va tibbiyot ilmiga ixlos

qo'yib, tabib maqomini olgan. Bu kabi insonlar navqironlik davrining qadriga yetib, fursatni g'animat bilib, uni bilim va hunar o'rganish uchun sarflaganlar. Shuning natijasida olamshumul darajadagi fozillar qatoridan o'rin olganlar. Bugun o'z yoshligining qadr-qimmatini baholay olmaydigan kishilar ham jamiyatimizda talaygina. O'z vaqtini behuda narsalarga sarf etayotgan yoshlar sirasiga hali balog'at yoshiga yetmay turib, turmushning qing'ir ko'chalarida adashib yurganlar kammi? «To'qlikka sho'xlik» qilib o'g'irlik, talonchilik, buzuqlik natijasida qora kursida o'tirgan, oqibat umrining bebaho damlarini panjara ortida o'tkazishga mahkum bo'lganlar-chi? Statistik ma'lumotlarga qaraganda, 18431 bola ichki ishlar mahkamalari hisobiga olingan. Ulardan 619 nafari 14-15 yoshlar oralig'idagi bolalar bo'lsa, 2035 nafari esa 16-17 yoshlar chamasidagi o'smirlar. Yuqoridagi fikrlarni kelib chiqqan holda shuni aytishim mumkinki, yoshlik har bir insonga o'zligini anglash, komillikka intilish, hayotda o'zining munosib o'rnini topishi uchun beriladigan katta imkoniyatdir. Shunday ekan, biz, yoshlar vatanimiz kelajagi bizning qo'limizda ekanligini his qilishimiz lozim. Bugungi jamiyatdagi mavqe va mas'uliyatimizni oshirish uchun har bir daqiqani g'animat bilishimiz, qaytarilmas yoshlikning qadr-qimmatini to'g'ri baholashimiz kerak. Shaxmat tugagandan so'ng shoh ham, piyoda ham bir qutiga solinadi... Tobelik va tenglik... Jamiyatni tartibga solib turadigan borliqning qat'iy tuzilmasi. Bir istiloh doirasidagi ushbu zid ma'nolar o'rtasida o'zaro mutanosiblik va mukammal uyg'unlik mavjud. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida Shoh Iskandarning Arastudan olamdagi narsalar teng taqsimlanmaganligi sababini so'ragani bobida shoirning chuqur falsafiy mushohadalari yotgani ma'lum. Mulohazalarim ushbu qonuniyatning ijtimoiy munosabatlarda amal qilishi yuzasidan kechadi. Avvalo, olamning tobe tarkibi, zidliklar mutanosibligi haqida ikki og'iz so'z. Qadim Sharq falsafasiga ko'ra, bu olam bir sahna bo'lib, unda har kimning o'z vazifasi va darajasi belgilangan. Biz undagi o'yinchilarmiz. Ushbu asar qat'iy tartibga asosan sahnalashtirilgan. Rollar o'rtasida turlicha munosabatlar o'rnatilgan: rahbarxodim, ota-o'g'il, ustoz-shogird, shoh-piyoda... O'yin tugagandan so'ng aktyorlar teng, do'stona

munosabatlarini davom ettirishadi. Lekin sahnada qat'iy qoidaga amal qilinsagina, qarashlar, amallarda o'zaro uyg'unlikka erishiladi, maqsadlar amalga oshadi, barqarorlikka erishiladi. Demak, asar sujeti unsurlarining qat'iy darajali tarkibi mavjud. Bunday tuzilma uzoq davrlar davomida asar qayta-qayta mutolaa qilinishining zaruriy shartidir. Davlatidagi tuganmas kurashlar davrida yashagan Konfutsiy jamiyatni tartibga keltirishni maqsadiga aylantirdi. Uningcha, davlatni boshqarishda jamiyatda tobelangan munosabatga qat'iy amal qilish muhim. Bu esa oiladan boshlanadi. Oilada o'rnatilgan bunday darajalilik hamda axloqiy qadriyatlarga asoslangan qat'iy tartib jamiyat munosabatlarining ham tartibli va adolatli bo'lishida muhim o'ringa ega. Oiladagi qat'iy tobe munosabat hamda o'zaro rozilikka asoslangan hurmat, a'zolarining o'rniga ko'ra o'z vazifasini bajarishi ularning ongostida qadriyat, qonuniyat darajasida muhrlanadi. Konfutsiyga ko'ra, ushbu an'ana, natijada, jamiyatdagi munosabatlarga tomon o'sib boradi. Hindistonda mavjud kasta tizimi ham darajalilikning yaqqol namunasidir. Hind xalqi ushbu taqsimotni moddiy olamning adolatli tarkibi sifatida qadrlaydi, rioya etadi. Tomonlar muvozanatini ushlab turish puxta ishlangan formulaga asoslangan. Inson fitratidagi ezgulik hamda shakllangan yovuzlik kabi ziddiyatlar uning kamoloti uchun muhim. Imom G'azzoliy fikricha, «Shak yaqiyn – ishonchli ilmning birinchi pog'onasidir». Qalbd sodir bo'ladigan shak, ikkilanish imon butunligi uchun zarur, chunki aynan shubha sababli inson haqiqat sari izlanadi. Shaxmat o'yini davomida donalar o'rtasidagi tobelik, zidliklar kurashi hamda o'yindan keyingi tenglik, aslida, bir butunlikdir. Tomonlar mohiyatan bir ma'noli bo'lib, o'yin davomida bir-birining ASLini aniqlashtirish uchun xizmat qiladi. Bildimki, hayot ziddiyatlari qalbimni yondirish barobarida toblaydi ham... Meni o'tda qoldirganlarga nisbatan shukrli, bag'rikeng va mushohadakor bo'lishim lozimligini har lahzada o'zimga ta'kidlayman. Esse yozishda muallifning tafakkur olami keng va mavzuga oid kerakli bilimlarning bilishi talab etiladi. Bu takomilga o'quvchilarni quyi sinfdan boshlab joriy etilgan mavzular asosida shakllantirish, rivojlantirish va o'qituvchining ijodiy fikrlashlari, qo'shimcha topshiriqlar bilan birgalikda ishlashi maqsad va natijaga

erishish uchun tavsiya etiladi. Qolaversa, esse yozishda bor haqiqatni yoritish va muallifning hayotdagi yoki bu voqelik asosidagi shaxsiy fikri muhim. Va shu o'rinda o'quvchilarning esse yozishga bo'lgan ko'nikmalarini rivojlantirishda esseda har bir o'quvchi o'z fikrini ifodalashi va buning uchun mustaqil fikrga, keng tafakkur bilan yurita olishga ega bo'lishi va ana shu o'z shaxsiy fikr – mulohazlarini munosabatini yozma nutqda ifodalay bilishi asosiysi ekanligini anglatish zarur. Har qanday essenini yozish uchun ma'lum bir bilim, ko'nikma va hayotiy tajribaga ega bo'lish zarur. Aks holda, esse bo'sh chiqadi. Esse yozish jarayoni ko'pincha quyidagicha kechadi: muammo yoki mavzuni aniqlash – mavzu haqida fikrlash – rejalashtirish – yozish – tekshirish – tuzatishlar va to'ldirishlar kiritish.

Mavzuni qanday yoritilishiga qarab ishi rejalashtirib olish zarur. Mavzuning mohiyati nimada, uni nimalar orqali ochib berish va asoslantirish mumkin, qanaqa dalillar va faktlardan foydalaniladi, oxirida qanday xulosaga kelinadi? kabi topshiriqlarni to'g'ri bajarish uchun reja belgilab olinadi, u inshodagi kabi matn boshida keltirilmaydi. Lekin nima deyish mumkin, nimalarga urg'u qaratiladi, xulosa oldindan aniq bo'lishi kerak. Esse qismlarining kirish qismida essening mavzusi, u haqida tushuncha berib o'tiladi. Uni ortiqcha cho'zib yubormaslik kerak. U umumiy matnning 10–20 foizini tashkil etadi. Kirish o'quvchini qiziqтира olishi zarur. Chunki matnni to'liq o'qish yo o'qimaslik qarori ko'pincha kirishdayoq hal bo'ladi. Birinchi jumla ohanraboday bo'lishiga erishish juda muhim. U e'tibor tortuvchi savol, qiziqarli fakt yoki mavzuning dolzarbligini aniq-ravshan ko'rsatadigan fikr bo'lishi mumkin.

O'quvchi mavzuni tushunishi, dalil va fikrlar nimaga qaratilganini anglashi uchun qisqacha ma'lumot berish shart, bunda atamalarni izohlash ham mumkin. Biroq bunga ko'p kirishib ketmaslik kerak bo'ladi. Ular haqida asosiy qismda batafsilroq yozish imkoni bo'ladi.

Keyin tezis, ya'ni asosiy g'oya, nuqtayi nazar keltiriladi va unga ta'rif beriladi. Tezis – ilgari surilgan qarash yoki argument. Yozilganlar unga yo'naltiruvchi bo'ladi. Zarur bo'lsa, mavzuga doir turli qarashlarni, jumladan, bir-biriga zid qarashlarni ham sanab o'tish mumkin. Hajm

masalasi ahamiyatlidir. Tezis uzog'i ikki-uch jumla bo'ladi. Maqsad – o'quvchining diqqatini mavzuga qaratish va mavzu bo'yicha muallif pozitsiyasi bildirib qo'yiladi.

Asosiy qismda tezisni qo'llab-quvvatlaydigan, muallif ilgari surayotgan g'oya yoki fikrni dalillaydigan fakt va ma'lumotlar keltiriladi, tahlil qilinadi. Uning hajmi essening turi, mavzuning ko'lamiga bog'liq. Odatda asosiy qism essening 60–70 foizini tashkil etadi. Asosiy bo'lim – mavzuning nazariy asosi va savolning mazmunini bayon etuvchi bo'lim. Bunda mavzuga mos barcha bilimlar, asosiy fikr va muammoga bog'liq dalil va faktlar jamlangan bo'lib, unda dalillar, xabarlar, turli statistik ma'lumotlardan foydalanib, mavzu yoritiladi, ko'tarilgan muammoning kelib chiqish sabablari oydinlashtiriladi. Bu jarayon birmuncha murakkabroq kechadi. Shu sababli, asosiy bo'limni bir necha kichik qismlarga bo'lish mumkin. Har bir qismni dalillar asosida yoritish asosiy savolga javob topishga ko'maklashadi. O'quvchining keltirilgan fakt va dalillarni taqqoslab, o'z qarashlarini tahlil orqali ko'rsatib borishi asosiy bo'limning to'liq yoritilishiga imkon beradi. Qismlarga to'g'ri ajratish va izchillik bilan bayon etish mavzuning yoritilishidagi mantiqiylikni ta'minlaydi.

Dalillar – o'quvchi tomonidan aytilgan fikrni isbotlash uchun keltiriladigan ko'chirma (maqol, sitata, hikmatli so'z, rivoyat, she'riy parchalar va h.k.). Qo'yilgan tezisga kamida ikkitadan dalillar keltirilishi kerak. Asosiy qismni yoritish uchun kerakli ma'lumotlarni keltirish jarayonida qo'yilayotgan masalaga o'quvchining shaxsiy munosabatini bildiruvchi, shuning bilan birga, *menimcha, mening fikrimcha, birinchidan, ikkinchidan, shu kabi, demak, biroq, unday bo'lsa* kabi kirish so'zlardan foydalanish o'rinli bo'ladi.

Xulosa – essening yakunlovchi qismi. U odatda butun matnning 10–15 foizini tashkil etadi. Xulosada tezisga, ya'ni bosh g'oyaga qaytiladi. Asosiy fikrlar o'zaro bog'lanib, muallifning fikr va qarashlari, dalillari nima uchun ahamiyatli ekani ta'kidlanadi. Uni o'quvchida chuqur taassurot qoldiradigan fikr, ta'sirli gap bilan tugatish zarur. Xulosa – mavzu bo'yicha chiqariladigan yakuniy jumlar bo'lib, unda yangi fikr-mulohazalar bildirilmaydi, balki dalillarga suyangan holda

yakun chiqarilib, uni yechish yo‘llari ko‘rsatiladi. Essening yakuniy qismida asosiy qismda berilgan muammoning yechimi tasdiqlanadi va mazmunning mohiyati ochiladi, ya’ni «Esse boshida ko‘tarilgan masala bo‘yicha nima deyish mumkin?» degan savolga aniq va tushunarli javob tarzida yozilishi kerak. Xulosa qismida quyidagi kirish so‘zlardan foydalaniladi: *men shunday xulosaga keldimki.., qisqasi, asosiy fikrim shuki.., xulosa qilib aytganda...* va boshqalar.

Esse yozishda quyidagi talablarga qat’iy rioya qilinadi:

- shaxsiy munosabatning bildirilishi;
- tezis – kalit so‘zni to‘g‘ri aniqlash;
- faktli dalillar (argumentlar);
- nazariyaga asoslanish;
- atamalarni o‘z o‘rnida qo‘llash;
- sitatlar keltirish;
- mantiqiy qonuniyatning saqlanishi;
- taqqoslash va xulosalash usullaridan foydalanish;
- savodlilik (uslubiy, imlo, tinish belgilari);
- yumor, o‘tkir hajv;
- foydalanilgan ilmiy manbalarga havolalar.

Oquvchiga eslatma!!!

Esse yozishdan oldin mavzuni kengroq o‘rganing. Tushunmagan narsalaringizga aniqlik kiriting. Detallar, atamalar, fakt va raqamlarni tekshiring.

Muammoning mohiyatini qisqacha bayon qiling, fakt va dalillar keltiring. Olimlar, mutafakkirlar va soha mutaxassislarining fikrlaridan iqtiboslar qo‘shish mumkin. Iqtiboslarning aniqligiga diqqat qarating.

Ortiqcha kirish so‘zlar, yuk tashimaydigan ifodalardan voz keching. Bunday ifodalar har qanday matnda, jumladan, esseda ham foydasiz. Masalan, “shuningdek”, “shu bilan birga”, “shuni alohida ta’kidlash lozimki”, “aytib o‘tish joizki”, “hammamizga ma’lumki”, “olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida”, “keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda” kabi so‘z va iboralar aksariyat o‘rinlarda hech qanday foydali ish bajarmaydi.

Sodda va qo'shma gaplardan aralash foydalaning. Jumlar *bo'ldi-bo'ldi*, *qildi-qildi*, *edi-edi* kabi bir xil shakldagi fe'llar bilan tugayvermasin. Orada ot-kesimli gaplar ishlatning. So'z takroridan qoching.

Uslub va individuallik masalasi ham muhim. Samimiy va ochiq fikrli bo'ling. O'quvchi siz bilan birga fikrlasin, sizni o'ziga yaqin ko'rsin. Yasama ifodalar, kitobiylik, o'zingizni bilimdon ko'rsatishga urinish essenini zerikarli va o'qishga yaroqsiz qilib qo'yadi.

Shunchaki matn yasashga urinmang. Aytadigan aniq gapingiz bo'lmasa, so'z bo'tqasi hosil bo'lib qolishi ehtimoli katta. Misollaringiz ham aniq bo'lsin. Umumiy, taxminiy gaplar fikrga kuch bermaydi.

Yozgan essengizni ovoz chiqarib o'qib ko'ring. Shunda uning kamchiliklarini, ifodadagi g'alizliklarini aniqlash osonlashadi.

Imkoni bo'lsa, bir muddatdan so'ng essenini qayta ko'rib chiqing. Essenini ikki-uch kundan so'ng "tozargan" miya, yangilangan qarash bilan o'qing. Oldin ko'rmagan xato va nuqsonlarni albatta topasiz.

Agar essening hajmi katta bo'lsa, uni qismlarga bo'ling va ichki sarlavhalar qo'ying. Yaxlit, katta bir materialni o'qigandan ko'ra kichik qismlardan tashkil topgan materialni o'qish-tushunish osonroq. O'quvchi ichki sarlavhalarga ko'z yugurtirgandayoq essening yo'nalishi, mazmun-mohiyati haqida dastlabki xulosaga keladi. Agar uni shu bosqichda qiziqтира olsangiz, material katta bo'lsa ham, o'qib chiqadi. Xatboshilarga bo'lish orqali matnga havo bering. Har bir abzasda biror asosiy fikr yoki qarash ifodalanishi zarur.

Qisqa, lo'nda va aniq yozishga intiling.

Matn yaratishdagi xatolar

Ortiqcha jimjimadorlik. Ko'p kitob o'qiganingizni yoki so'z boyligingizni atay ko'rsatishga urinmang. Insholarda kuzatiladigan badiiy bo'yoqdorlik, balandparvozlikni ixcham matnlar ko'tarmaydi. Deylik, onalarning bolalar salomatligida tutgan o'rni haqida yozyapsiz. "O, ona, sen naqadar buyuk zotsan! Sening mehri oldida daryolar ham kichik bir ariqqa aylanib qoladi. Sening qaynoq qalbing butun bir olamni isitishga yetadi. Sen oq suting, ulkan mehr-u g'amxo'rlik bilan

bolaga shunchaki mehr emas, salomatlik ham tuhfa etasan” singari hayajon to‘la gaplar mutlaqo ortiqcha. Buning o‘rniga bolalarni asosan onalar parvarishlashi, ularning sog‘lig‘i ko‘p jihatdan onalarga bog‘liqligini misollar, faktlar bilan dalillang. Yoki hayotiy misol keltirishingiz ham mumkin: “Sakkiz yoshimda qattiq shamollab qoldim. Onam kechasi bilan boshimda mijja qoqmay chiqdi. Tongda esa meni opichlab yo‘lga tushdi. Dala yo‘ldan qo‘shni qishloqdagi doktornikiga bordik. U yozib bergan dorilarni ichib, bir kunda tuzalдим. Balki, bu voqea onamning yodidan ko‘tarilgandir. Lekin mening esimda. Hozir ham biror joyim og‘rib qolsa, farzandini opichlagancha dala yo‘lda harsillab yo‘l bosayotgan onam ko‘z oldimga keladi”.

Mavzuni yaxshi bilmaslik va hayotiy misollar keltirmaslik. O‘zi yaxshi bilmagan odam boshqalarga nimani tushuntirishi, angлата olishi mumkin? Hayotiy misollar har doim ham o‘rinli bo‘lmasligi mumkin. Lekin ko‘p hollarda o‘rinli bo‘ladi. U matnning jozibadorligini, ishonchliligini oshiradi. Muallifni o‘quvchiga yaqinlashtiradi.

Fakt va ma‘lumotlardagi xatolik. Tekshirilmagan yoki ishonchsiz manbalardan olingan faktlardan foydalanish so‘zingizning qadrini tushiradi.

Dalillashdagi xatolik. Fikrga aloqasiz yoki uni quvvatlantirmaydigan dalillar keltirmaslik kerak. Dalillar o‘rniga ritorika yoki quruq tasdiqdan foydalanish ham koni zarar. Faqat boshqalarning fikrini keltirish, o‘z munosabati va pozitsiyasini ifodalamaslik esa – shaxsiy munosabat, qarashni ifodalashdan mosuvo etadi.

Qaytariqlar. So‘z, jumla va fikrlarni qaytarish, aytib bo‘lingan fikrni keyinroq boshqa shaklda ifodalash holatlari muallifning malakasi yuqori emasligini ko‘rsatadi.

Mantiqiy ketma-ketlikning yo‘qligi. Jumla va fikrlar bir-biriga bog‘lanishi kerak. Tomdan tarasha tushganday boshqa gapga o‘tib ketish essening yaxlitligiga darz yetkazadi.

Mavzudan chetga chiqish. Mavzuga bevosita aloqador bo‘lmagan masalalarga o‘tib ketish, “o‘tlash” essening hajmini o‘rinsiz oshiradi, o‘quvchining vaqtini o‘g‘iraydi.

Xulosalashdagi xatolar. Xulosa bermaslik, matnda oldin aytib o'tilgan fikrlarni shunchaki qaytarish essening muhim va yakunlovchi qismi nuqsonli chiqib qolishiga olib keladi.

Formatlashdagi xatolar. Agar essenini kompyuterda yozadigan bo'lsangiz, qo'llanayotgan shriftlar va harflarning shakliga diqqatli bo'ling. **Qalin, qiya, tagiga chizilgan** shakldan me'yoridan ortiq foydalanish, shriftlar xilma-xilligi, shrift qo'llashdagi prinsipsizlik essening tashqi ko'rinishiga putur yetkazadi. Agar turfa xil shrift ishlatmoqchi bo'lsangiz, uchtdan ortiq shriftdan foydalanmang. Sarlavha, ichki sarlavha va asosiy matn uchun alohida shrift qo'llash mumkin. Shriftlar boshqa kompyuterlarda bo'lishi ehtimolini ham hisobga oling. Nostandart shriftdan foydalansangiz, u boshqa kompyuterda bo'lmasligi, natijada turli muammolar kelib chiqishi mumkin.

Eng yomoni – ko'chirmakashlik. Plagiat boshqalarning esselari, maqolalari, asarlari yoki ularning parchalaridan manba ko'rsatmay foydalanish. Bu sizning obro'-e'tiboringizni keskin tushiradi. Essega qo'yiladigan baho ham eng quyiga sho'ng'iydi. Boshqalarning fikrlari, ijodiy ishlarini o'qib-o'rganish, ulardan bemalol foydalanish mumkin. Ammo manba ko'rsatishni unutmaslik kerak. Boshqa kimdir aytgan fikrni siz ham aytishingiz ko'chirmakashlik bo'lmaydi. Plagiat – aynan ifodalash, birovning mehnatini o'zlashtirib olish. Aynan ifodalamayapman-ku deb uch-to'rtta so'zini o'zgartirib qo'yish ham o'zini oqlamaydi. Bunday matn mohiyatan plagiat bo'lib qolaveradi.

Qanday mashq qilish kerak?

Bilim, tajriba, so'z boyligi, ifoda qobiliyati juda muhim. Demak, ana shu jihatlarni yaxshilashga intilish zarur.

Boshqa esse va maqolalarni, kitoblarni o'qing. Ulardan o'zingizga ma'qul, sizni ta'sirlantirgan, hayajonlantirgan o'rinlarni alohida daftarga ko'chirib yozing. Bu matnni o'zlashtirishingizni osonlashtiradi. Biroq sifatli asarlarnigina mutolaa qilish zarur. O'rtamiyona bitiklar ta'sirini sizga albatta o'tkazadi va siz ham shunday yoza boshlaysiz. So'ng bu darajani eng yaxshisi deb hisoblash ehtimolingiz ortadi.

Mavzuingizga aloqador manbalarni ko‘rib chiqing. Biroq essenini fakt va ma’lumotlar guldastasiga aylantirmang. Ortiqcha ma’lumot essenini zerikarli qilib qo‘yishi mumkin.

Fakt va raqamlar aniqligiga e’tibor bering.“Olimlarning fikricha”, “o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra” kabi iboralarni aniqroq shaklda bering. Masalan, “Illinoys universiteti olimlari 2020-yili o‘tkazgan tadqiqot natijalariga ko‘ra”, “YUNISEFning 2017-yilgi hisobotida aytilishicha” kabi jumlar fakt va dalillarni osmondan olmaganingizni ko‘rsatadi. Bunda iqtibos mavjudligi ham muhim. Ko‘rsatgan manbangizda siz aytgan ma’lumot bo‘lmasa, essening qadr-qimmati albatta tushadi.

Ko‘p yozing. Imkoni bo‘lsa, har kuni biror mavzuda esse yozib ko‘ring. Sifati, darajasi turlicha bo‘lishi mumkin. Kundan kunga yaxshiroq yozishga harakat qilavering. Mabodo ko‘nglingizdagiday chiqmasa ham, xafa bo‘lmang. Duch kelgan qiyinchiliklaringizni yengib o‘tish yo‘llarini qidiring. Agar har kuni yoki kunora esse yozish me’dangizga tegsa, oraliqni uzaytiring. Esse yozish mashqini malaka hosil qilguncha davom ettirish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim joizki, jamiyatimizni erkinlashtirish g‘oyasi bevosita ta’lim jarayonida o‘z ifodasini topib, uni yangidan tashkil qilish va mazmunini o‘zgartirish, yanada insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish va demokratlashtirish asosida ta’minlanadi. Shunday ekan, kelajagimiz bo‘lgan yoshlarning erkin firkllovchi, barkamol shaxs bo‘lib shakllanishi uchun ularni har tomonlama rivojlantirish zarur. Mamlakatimizda istiqlool yo‘lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish uning milliy zaminini mustahkamlash zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish asosida jahon andozalari va ko‘nikmasi darajasiga chiqarishga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

XULOSA

Ushbu tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O'quvchilarda badiiy matn bilan ishlash hamda marn yaratish ko'nikmalari o'qish savodxonligi, axborot madaniyati va insonning umumiy madaniyati ko'rsatkichi kabi savodxonlik ko'rsatkichlaridan biridir. Matn yaratish kompetensiyalarni badiiy asarlar tahlili orqali takomillashtirish, nafaqat o'rta ta'lim jarayonida, balki maxsus va oliy ta'limda kognitiv faoliyat asosi hisoblanadi. Zamonaviy ma'lumotlar davri sharoitida uzluksiz ta'lim uchun alohida anglashilishi muhim bo'lgan badiiy asarlarni anglash va sharhlash malakalarini egallash, shaxsni kasbiy sohadagi faoliyatini optimal tarzda amalga oshirish qobiliyatini shakllantiradi.

2. O'quvchilarning estetik hamda badiiy didini shakllantirishda badiiy asarlardan foydalanish adabiyotga nisbatan qiziqishlarini oshirib, ma'naviyat yuksalishida samarali ta'sir ko'rsatadi.

3. Kvest texnologiyasidan adabiyot darslarini tashkil etishda foydalanish o'quvchilarning mantiqiy fikrlashiga hamda nutq madaniyatini oshirishda yaxshi samara beradi.

4. Adabiyot darslarida mumtoz asarlar bilan ishlash bo'yicha metod va ko'rsatmalar o'quvchilarni didaktik ruhda tarbiyalashda zarur ko'nikmalarni shakllantirish samaradorligini oshirishi aniqlando.

5. Badiiy asarlarni integratsion yondashuv asosidagi tahlilda o'quvchilarning matn yaratish kompetensiyalari shakllanishi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I. Normativ huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

- 1.1. Sh.Mirziyoyev Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili “Xalq so‘zi”. –2017 6-yanv. – B.1
- 1.2. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
- 1.3. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. (O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi) // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2017. – 4 avg.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

- 1.Бородич А.М. Методика развития речи детей: Учеб. пособ. для студ. пед. инс. 2-е изд. -М.: Просвещение, 1981. -С. 101-255.
- 2.Богдановой М. Учебник для студентов пед.вузов. – М.: Akademiya, 2-е издание, 2002. – с.136
- 3.Botirova Sh.I. Adabiyot nazariyasini o‘qitish metodikasi. –T.: “Book trade”, 2022.
- 4.D.R. Babayeva. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2018, - 432 b.
- 5.D.Babayeva. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi [Matn] : o‘quv qo‘llanma / - Toshkent : Shafoat Nur Fayz, 2020. -432 b.
- 6.Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2020.
- 7.Ibrohim Haqqul. Kamol et kasbkim. Esselar. – Toshkent: “Cho‘lpon”- 1991.–B. 21-22.
- 8.Леонтев А.Н. Проблема деятельности в психологии. // Ж. Вопросы философии. — 1972. -№ 9. С.95-108.
- 9.Леонтев А.А. Язык, реч, речевая деятельность. - М., 1969. С. 135. 15
- 10.Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
- 11.Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot. 6-sinf. Darslik. –Toshkent: Yangi nashr, 2022
- 12.Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot. 7-sinf. Darslik. –Toshkent: Yangi nashr, 2022
13. Ona tili – 6 – sinf darsligi. Tuzuvchilar : Iroda Azimova , Klara Mavlonova Sad’ullo Quronov ,Sholir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov. Toshkent

– 2022.

14.Q.Yo‘ldosh, M.Yo‘ldosh. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. Darslik Toshkent – 2022.

15.Rasulova R.B Umumta’lim maktablari 7-9 sinf o‘quvchilarida yaratish kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari. Ped. Fan. bo‘yicha fals.dok.(PhD)diss.avto-ref. – Chirchiq: 2023.

16.Safo Matjon. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma).-T.:O‘qituvchi, 1995.

17.To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2009.

18.To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –Toshkent, O‘qituvchi, 1992.

19.УШИНСКИЙ К.Д. Родное слово // Собр.соч. - М., 1949. Т. - С. 242-243

20.Выготский Л.С. Мышление и реч. - М.: Педагогика, 1982. Т. 2.

21.Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslar. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: 2018.

22.Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent, O‘qituvchi, 1992

III. Dissertatsiya va avtoreferatlar

3. 1. Rasulova R.B Umumta’lim maktablari 7-9 sinf o‘quvchilarida yaratish kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari. Ped. Fan. bo‘yicha fals.dok.(PhD)diss.avto-ref. – Chirchiq: 2023.

IV. Monografiya, ilmiy maqola, ilmiy to‘plamlar

4.1 Jovliyeva.Y. Adabiyot darslarida Kvest texnologiyasidan foydalanish (Rey Bredberining “Bir kunlik yoz” hikoyasi misolida). “Ustozlar uchun” jurnali: 2023. 45-son 8-to‘plam.

4.2. Mahmado‘stov.A “Adabiyot o‘qitishda fanlararo integratsiyani yo‘lga qo‘yish” Journal of universal science research ISSN (E): 2181-4570

4.3. Rasulova.R, Jovliyeva.Y. Yangi avlod adabiyot darsliklarida badiiy asar tahlili va metodikasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: 2023.

Internet manbalar:

1. <http://www.ziynet.uz>

2. <http://www.kutubxona.uz>

3. <http://www.literature.uz>

4. <http://www.alishernavoiiy.uz>

5. <http://www.arxiv.uz>

MUNDARIJA

KIRISH	2
I BOB. O‘QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	
1.1-§ O‘quvchilarda nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning ilmiy-metodik asosi	7
1.2-§ O‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirishda ona tili saboqlarining ahamiyati.	22
1.3-§ Adabiyot darslarini til darslari bilan integratsiyon bog‘lab o‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirish	31
II BOB. ADABIYOT DARSLARIDA BADIY ASAR TAHLILINING ILMIY-METODIK ASOSLARI	
2.1-§ Badiiy asar tahlilida o‘quvchilarning yosh xususiyatlarining o‘rganilishi	38
2.2-§ O‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	47
2.3-§ Adabiyot darslarida badiiy asar tahlili metodikasi	53
III BOB. 7-SINF ADABIYOT DARSLIGIDAGI BADIY ASARLARNI INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISH	
3.1-§ Badiiy asarlar tahlilida integratsion yondashuv	61
3.2-§ Mumtoz va zamonaviy lirik asarlarni o‘qitishda innovatsion metod va texnologiyalar	77
3.3-§ O‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda yangi tur va janrlardan foydalanish	92
XULOSALAR	110
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	111

RASULOVA RAYXON BAXRITDINOVNA

**O‘QUVCHILARINING MATN YARATISH
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA 7-SINF
ADABIYOT DARSLIGIDAGI ASARLAR TAHLILINING
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI**

Monografiya

Muharrir D. Ulug‘murodov

Dizayner B. Haydarov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 3996-sonli TASDIQNOMA berilgan.

Bosishga ruxsat berildi **07.12.2024 y.**

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozi.

Ofset bosma usulida bosildi.

“Times” garniturasini.

Shartli bosma toboq 8.6

Adadi 100 nusxa.

Original maket

“FIRDAVS-SHOH NASHRIOTI”da tayyorlandi.

Toshkent v., Zangiota tumani, Birodarlik-114-A.

Tel.: 99890-372-85-17